

Anvar Obidjon

MESHPOLVONNING JANGLARI

Qissa

TOSHKENT
CHO'LPON NASHRIYOTI
1994

Muharrir HAMZA IMONBERDIYEV

Sepkilshohning askarlari tinch qishloqni talab, ko‘pchilikni qul va cho‘ri sifatida haydab ketishadi. Bandilar orasida Meshpolvonning yarador dadasi va ko‘zлari kiyiknikidek chiroyli onasi ham bor edi. Qunlardan bir kuni Meshpolvon o‘qlovni nayza, qozonqopqoqni qalqon, daskallani qilich qilib, ota-onasini ozod etish uchun cho‘loq xachirda jangga jo‘naydi... Sevimli yozuvchingiz Anvar Obidjonning o‘zbek xalq dostonlari yo‘lida yozilgan ham quvnoq, ham mushohadatalab qissasi ana shu safar sarguzashtlari haqida.

YOZUVCHIDAN:

*O‘zbekning dono baxshilariga shogird tushib,
ushbu dostoniga qo‘l urdim.*

Meshpolvon to‘g‘risida oltiariqliklar juda ko‘p hangomalar aytib yurishadi. Bularni eshitmabsiz, dunyoga kelmabsiz. Lekin, shunisiyam borki, uning g‘aroyib kechinmalarini birov undoq ta’riflasa, boshqasi: «Yo‘q, aslida bundoq bo‘lgan», deydi. Menimcha, ertakchilarning hammasiyam haq. Chunki, zig‘irdekkina haqiqatdan tug‘ilgan qissanamo bu cho‘pchak asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib, keng ildizlayvergan, har bir ota-onasi o‘g‘il-qiziga o‘zidan qittak qo‘shib so‘zlayvergan. Ahvol shunday bo‘lgandan keyin, endi borini ortiqcha yashirmay, yo‘g‘ini loflab oshirmay, sizlarga o‘rtachasini hikoya qilib bergenim tuzuk.

Aytishlariga qaraganda, o‘sha omadli Meshpolvon kelajakda o‘z ishlari afsonaga aylanib, nomi tarixda qolishini hali bilmagan chog‘laridayoq, tashqi qiyofasi bilan boshqalardan yaqqol ajralib turarkan: ikki lunji nog‘ora, beti oftobdan zog‘ora, jag‘ida eshak tepkisi naqshlagan chandiq, qorni naq qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchuq, yelkasi baayni hurpaygan chumchuq, bo‘yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, boshi Yozyovon cho‘lidek yap-yalang, ko‘rinishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadana-yu mijg‘ov, ko‘zлari boyqushnikidek ola... xullas, rosayam qiziq bola ekan.

Shu bolapaqirning handalakdek boshiga momaguldirakdek ko‘rgilik yog‘ilib, o‘n ikki yoshga to‘lib-to‘lmay tirik yetim bo‘lib qoldi. Yirtqich Sepkilshohning qora papoq kiygan askarlari sel yanglig‘ bosib kelib, uning bolalik quvonchlarini beayov yuvib o‘tdi. Xonodonlar talon, kulbalar vayron, ekinzorlar payhon bo‘ldi. Tirik qolgan jangchilar bilan sog‘lom qiz-juvonlarni zanjirband etishib, birini qul, birini cho‘ri sifatida Qahratoniya degan uzoq o‘lkaga haydab ketishdi. Ularning orasida Meshpolvonning yarador dadasi bilan ko‘zлari kiyiknikidek chiroyli onasi ham bor edi.

Meshpolvon ho‘ng-ho‘ng yig‘lab, bandi qilinganlar ortidan ancha joygacha ergashib bordi. Shunda

dadasi unga o‘qrayib: «Oyimqizlarga o‘xshab hiqillama! Yurt senga qolyapti!» – deb jerkip berdi. Onasi bo‘lsa, o‘g‘liga yuragi to‘liqib bir qarab qo‘ydi-yu, negadir tezda yuzini o‘girib oldi.

Dadasining gapidan keyin Meshpolvon o‘z-o‘zidan joyida to‘xtab qoldi, dashtning chag‘ir yo‘lida imillab qadam tashlayotgan odamlarning qorasi o‘chgunicha mo‘ltirab turaverdi.

Yuzlab oyoqlar ostidan ko‘tarilib, ufqni tumandek qoplab olgan chang asta-sekin sepsildi, ilonizi yo‘l endi bo‘m-bo‘sh edi. Bandi qilinganlar safi butunlay ko‘zdan yo‘qolgan bo‘lsa-da, ular aytib borayotgan qo‘shiq bolakayning quloqlari ostida qayta-qayta jaranglayverdi:

Mardlar senga fido bo‘ldi,
Bizlar tirik judo bo‘ldik,
Kechir bizni, ona yurt.

Mungli qo‘shiq aytmoqdamiz,
Seni tashlab ketmoqdamiz,
Kechir bizni, ona yurt.

Bergan suting oqlolmadik,
Dushmanlardan saqlolmadik,
Kechir bizni, ona yurt.

Endi payhon dalalaring,
Qul-cho‘ridir bolalaring,
Kechir bizni, ona yurt.

Ancha mahalgacha daragi bo‘lmanidan yuragi po‘killab, dushmanlar uniyam qullikka sudrab ketishdimikan deb joni halak yurgan enasi, Meshpolvonning sog‘-salomat qaytib kelganini ko‘rib, avvaliga sevinchi ichiga sig‘may qoldi. Keyin birdaniga «huv-huv»lab yig‘lashga tutindi:

– Qora papoq kiyganlar hamma narsamizni talab ketishdi. Endi seni qanday to‘ydiraman, yetimchaginam?

– Muncha vahima qilasiz? – deb chinqirdi Meshpolvon. – Filni pishirib bering deyapmanmi? Ja borsa, bir qozon sho‘rva ichib, ikki tandir non yeymana-da.

Yaxshiyamki, bu yurtning quyoshli oyi ko‘p, tuprog‘ining moyi ko‘p, ariq bilan soyi ko‘p. Bosqinchilar ketganidan keyin yoz o‘rtalarida ekilgan bo‘lishiga qaramay, arpa-yu bug‘doy, mosh-u loviya, makka-yu sholi, javdar-u qo‘noq, qizilcha-yu oshqovoqlar kech kuzga qolmasdan pishib yetildi. Odamlar ko‘p tirishib, kam uxbab, tut shinnisini zog‘ora nonga bulab, oshqovoqni sutga dimlab, behi bargidan choy damlab, qullikka ketganlar g‘amida ko‘z namlab, qishdan eson-omon chiqib olishdi.

Bu davrda Meshpolvon bilan enasiga, ayniqsa, qiyin bo‘ldi. Kampir bechora o‘zini unutib, chala to‘yish tufayli nevarasining ko‘zlarini kirtayib borayotganiga kuyunsa, xo‘ratomoq bola do‘mbiradek qorni kun sayin puchmayib, belida ishton o‘rnashmay qolayotganidan ichikib yurdi.

* * *

Sirdaryo bilan Amudaryo jo‘sh uraverdi, Orol dengizi to‘lasicha turaverdi. Ot ketidan toylar o‘tib, kun ketidan oylar o‘tib, yana bodom gulladi. Qushlar chug‘irlashni, chumolilar ushoq o‘g‘irlashni boshladи. Meshpolvonning yurtdoshlari asalari galasi bilan bir vaqtida tirikchilik tashvishiga tushdi. Kampirlar urug‘lik donni saralab, chollar qo‘sh haydashdi, qizlar ariq tozalab, o‘g‘il bolalar kesak yanchishdi.

Shudgordagi qop-qora do‘ngalak kesaklar xuddi qora papoqli boshlarga o‘xshardi, bolakaylar

ularni ayamasdan yanchib, havasga tesha urishaverdi.

- Vuy, manavining kattaligini-i!
- Sepkilshohning askarboshisi ana shu-da.
- Ie, bir urib atala qilaylik bo‘lmasa. Mana!
- Hayuv-v!!!

Olib tesha-to‘qmoqni,
Yanching qora papoqni,
Hayuv-v!

Bilakda kuch to‘playmiz,
Yurakda o‘ch to‘playmiz,
Hayuv-v!

Tog‘imizda lola ko‘p,
Yurtimizda bola ko‘p,
Hayuv-v!

Mayli, bizni ko‘rgan choq
Kuyib o‘lsin Sepkilshoh,
Hayuv-v!

Urug‘lar sepilib, ko‘chatlar ekilib, sukut o‘rnini umid egalladi. Dehqonning oyog‘i dalada, og‘zi yallada bo‘lib qoldi.

Laylak o‘tib g‘oz keldi, bahor ketib yoz keldi. Jo‘jalar xo‘rozga, kurtaklar charosga aylandi. Boshoqlarga o‘roq, qovunlarga pichoq tegib, jazlar bir qozon, tandirdagi o‘tlar alamazon bo‘ldi.

Mana shunday fayzli kunlarning birida Meshpolvon o‘tin yoraman deb, to‘nka yaqinida turgan sopol tog‘orani sindirib qo‘ydi. Shu narsa bahona bo‘ldi-yu, o‘g‘lini sog‘inib, ko‘pdan beri ichidagi zahrini kimga sochishni bilmay yurgan enasi xumor yozib sannashga tushdi:

– Bitta to‘ngakni eplab yorolmaysan, yashshamagur. Bo‘ying terak bo‘lsayam, o‘zing erkak bo‘lmading. Erkak bo‘lganingga, ota-onangni quillikka jo‘natvori-i-b, tomoshaqovoqdek do‘mpayib o‘tirarmiding? Hoy, ko‘zimga qara, jigarlaringga kuyishni bilmasang, odamlardan uyalishni bil. Oriyat degan narsa bormi o‘zi senda? Oriyating bo‘lmasa, bo‘yningni bo‘yinturuqdek qilib yuraver. E, satqayi odam ket!

Qorniday katta, ishtahasiday kuchli bo‘lmasayam, harqalay Meshpolvonda o‘ziga yarasha hamiyat bor edi. Enasining gapi yuragiga achishtirarli darajada og‘ir cho‘kib, dilida g‘ashlik chuvalandi. Otga mingashtirib bozor kezadigan dadasi bilan ochligini ko‘zidan sezadigan onasini o‘ziyam o‘lgudek sog‘inib yuruvdi. Kampirning xarxashasi turtki bo‘lib, erkaklik nimaligini bizdan ko‘rasiz endi, deya shartta safarga hozirlandi.

Ammo, g‘arib jangchining na maxsus ust-boshi, na qurol-aslahasi bor edi. Yaktak-ishton ustidan astarsiz choponini kiyib, beliga chilvir bog‘ladi, yelkasiga ho‘kizteri po‘stakni ilib, qatiq ivitiladigan sopol chapyani boshga dubulg‘adek o‘rnashtirdi, belbog‘iga daskalla qistirdi, qozonning yog‘och qopqog‘ini qalqon, uchiga bigiz qoqilgan o‘qlovni nayza qildi. Qo‘shni cholning oldingi oyog‘i oqsoq xachirini qarzga olib, egar-jabduq urdi. Unga minmoqchi bo‘lganida, oftobda qizib turgan uzangi oyog‘ini jizzillatdi. O‘sha turq-atvorda xachirni yetaklab enasining qoshiga bordi, uning kiyilganda choki tepada turadigan, tagcharmsiz shalpildoq kovushiga suqlanganicha bir so‘z dedi:

Sepkilshohning elatiga qilay yurish,

Bo‘lar endi dunyoda eng katta urush,
Noqlaydir yalangoyoq jangga kirish,
Enajonim, kalishingni berib turgin.

Toki chapya butun ekan – boshim omon,
Po‘stakdan o‘q o‘tmas dushman otsa kamon,
Bir urganding, gurzidan ham o‘qlov yomon,
Enajonim, kalishingni berib turgin.

Qozonqopqoq yuragimni asrab yurar,
Sepkilshohing kimligimni endi ko‘rar,
G‘alabaga bitta kovush yetmay turar,
Enajonim, kalishingni berib turgin.

Meshpolvondan bunday qahramonlikni kutmagan enasi oldiniga ikkilanib qoldi. Ko‘sov bilan savalab, shashtidan tushirmoqchi ham bo‘ldi. Lekin, sinchiklab qarasa, ahdi qattiq, ko‘zida achchiq, lablari pichirlab, tishlari g‘ijirlab turibdi. Qaysarligi qo‘ziganini sezib, endi uni yo‘ldan qaytarolmasligini fahmlab, indamay hujraga kirib ketdi. Bir zumdan keyin ikki ko‘zi oziq-ovqatga to‘ldirilgan xurjunni zo‘rg‘a ko‘tarib chiqib, egar qoshiga o‘ngardi. Kalishini yechib berayotib, pand-nasihatlar bilan nevarasiga oq yo‘l tiladi:

Yo‘ling oydin yo‘l bo‘lsin,
Bosgan izing mo‘l bo‘lsin,
Yantoq uzsang, gul bo‘lsin,
Tikonlari tilmasin.

So‘z quyilar labimdan,
Mag‘iz chayna gapimdan,
Non tilama har kimdan,
Nafsing buzuq bo‘lmasin.

Uchrasa ham o‘tinchi,
Salom bergen birinchi,
Seni ko‘rgan har sinchi
Odobsiz deb bilmasin.

Tentak so‘ksa, do‘qlama,
Yong‘oqzorda uxlama,
Alam o‘tsa, yig‘lama,
Bardoshlilar o‘lmasin.

Hatto holing tangida
G‘oz yur odam rangida,
Yo‘l so‘rama bangidan,
Seni sarson qilmasin.

Yuvoshga musht do‘layma,
Zo‘rni ko‘rsang, go‘layma,

Och qolganda sulayma,
Qizlar sendan kulmasin.

Meshpolvon o‘zini xachirga joylab, enasining gapini beliga boylab, yo‘lga tushdi. Yo‘llar esa kaftdagи ajinlardek chiziq-chiziq, yarmi tekis-u yarmi buzuq, biri cheksiz-u biri uzuq edi. Bolapaqir oqsoq jonivorini niqtab, har qaysi guzarda bir to‘xtab, tepe kelsa o‘rlab, nishablikda ashulani tuyog ovoziga jo‘rlab boraverdi:

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjir yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Shu kuyi necha choyxona-do‘kondan, Bag‘dod-u Qo‘qondan, cho‘l-u dashtdan, Isfara-yu Ashtdan ziyon-zahmatsiz o‘tdi, majruh xachirni Jizzax-u Shahrishabzga tik soldirib, yana necha makonni ortda qoldirib, Qizilqumga yetdi. Sahroda bir hafta yurdi hamki, na qo‘qqaygan daraxt ko‘rindi, na so‘ppaygan quduq. Goh qattiq non kemirib, goh meshdan suv simirib, Sepkilshohning qasdida oldinga ketaverdi. Sepkilshoh esa bu vaqtda hashamdar qasrida bamaylixotir aysh surib yotar, yer yuzining nazardan qolgan qaysidir nuqtachasida o‘ziga qarshi dahshatli bir kuch siljiganidan mutlaqo bexabar edi.

* * *

Bir kuni kechki payt bo‘ron boshlanib, yer-u osmonni to‘zon qopladi, Meshpolvonni xachiriga qo‘shib yerga chapladи. Hayvon boshimdan sadag‘a deya jilovni qo‘yvorib, xurjunni mahkam quchoqlaganicha po‘stakka burkanib yotaverdi. Ko‘zi qumga, og‘iz-burni sho‘rttak tuzga to‘ldi. Tongga yaqin bo‘ron tingach, endi sahroni xurragi bilan besaranjom qilib, lohas uxlاب goldi.

Choshgoh mahali uyg‘onib qarasa, hatto qilt etgan shabada yo‘q, quyosh tikkaga kelib, yerni kabobdek jazillatib turibdi. Kal boshidan oqqan terdan chapyada bir cho‘mich suv to‘planibdi. Omon qolganim rostmi-yolg‘onmi deb osmonga tupurib ko‘rdi. Loyqa tuprigi shap etib peshanasiga qaytib tushgan chog‘da ich-ichidan quvonib ketdi.

Shundan keyin xachirini qidirib tevarakka alangladi-yu, qo‘rqinchli manzaradan badaniga qaltiroq kirib, yuragi taka-puka tepdi. Ko‘milib yotgan xachirning dumi bilan tumshug‘igina qum yuzasida arang ko‘zga chalinar, tumshuqning ustida ikkita gurza ilon bo‘yin tikkaytirganicha bir maromda tebranib «raqs tushayotgandi».

Meshpolvon oyog‘ini olti qilib qochishniyam, qumga sanchilib turgan o‘qlovni olib ilonlarga otishniyam bilmay, birpas xo‘shshayib qoldi. Es-hushini yig‘volgandan so‘ng: «Ke, mendan nima ketdi, shu turqi sovuqlargayam bir xushomad qipko‘ray-chi», deb so‘zga og‘iz juftladi:

Ilon tushga kirsa – boylik,
Voy, munchayam siz chiroylik,
Yashang, ilon afandilar!

Men va xachir o‘rtoq bo‘lib,
Keldik sizga qo‘noq bo‘lib,
Yashang, ilon afandilar!

Dumni qilib salang-sulang,

Mehmonlarga oq yo‘l tilang,
Yashang, ilon afandilar!

Chaqvolsangiz jon beramiz,
Chaqmasangiz non beramiz,
Kavshang, ilon afandilar!

Meshpolvon shunday deya xurjunidan bir hovuch talqon olib, yerga sealdi. Sahro xo‘jayinlari sipolik bilan sudralib kelib tanavvulga kirishgan damda, fursatdan foydalanib, xachirini xalos qilishga tutindi. Jonivorni yerdan qazib olgach, tirikchilik qilib mador to‘plasin degan maqsadda yantoqzorga haydarkan, ilonlar tomonga zimdan nazar tashladi. Ular talqonni tinchitib bo‘lishib, mazaxo‘raklik bilan yalanib turishardi.

– Xush ko‘rdik, ilon afandilar,— deya ikki qo‘lini ko‘ksiga chog‘ishtirdi Meshpolvon. – Xo‘p, xayr bo‘lmasa.

Ilonlar hamon dikrayib turganidan dili qorong‘ulashib, bu surlar xachir ikkalamizni yeb bo‘limguncha ketmaydi shekilli, deb o‘yladi. O‘lganining kunidan hiringlab, ularning oldiga cho‘kka tushdi.

– Yana mehmon qilay desak, o‘zimizdayam jig‘ildon bor, – dedi u yutinib. – Uydagilarga salom aytasizlar-da endi.

Ilonlar qattiq vishillab, kutilmaganda Meshpolvonga tashlanishdi, bir sapchib, uning qo‘yniga kirib olishdi. Qabristondek jimxit sahro zumda dod-faryodga to‘ldi: «A-a-a!!! Voy-do-o-d! O‘ldi-i-m! O‘lyapma-a-n! Voy, ena-a-a! Enajo-o-n!!!»

Meshpolvon uyoqqa yumalanib yig‘ladi – o‘lmadi, buyoqqa yumalanib yig‘ladi – o‘lmadi, o‘rnidan turib, uvvos solganicha xachir atrofida qirq marta aylandi hamki, tirikligicha qolaverdi. Baqirish oxiri joniga tegib, jag‘ini tiydi, qo‘yniga sekin quloq soldi. Haliyam bu dunyoda turganiga ishonch hosil qilish uchun yana osmonga tupurib ko‘rdi. Tuprigi qaytib tushib, bu safar burniga chaplandi.

Shundan keyin sal-pal o‘ziga keldi. Qo‘llari qalt-qalt titrab, xurjundan kulcha oldi, bir bo‘lagini maydalab, ehtiyyotlik bilan qo‘yniga tiqdi. Ilonlar «vish-vish»lab to‘lg‘anganicha, oziqni domiga torta boshlaganidan ko‘ngli joyiga tushib, o‘zi ham qo‘rqa-pisa kavshanishga kirishdi. Har yutinganida bo‘ynini cho‘zib, bu ahvoldan xo‘rligi qo‘zib, yantoqzorda qorin to‘ydirayotgan xachiriga yuzlanib, bir arz aytidi:

Bo‘ron keldi teskari,
Chang-to‘zonlar – askari,
Sen yakka-yu, men yakka.

Sahro qopqon, to‘r ekan,
Peshanamiz sho‘r ekan,
Sen bandi-yu, men bandi.

Ilonlari surbet, sho‘x,
Uxlashyapti qorni to‘q,
Sen ochsan-u, men ochman.

Xom kallasi qotmagan,
Uyida tinch yotmagan
Sen ahmog‘-u, men ahmoq.

Mespolvon bu gaplardan keyin har qanday maxluq ham «oh» chekib yuborsa kerak deb o‘ylagan edi, unday bo‘lmadi, nodon xachir indamay nafsi qondiraverdi.

* * *

Ajdodlari yer chopib, urug‘ sochish bilan ko‘hna xonadonga rizq ularshib kelgan Mespolvon ilgari sahroni hech ko‘rmagan edi. Sahro deganda har vaqt uning ko‘z o‘ngida to‘lqinlari qotib qolgan dengizni eslatuvchi yap-yaydoq qum barxanlari jonlanardi. Unchalik emas ekan. Bu maskanning ham o‘z shovqin-u jimliklari, maysa-yu o‘simliklari, muqim kun kechiruvchi jonzot-u hasharotlari, alohida bardoshga yo‘g‘rilib yaratilgan parranda-yu darrandalari, har birining o‘ziga xos yashash tarzi, ayni chog‘da, bir-biriga zanjir halqalaridek bog‘liqligi, faqatgina shu joyga mansub hayot qonunlari bor ekan.

Odamzod doimo odamlar orasida o‘zini erkin va qudratli sezadi, chetga chiqdi deguncha turli xavf-xatarga yo‘liqadi, yolg‘izlanib, pashshadek ojizlanib qoladi. O‘rmon ayiqlari bilan, tog‘-adir bo‘rilari bilan, chakalakzor qoplonlari bilan, ummon nahanglari bilan, dasht qashqirlari bilan, to‘qay to‘ng‘izlari bilan uni hurkita boshlaydi, qalbida yana tezroq odamlarga borib qo‘shilish istagini alangalatadi.

Sahroda ham shunday bo‘ldi. Sovuqturq echkiemarlar galasi o‘ttiz qadamcha orqaroqqa yoyilib olib, Mespolvon bilan uning xachirini talay joygacha ta’qib qilib borishdi. Ular tungi bo‘ron mahali shuncha o‘ljadan bexabar qolganlaridan afsuslanib, baxtlariga boshqa biron ofat yuz berishini kutganlaricha umidvor emaklab kelishardi.

Mespolvon xachirga teskari o‘tirib, bigizli o‘qlovni qo‘liga qo‘ndirib, eti dir-dir titrab, yirtqichlarga zog‘lanib qarab, to‘xtamasdan ilgarilab ketaverdi. U umrida ilk bor sodir bo‘lish ehtimoli kutilayotgan katta jangga o‘zini shaylab, qozonqopqoq ushlagan qo‘lining boshmaldog‘ida qorniga qistirig‘lik daskalla tig‘ini siypab-siypab qo‘yardi. Kun tikkaga kelib, borliqni jizg‘anak qilishga urinayotgan pallada echkiemarlar salqin inlarida jon saqlash uchun tarqalishdi.

Jizgin barxanlarning cheki yo‘qdek edi. Mespolvon bir-ikki kundan keyin: «Bu sahroning cheti yer tugagan joyga borib taqalsa-ya», deb xavfsiray boshlagan ham ediki, orqadan otliq kimsaning qorasi ko‘rindi. Yaqinlashib kelgach, mundoq qarasa, guldor yugan ushlagan, tagida tulpor kishnagan, ko‘zida qandaydir ilinj, belida bir quloch qilich, gavdasi g‘o‘la, bilagi quvvatga to‘la bir o‘spirin qarshisida turibdi, qozonqopqoq‘-u o‘qlovlardan ajablanib, tegrasida aylanib yuribdi. Siyog‘idan payqash mumkinki, shoshib tursa – qamchilab, shoshmasa – so‘z bilan chimchilab o‘tadigan chamasi bor.

Uning avzoyidan cho‘chinqiragan Mespolvon qo‘rqqan oldin musht ko‘tarar qabilida ish ko‘rib, qolaversa, qo‘ynidagi ilonlariga ishonib, boshidan chapyani oldi, peshanasidagi terni yengida artib, to‘satdan dag‘dag‘a qildi:

Qo‘rqmay o‘limdan,
Turma yo‘limda,
O‘qlov qo‘limda,
Ilon qo‘ynimda.

Bu qozonqopqoq
Mardlarga yaroq,
Daskallam – pichoq,
Xachirim cho‘loq.

Boshimda yo‘q soch,

Chapya menga toj,
Yo‘lni to‘sma, qoch,
O‘zi qornim och.

Buni eshitgan asilzoda o‘spirin Meshpolvonga masxaraomuz tikilib, otdan xachirga bukilib, so‘roq-qistovini boshladi:

Tappaytirib burningni,
Qappaytirib qorningni,
Qayoqlarga ketyapsan?

Och qarg‘adek donsirab,
Nortuyadek hansirab,
Qayoqlarga ketyapsan?

Tuksiz kallangni ochib,
Miyang qatiqdek achib,
Qayoqlarga ketyapsan?

Sahroda, tap-taqirda,
Uch oyoqli xachirda
Qayoqlarga ketyapsan?

Meshpolvon o‘ziga gard yuqtirgisi kelmay, kalaka qilinayotganini go‘yoki sezmay, jiddiy turib javob qildi:

Yo‘lga chiqsam, asosim bor,
Sepkilshohda qasosim bor.
Elimni u talab o‘tdi,
Asalimni yalab o‘tdi,
Kallalardan qasr qildi,
Ko‘pchilikni asir qildi.
Pahlavonim dadam – unda,
Mehribonim onam – unda.
Borib ozod qilayin deb,
Enamni shod qilayin deb,
Qo‘g‘irmoch yeb, kuchni to‘plab,
Yo‘lga tushdim kaftga tuflab.

Bu gapdan keyin dimog‘dor o‘spirinning birdan qiyofasi o‘zgardi, «kechir meni, birodar, dardingni so‘ramasdani turib qattiq tegib qo‘yibman», deya otdan tushdi. Kelib, Meshpolvonga do‘stoni qo‘l uzatdi.

– Endi og‘a-ini bo‘lamiz, – dedi u ochiq chehra bilan boqib. – Yo‘limiz bir ekan. Meni otim Oshiqbola.

– Meni to‘g‘rimdag shov-shuvlarni eshitgandirsan, – deb bo‘yin shishirdi Meshpolvon. – Oltiariqdan chiqqan dahshatli Meshpolvon menman. – So‘ng afsuslangandek bosh tebratib, qo‘shib qo‘ydi. – Seni noming qulog‘imga chalinmagan ekan. He, attang...

Meshpolvon shu gerdayganicha o‘zidan quvonib turaversin. Biz uni picha tinch qo‘yib, Oshiqbola

bilan yaxshiroq tanishib olaylik.

* * *

Voh, nuridiydam kitobxonim! Tili biyron bolakaylar! Shirin-shakar qizaloqlar! Sizlar judayam omadlisiz. Chunki o‘zbeklarga faxrli, yovlarga qahrli bo‘lmish dovyurak Go‘ro‘g‘libek haqidagi qiziq rivoyatlarni eshitmagan, uning mardona janglarini sharafovchi dostonlarni o‘qimagan sho‘rpeshanalar orangizda yo‘q.

Esingizda turgan bo‘lsa, yengilmas Go‘ro‘g‘libek shuncha davr surib, bittayam farzand ko‘rmadi. Hasanxon degan bolani Vayangan elatidan, Avazbekni Xunxor yurtidan olib kelib, tarbiyalash uchun bunisini Misqol pariga, unisini Og‘a Yunus pariga tutqazdi.

Bolalar ulg‘ayib yigit bo‘ldi, biri lochin-u biri burgut bo‘ldi. Ko‘p savdolarni boshdan kechirib, g‘animlarning kayfini uchirib yashashdi. Hasanxon suluv xon Dalliga uylanib o‘g‘il ko‘rdi, otini Ravshanbek qo‘ydi. Avazbek bilan Gulqizdan esa qiz tug‘ilib, nomi Gulanor bo‘ldi.

Necha marta qor erib, necha bor chechak undi. Qiz erkaroq, o‘g‘il serkaroq bo‘lib voyaga yetgach, Hasanxon Avazbekning xonadoniga sovchi jo‘natdi. Keksa Go‘ro‘g‘libekning o‘zi o‘rtaga tushib, oqlik so‘rab bordi. Avazbek bo‘lsa o‘z og‘asi Hasanxonning o‘g‘lini qiziga teng ko‘rmay, boboning dilini og‘ritdi. Bu orada Ravshanbek Shirvonshohning qizi Zulkumorga oshiq bo‘lib, yuz xil quvonchazob ko‘rib, oxiri unga uylandi.

Yana kun ketidan oylar o‘tdi, qo‘ldan-qo‘lga choylar o‘tdi, Ravshan bilan Zulkumor sochi jingalak, peshanasi do‘ngalak, zotdor qo‘zidek to‘lpoq, qorako‘z-u oppoq o‘g‘il ko‘rishdi, ismini Oshiqbola qo‘yishdi. Oshiqbola uch yoshida ariqdan sakrab o‘tadigan, to‘rtida harf bitadigan, beshida kitob titadigan, oltisida o‘zini otda erkin tutadigan, yettisida nonga xanjarda yog‘ surtagan, sakkizida o‘q-yoy bilan tangani yirtadigan, to‘qqizida tuxumni xom yutadigan, o‘nida polvonlarni yelkada turtadigan, o‘n birida uyida oshna kutadigan, o‘n ikkisida haftalab ovga ketadigan bo‘ldi.

O‘n uchida ham ovdan ko‘ngli sovimadi. Bir kuni chambillik chapdast jo‘ralari bilan kiyik quvib yurib, Bobotog‘da bir gala qizlarga duch kelib qoldi. Ularning sardori – Boysun begining Oytumor ismli qiziga ishq tushib, eliga sarxushlanib qaytdi, dardini Go‘ro‘g‘libek bobosiga aytdi. Bobosi qirqa guldek navkarini chaman, ulovlarini saman qilib, sovg‘a-yu mol-hol, yana uchta oqsoqol bilan Boysunga sovchi yubordi. Ko‘p o‘tmay sovchilar ikki qo‘li burnida qaytib, noilojlikning sababini aytib, Sepkilshohning askarlari Boysundagi sandiqlarni qoqlab, yigit-qizlarni bog‘lab, qul va cho‘rilikka olib ketganini ma’lum qilishdi. Buni eshitib, Go‘ro‘g‘libekning yurak sanchig‘i, Oshiqbolaning achchig‘i qo‘zidi. Bobosidan G‘irotni tilab, dadasingin qilichini tasmaga ulab, Sepkilshohga pinhona jag‘ silab, yo‘lga chiqdi...

Oshiqbolaning gaplarini Meshpolvon o‘shanday g‘o‘dayganicha tinglab bo‘lgach, unga boshdan-oyoq nazar solib dedi:

– Dadam onamga sovchi qo‘yanida, opoq otam: «Hali yosh ekansan, kurash tushsang – belingni, o‘g‘ri bossa – keli¹ngni, dushman kelsa – elingni saqlay olarmikansan? Avval ililingni to‘ldir, biron ishni do‘ndir, payingni shishir, aqlingni pishir, keyin uylan», degan ekan. Seniyam boshing chumchuq-deg-u, yondim-kuydim deyishingga o‘laymi?

– Zotimiz o‘zi shunaqa, – deb g‘ururlandi Oshiqbola. – Dadam Ravshan botir ham o‘n uch yoshida Shirvonda qilich savashib, onamni olib kelgan.

Buni eshitib, Meshpolvon chuqr xo‘rsinib qo‘ydi:

– Meni dadam o‘ttizida ro‘zg‘or qilgan.

* * *

¹ Кели – ичи ўйилган ғўла, келисоп билан уриб, унда дон туйишган.

Shu kuyi ikkalasi gapni gapga ulab, yomonning nomini balchiqqa bulab, yaxshini osmonga ko‘tarib, garmseldan yuzlari ko‘karib, saksovullarni oralab, poyonsiz sahroni bo‘ralab boraverdilar. Bir yoqda jizg‘anak azobi, ikkinchi yoqda suv va ovqat tejami, yana uyqusizlig-u sargardonlik balosi qo‘shilib, uch-to‘rt kundayoq Meshpolvonning holi tang bo‘ldi: og‘zi qaqrab, tomog‘i taqilladi, jag‘i ochilib, tili osildi.

Oshiqbola o‘zini ancha bardam tutib kelayotgan edi. Ammo, ertalab qulog‘i tagida qandaydir shish paydo bo‘ldi-yu, isitma chiqib, ko‘zlariga qon quyildi, belidan mador ketdi.

– Buqoq bo‘lganga o‘xshayman, – deya ruhi so‘niqib po‘ng‘illadi u. – Shu bashara bilan Oytumorga qanday yo‘liqaman?

Meshpolvon pishillaganicha qo‘l siltab dedi:

– Xafa bo‘lma, oshnaginam, buni yo‘li oson. Ozgina noningdan bersang, qanday tuzatishni aytaman.

Oshiqbola G‘irotning yuganini tortib, sekin yerga tushdi. Otning beliga har ko‘zi toypaxtadek keladigan olacha xurjun tashlangan edi, ochiqqa‘l asilzoda undan to‘rtta non, yarim xalta tolqon, yigirmatacha pishirilgan tuxum, mayiz-turshak olib, dasturxon yozdi. Yozilayotgan dasturxonning shabadasidan uchgan qumlar hali to‘xtab-to‘xtamasidan, Meshpolvon allaqachon shu joyga chordana qurib ulgurgan edi. Oshiqbola narsalarni birin-ketin o‘rtaga keltirib qo‘yayotganda u yutoqib tamshanganicha, har safar: «Rahmat, oshna. Kam bo‘lma», deb duogo‘ylanib turdi.

Nihoyat «oling-oling»ga navbat yetdi. Oshiqbola dastlabki non burdasini og‘ziga solayotib, tuxumga sepishga tuz yo‘qligini ko‘rdi-yu, borib yana xurjunni titkiladi. Tuzni olib kelib qarasa, dasturxon shipshiydam. Nima bo‘lganini tushunmay, bir muddat angrayib turganidan so‘ng, Meshpolvondan so‘radi:

– Hoy, dasturxondagilar qani?

– Nima balo, seniyam qorning ochmidi? – deya bezrayib boqdi Meshpolvon. – Shuni oldinroq aytmaysanmi? Qo‘lingdagi yeydigan narsami o‘zi?

– Tuz.

– Qani, buyoqqa uzat-chi.

Meshpolvon tuzni olib, shartta og‘ziga to‘kdi. Yutayotib hatto yuzini burishtirib qo‘ymadi.

Ular ovqatlanib bo‘liboq yana yo‘lga tushishdi. Yutinishga ham qynalayotgan Oshiqbola yo‘l-yo‘lakay zog‘orani so‘rib borayotib, «buqoqning davosini aytgin endi», deb zardalandi.

– Hozir aytaman, – dedi Meshpolvon. – Oldin ozgina ovqatdan cho‘zgin. Chika minan Puka esdan chiqibdi-ku.

– Kim deding? – zog‘orasidan bir to‘g‘ramini uzatayotib so‘radi Oshiqbola.

– Ilonlarim, – deya oziqni uch qismga bo‘lib, birini o‘ng qo‘yniga, ikkinchisini chapiga tiqdi Meshpolvon. Uchinchi bo‘lakni esa o‘zi yamlay boshladı. – O‘ng qo‘ynig‘imdagisi – Chika, chapdagisi – Puka. Umringda oshiq o‘ynaganmisan o‘zing? Otgan oshig‘ing yutuq tomonga yonboshlasa – chika, teskari tarafi tushsa, puka bo‘ladi.

Ana endi Meshpolvonning Oshiqboladan kulishini ko‘ring:

Sho‘ring qursin, baxmal chopon,

Ulg‘ayibsan juda nodon.

Oshiq nima, bilmasmisan?

O‘zbakmisan, habashmisan?

Bordir yana yong‘oq o‘yin,

Yutsang – ovqat ikki qo‘yin.

Yoz kelganda kirib boqqa,

Otganmisan zo‘ldir-soqqa?

Yerga chizib «chizma-chiziq»,
Sopol surish undan qiziq.
O‘ynamagan bo‘lsang «Dasta»²,
Demak, mendan zarbining past-da.
«Hammom pishdi» besh yoshga mos,
O‘n yoshgacha hayinchak os.
Katta bo‘lib qoldik endi,
Bizga bopi – «eshak mindi».
Bilmayman deb jahlim qo‘zma,
Axir, mashhur «Qulqulo‘zma»³ –
Kam emasdir ulog‘ingdan,
O‘t chaqnaydi qulog‘ingdan.
Hammasini qiyoslab ko‘r,
«Mo‘ri-mo‘ri» o‘yini zo‘r.
Bordir yana «Bekinmachoq»,
Eng qaltisi – «Urshapaloq»⁴.
Qilar seni ovchi, jangchi:
«Yoppa kurash», «Sholi yanchi»,
«Pichoq sanchar», «Sopqon otdi»,
«Kamand chirmash», «Arqon tortdi».
Aralashsa agar qizlar,
Kelin-kuyov saylab bizlar,
O‘ynar edik «Xola quchgan»,
Kimki sovchi – qo‘lga tushgan.
Bo‘sang qizni qilar qoqvosh
«Hakalakam» minan «To‘ptosh».
Ayniqsa til qayrar juda
«Oling, quda-bering, quda».
O‘ynaganlar «Oq-ko‘k terak»⁵,
Chopa olar naq pirpirak.
Yetti pushtdan qolgan meros
«Halov, tuya», «Tojixo‘roz»...
E, bularni kim bilmabdi,
Bu dunyoda tug‘ilmabdi.

Oshiqbola nafsi o‘tkir yo‘ldoshining bidirlashlariga befarq qulqo solib turgach, qovoq-tumshug‘i osilib so‘radi:

- Buqoqning davosi nima, deyapman? Yo xurjunim bo‘shamaguncha aytmaysanmi?
- Buqoqmas bu, – deb nihoyat asosiy gapga o‘tdi Meshpolvon. – Buni tepki deyishadi. Davosi oson: ikkita kulchami, to‘rtta olmami, oltita varaqimi – nimaniki topsang, hisobini juft qilib, egizak tuqqan xotinning uyiga borasan, qo‘lingdagini berib, dardingni aytasan. Yegan og‘iz uyalar degan gap

² Даста—чиллак ўйини.

³ Кулкўзма—тўйларда шундай ўйин бўларди: катталардан бирори рўмолнага танга тутиб, болаларнинг ўртасига ташлар, рўмолнани паккага элтган бола тангаларни оларди. Шериклари йўлда тутиб олишса, рўмолнани ташламагунча кулоғини чўзишаверади.

⁴ Уршапалок ёки муштум-шапалок—бирон бола ўнг қўлида кулоғини тўсиб, чап кафтини кўлтиғига тескари қўйиб туради. Орқадагиларнинг бири уради, ҳамма «мана, мана», деб бақиради. Долвой бола урганни топса, ўзининг ўрнига тургизади.

⁵ «Оқ-теракми, қўқ терак» ўйини.

bor. Xotin hamma ishini tashlab qo‘yib, kallangni po‘saxonaga⁶ midib⁷ yotqizadi, shishgan joyingga yalang oyog‘i bilan yetti marta tepadi. Bir haftadan keyin sen ko‘rmading, men ko‘rmadim bo‘lasan.

Oshiqbola indamay otiga qamchi urdi. Meshpolvon ham xachirini oldinga qistab, sevimli qo‘shig‘ini xirgoyi qila boshladi:

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjir yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Ular turtinib-surtinib, talay yo‘l bosishdi. Egizak bolali xotin uyoqda tursin, qarg‘ish tekkan bu sahroda biron-bir tirik jonning o‘zini uchratish amrimahol edi. Shunga qaramay, Oshiqbolaning bo‘ynidagi shish bir haftada o‘z-o‘zidan qaytib ketdi.

* * *

Xayriyatki, sahroning naryog‘i Meshpolvon o‘ylaganidek, «er tugagan joy»ga borib taqalmas ekan. Avvaliga yakka-cheorra ovullar uchrab, oxiri kattakon daryoning bo‘yidan chiqib qolishdi. Qirg‘oq yoqalab borib, kechga yaqin Mingpoda shahriga duch kelishdi. Yo‘ldagi ovullarda mehmon bo‘lishganda, mingpodaliklar Sepkilshohga o‘z xohishlari bilan bo‘ysunib, daryodan quyidagi yerlarni talashiga yo‘l ochib berishganini cho‘pon-cho‘liqlardan eshitishgan edi.

Qo‘sh-omoch arang siqqulik tor ko‘chalarida har xil chuqur qazilgan, qurumli gumbazlariga o‘rgimchakto‘r osilgan, devorlari nuragan, g‘ijirloq darvozalari moy so‘ragan bu shaharda ikkalasi karvonsaroy qidirib ancha sarson bo‘lishdi. Birov itmisan, bitmisan demadi. Hamma o‘z ishini bitirish, o‘z nafsga qayg‘urish bilan band edi.

Begona-ku – begona, bu yerning odamlari hatto bir-biriga ham oqibatsizligi shundoqqina ko‘rinib turardi. Agar yaqin tanishlar uchrashib qolsa, birovi bosh qimirlatsayam obro‘yi to‘kiladigandek, shunchaki qosh uchirib qo‘yar, unisi bezrayganicha sal qovoq yumib alik olardi. Qarama-qarshi darvozalardan ko‘chaga teng chiqib kelgan qo‘shnilarning biri g‘o‘dayib ko‘z qissa, ikkinchisi jiyingin mo‘ylov uchirardi. Dushman ularni hech bir qiyinchiliksiz tobe etib, endi osongina tizginlab yurganining boisi ham shu bo‘lsa kerak.

Faqat bolalargina g‘alati qurollanib, ho‘kizteri yopingan jangchini alohida qiziquv bilan tomosha qilishib, ko‘chama-ko‘cha ergashib borishdi.

Yo‘llar torligi uchun ulovlar oldinma-ketin yurar, otning tuyog‘i taratgan changdan Meshpolvonning tomog‘i qichishib, xachiri ham nafasi qaytayotgandek tinimsiz bezanglardи.

«G‘irot bo‘lsang o‘zingga! – deya tixirlandi Meshpolvon. – Xumbosh egang izzatini bilib, orqada yuraversa o‘larmidi?»

Oldda doim asilzoda,
Qolgan odam go‘yo poda.
Mayli, oldda yursa yursin,
Biroq changitgani qursin.
Achishadi tanglay-tomoq,
Ko‘zlaringga to‘lar tuproq.
Yo‘l qayoqda, ko‘rolmaysan,
Jilovniyam burolmaysan.

⁶ Пўсахона – остона.

⁷ Мидиб – ёпиштириб, жипслаб.

Savol bersang, kelmas javob,
Yetaklaydi battar shitob...
Ayting, axir bunday «poyga»,
Boshlab borar oxir qayga?
Sizga rostin desam, xullas,
Ergashganga qilmang havas.
Umr o'tar bo'lsa changda,
O'lgan yaxshi biror jangda.

Borib-borib, to'rtko'chaga tutashuvchi keng yalanglikka chiqib qolishdi. O'rtada – suvsiz toshhovuz. Hovuz bo'yidagi qurigan chinor ostida soch-soqoli oshqovoqpalak bo'lib o'sgan, chakmoni qalandarning paytavasidek to'zgan, shalvariga mingta yamoq oralagan, oyog'ining boshmaldog'i chorig'idan mo'ralagan haykalsimon bir gadoy ajab-ajab gaplarni aytib, javranib o'tirardi:

– Ho', odamlar! Jindak aql tashlab o'ting, o'rniga tilimni beraman.

Meshpolvon hech narsaga tushunmay, merovlanganicha Oshiqbolaga qaradi.

– Ho', odamlar! Menga insof berib, jig'ildonimni olaqoling. Bilaman, baribir sizga insofning keragi yo'q.

Endi Oshiqbola ham hayratlanib, Meshpolvonga o'girildi.

– Ho', odamlar! Mayli, burnimni oling, ortiqcha ko'z-quloqlarni menga topshiring.

Ikki musofir angraygan kuyi ulovlaridan tushib, gadoya yaqin borishdi, birin-ketin salom berishdi.

– Gapni qisqa qilinglar, – dedi gadoy. – Sizlarga o'pka kerakmi? O'rniga nima berasizlar?

Yurakmi?

Ular nima deyishni bilmay, bir muddat kalovlanib turishdi. Nihoyat Oshiqbola tili tutilib gap boshladi:

– Nega... bunaqa deyapsiz, bobo?

– Olamdagi eng qimmatli jonzot – odam, – deya shohona qiyofada osmonga qo'lini bigiz qildi gadoy. – Chunki, unda aql bor, idrok bor. Aql-u idrokniyam, farosatniyam ko'z bilan quloq boyitadi. Biz bo'lsak, burun bilan yashayapmiz, til bilan kun ko'ryapmiz. Iskovuchmiz! Chaqimchimiz!

– Bechoraga boringni bergen, – deb shivirladi Meshpolvon, – ochlikdan jinni bo'pqolay depti.

Gadoy bu gal ularni quloq solib emas, ko'zi bilan tinglayotgandek edi.

– Dunyoda uch xil jinni bor: xalqini talonchilik bilan to'ydiradigan podsho, podsho nima desa ma'qullayveradigan amaldor, shu ikkala jinniga qo'shilgan fuqaro.

Gadoy shunday deya ulardan yuz o'girib, viqor bilan jag'ini ko'tardi, bulutlari qizg'ish osmonga qiyalab tikildi. Oshiqbola tulporidagi xurjunni tag-tugi bilan olib kelib, uning oldiga qo'yayotganda ham, ikkovi asta uzoqlashib borayotganda ham, rahmat aytish tugul hatto churq etmadi. Olovrang bulutlarga ko'z qadaganicha toshdek qotib turaverdi.

Ular gadoyning gapidan hayron lab tishlab, ulovlarining tizginidan ushlab, yalanglikni piyoda kesib o'tishdi, to'g'ridagi torko'chaning boshiga yetishdi. Oshiqbola uzangiga endi oyoq qo'ymoqchi bo'lganida, Meshpolvon unga burun teshigini do'layib karilladi:

– Menga qaragin, oshna. To'g'risini aytganda, haddingdan oshyapsan. Kimsan – dahshatli Meshpolvon bo'lsam, nomimga yarasha obro'yim bor. Indamasam, shaharda oldimga tushib yurding. Boya gadoygayam men turganda avval sen salom berding. Shuyam ishmi?

Shu kuyi, Meshpolvonning og'zidan bodi kirib, shodi chiqaverdi:

Yurma menga egov bo'lib,
Olifta-yu lalov bo'lib,
Yoz paytiyam tumov bo'lib,
Burning qilib paraq-puruq.

Bosib kiborliging yuki,
Yo‘l boshlama lo‘kki-lo‘kki,
Asli mendan farqing shuki,
Tasmang faqat yaraq-yuruq.

Bo‘lmasa non, tolqonlaring,
Tinglamasdim yolg‘onlaring,
Qilich, sovut, qalqonlaring
Jonga tegdi – sharaq-shuruq.

Qo‘ymay turib hali soqol,
Pandlar aytib, to‘qib maqol,
O‘choqdagi choydish misol
Qilaverma varaq-vuruq.

G‘irotdan g‘oz boqinasan,
Yayov yoursang, qoqinasan,
Go‘daksan-u, sog‘inasan –
Ko‘z suzsa qiz charaq-churuq.

Qon bo‘ldim sen egov bilan,
Olifta-yu lalov bilan,
Sopqolmayin o‘qlov bilan
Boshginangga taraq-turuq.

Oshiqbolaning bu gapdan g‘ashi kelgan bo‘lsayam, o‘zini bosdi, o‘rtog‘ining soddadilligiga kulib
qo‘yaqoldi.

Bir mahal torko‘chada juvonlari iljaygan, erkaklari so‘ljaygan mazanglar paydo bo‘ldi. Ular
chirmandani bata-bang urib, o‘yinchı kampirni oldinga surib, sho‘x-sho‘x qo‘shiq kuylab, bironta
laqmani avrashni o‘ylab kelishardi.

O‘yinchı kampirning qo‘shig‘i mana bunday edi:

Qaynanalar, kelinglar,
Kumush tanga beringlar.
Alam qilar kelincha,
Saqich olib chaynasak.

Kelinchalar, kelinglar,
Chirmandadan olinglar.
Kuysa kuyar qaynana,
Uni chalib o‘ynasak...

Meshpolvon ularning oldini to‘sib, yaqin atrofda karvonsaroy bor-yo‘qligini so‘radi. O‘yinchı
kampir bo‘ynidagi marjonlarini sharaqlatib, piyoladek ko‘zlarini charaqlatib, unga yaqin keldi. Qo‘lini
beliga tirkab, og‘zidan dovul purkab: «Bittagina karvonsaroy bor, uyam tovuqning katagidek tor, har
o‘nta musofirdan bittasi to‘g‘ri, qolgani o‘g‘ri, uxlasang – u yoningda hangi, bu yoningda bangi, sani
ko‘ngling gumonda, ularniki – hamyonda, topilsa – chaqani, topilmasa – otingdagi taqani olishadi.

Undan ko‘ra, biz bilan yuringlar, tunning gashtini yalangda suringlar, soy bo‘yida bazm qilamiz, yeganimizni ajriqda dumalab hazm qilamiz», dedi. Ikkovlon bir zum paysallanib turishgach, qimmatbaho molimiz yo‘q, birovdan xavfsiraydigan holimiz yo‘q, deyishib mazanglarga ergashishdi.

* * *

Bu ko‘chmanchilar shahar chetidagi soy sohiliga makon qurishgan ekan. Borib, o‘tloq joyga davradavra bo‘lib o‘tirishdi. Har kim himmatiga yarasha narsa olib kelib, o‘rtaga to‘kaverdi.

Meshpolvon tekin ziyofatdan suyunib, endigina yeng shimarmoqchi bo‘lib turgan ediki, ot tuyoqlarining dupur-dupuri eshitildi. Qosh qoraya boshlagani tufayli, qandaydir otliq to‘da shu yoqqa yaqinlayotganini ham ilg‘amay qolishibdi.

Ot ustiga o‘rnatilgan ulkan tarvuzni eslatuvchi baqaloq kishi birinchi bo‘lib do‘ng ortidan chiqib keldi.

– Bu Nahang o‘lponchi,— deya u tomonga ishora qildi o‘yinchi kampir.—Soliq to‘plab yuribdi.

...Voy, o‘yinqaroq kitobxonlarim-ey, hali soliqning nimaliginiyam bilmaymiz deng? Juda baxtlisizlar-da!

Dunyoda zo‘rlab olinadigan soliqdan rasvo narsa yo‘q. Masalan, aytaylikki, bobongizning bobosidan meros qolgan besh tanob yeringiz bor. Ana shu yerga o‘zingiz chilla suvi berib, o‘zingiz haydab, o‘zingiz o‘g‘it solib, o‘zingiz mola bosib, o‘zingiz urug‘ sochasiz. Ariq tozalash-u ekin sug‘orish ham o‘zingizning bo‘yningizda. Yugurib-elib, bug‘doyniyam pishirib olasiz. Keyin o‘rasiz, bog‘laysiz, to‘playsiz, xirmonga tashib chiqasiz, yoyasiz, birovning ho‘kiziga haq to‘lab yanchiysiz. Donni poxoldan ajratib olgach, uni shamolga shopirib saralaysiz. Ana endi g‘allani qopga solsangiz ham bo‘laveradi.

Bug‘doy o‘n qop chiqdi deylik. Unga qarab, kallada xomcho‘t qila boshlaysiz: tegirmonga olib borsam, taxminan shuncha un bo‘ladi, shunchasi tegirmonhaqiga ketadi, shunchasini non yopib yeyishga ajrataman, shunchasini sotib, ro‘zg‘orga shu-shu narsalarini olaman...

Birdan fikringiz chalkashadi, bu bug‘doylardan kelasi bahorda ekishga urug‘lik asrab qo‘yish yodingizdan ko‘tarilganini fahmlaysiz. Hisob-kitobni qaytadan boshlamoqchi bo‘lib turganingizda, dabdurustdan poshsholikning odamlari kelib qoladi, bug‘doylarni Sepkilshohga qarashli yerlarda o‘stirding, endi haqini cho‘zib qo‘y, deyishadi.

O‘z mehnatingiz bilan o‘z yeringizda yetishtirgan hosilingizning poshsholik uchun olinadigan o‘sha qismi «soliq» deyiladi, uni undirib ketadigan kishilarni esa «soliqchi» yoki «o‘lponchi» deb qarg‘ashadi.

O‘lponchi insof qilsa, bug‘doyingizning yarmini, insof qilmasa, o‘n qopdan yetti-sakkiztasini olib ketaveradi. Bug‘doyning o‘rniga pul beraman desangiz ham yo‘q demaydi.

Poshsholar-u amaldorlar kimlar-u nimalarning hisobiga kun kechirishini endi bilib olgandirsiz? Ular shunaqa, o‘zini boqayotgan odamlarning xok-poyini ko‘zga surtish o‘rniga, ularga zo‘rlik qilishadi, aldashadi, o‘lay deb topganini talab ketishadi...

Nahang o‘lponchi Sepkilshohning moldek fahmsiz, bo‘ridek rahmsiz soliqchisi edi. Podishoh o‘n xil soliq solsa, u yana uch xilini qo‘shar, besh tangadan to‘plab kel desa, odamlardan olti-etti tangani shilib olardi.

U har safargidek yigirmata maishatparast sarbozi, ikkita kalxatfe‘l jallodi bilan Mingpodaga kelib, birovni qo‘rqitib, birovni darrada kaltaklatib, qaysarini dorga osdirib, poshsholikning xilma-xil soliqlarini yig‘ib qaytayotgan edi: yer solig‘i, suv solig‘i, uy solig‘i, mol solig‘i, o‘tin puli, tutun puli, eshak puli, kesak puli...

Bulardan cho‘ntakka urib qolgani yetmagandek, Nahang o‘lponchi salsa solig‘i bilan ishton puliniyam o‘zicha qo‘sib qo‘ygandi. Soliqchilar kelgandan keyin bu yurtda sallaliklar soni keskin kamayib ketgan bo‘lsa-da, ammo ishton pulidan hech kim qochib qutulolmadı.

Nahang o'lponchidan so'ng do'nglikda ikki barzangi jallod, yuk ortilgan tuyalarni qo'riqlab kelayotgan qora papoqli sarbozlar paydo bo'ldi.

– Qimirlamay tur hammang! – deb do'q urdi Nahang o'lponchi mazanglarga yaqinlashayotib.

Sarbozlar o'tirg'anlarni tezda qurshab olishdi.

– Hoy, sandan oynanay, – deya o'rnidan turib o'lponchiga yuzlandi o'yinchi kampir. – Qo'lida eski chirmanda, cho'ntagi quruq sharmanda lo'lilar bo'lsak. Bizdan nimani istaysan?

– Gapni ko'paytirma, – deb o'shqirdi Nahang o'lponchi. – Chirmanda pulini yaxshilikcha to'lab qo'y.

Mazang kampirning ko'zлари chaqchaydi. «Yetmish yil sang'ib, sakson mamlakatni ko'rdim. Lokin chirmandaga soliq solganlarini birinchi bo'lib san muttaham aytding», deya bir so'z dedi:

Soliq solding yerimga,
Qo'ydan shilgan terimga,
Soyda yuvgan kirimga,
Chirmandamga yopishma.

Olding ko'chat pulini,
Olding ko'kat pulini,
Olding no'xat pulini,
Chirmandamga yopishma.

Bo'kish puli so'rading,
Cho'kish puli so'rading,
So'kish puli so'rading,
Chirmandamga yopishma.

Qizlar to'lar xol puli,
Kampir to'lar chol puli,
Chol to'lar soqol puli,
Chirmandamga yopishma.

Duvol puli ber deding,
Ro'mol puli ber deding,
Shamol puli ber deding,
Chirmandamga yopishma.

Ariq puli to'ladik,
Sariq⁸ puli to'ladik,
Choriq puli to'ladik,
Chirmandamga yopishma.

O'ylab topding qor pulin,
O'ylab topding dor pulin,
O'ylab topding or pulin,
Chirmandamga yopishma.

⁸ Сарик касаллиги демоқчи.

Soliq solding tushga ham,
Soliq to‘lar ishtaham,
Kelib endi, muttaham,
Chirmandamga yopishma.

Nahang o‘lpochining birdan fig‘oni falakka chiqib: «Kim muttaham? Hozir seni o‘lponga olingan echki hisobida go‘shtga tortaman», deganicha kampirga dag‘daga qila ketdi:

Hap senimi, lo‘li kampir,
Tish o‘tmagan eski chandir,
Gap bilan jon olgan ombir,
Seni go‘shtga tortish kerak.

Bordir poshsho chizgan chiziq,
Tan olmading uni, qiziq,
O‘y-maqsa ding juda buzuq,
Seni go‘shtga tortish kerak.

Chiqib kelib shitob bilan,
Fitnanamo xitob bilan,
Gap talashding arbob bilan,
Seni go‘shtga tortish kerak.

Qachongacha semirasan,
Soliq bermay kemirasan,
Mamlakatni yemirasan,
Seni go‘shtga tortish kerak.

Nahang o‘lpochi kampir tarafga imo qilib, mo‘ylovini qimirlatdi. Jallodlar otdan tushib, qo‘llaridagi so‘yilni havoda vizillatgan kuyi o‘yinchi kampirga yaqinlasha borishdi. Mazang yigitlar chaqqonlik bilan o‘rinlaridan turib, kampirning atrofini o‘rab olishdi, yeng shimarib, musht-mushtga shaylanishdi. Jallodlardan biri oldinroqdagi chayir o‘smirning o‘sinq sochidan tutamlab, boshdan oshirganicha orqaga uloqtirdi. Buni ko‘rib, sarbozlar qah-qah urib kula boshlashdi.

Dadasi gohida Meshpolvonga: «Odamxo‘r jalloddan qo‘rqma, ahmoq do‘stdan qo‘rq», deb uqtirar, so‘ng bu gapini izohlab: «Ahmoq odamlar og‘machi, og‘machilar ta‘magir, ta‘magirlar xaromxo‘r bo‘lishadi. Xaromxo‘rlarni qarmoqqa ilintirish oson, g‘animlaring undan chayon yasab, paytavangga tashlashadi. Paytavadagi chayon esa seni kutilmaganda chaqishi bilan jalloddan ming marta xavfli», derdi. Qiziq! Ahmoq do‘stning basharasi qanaqa bo‘larkin?

Meshpolvon dangal oldinga chiqib, lo‘lilarga: «To‘xtanglar!» deb hayqirdi va «bularni menga qo‘yib beringlar», deya jallodlarga yaqin bordi. Jallodlardan biri masxaraomuz tirjayib: «Yordam beringlo‘-o‘-r!» - deb atrofga alangladi. Ikkinchisi ham: «Alpomishga uchradik-ku, voy dod!» - deya askiyaga qo‘shildi.

– Tayyor tur, Chika! – deb shivirladi Meshpolvon o‘ng qo‘ynidagi ilonni turtib. Ilon yengdan o‘rmalab borib, boshini uning kaftiga suykay boshladi. – Rostdanam juda zo‘rmisan? – dedi Meshpolvon endi birinchi jallodga pisandsiz boqib. – Oldin bir qo‘l qisishib ko‘rmaymizmi?

– Ie, shunaqami hali? – deb hingilladi jallod. Keyin osmonga tikilganicha beparvo qo‘l uzatdi. – Ma, bir uqalab qo‘y.

Bu hangomani kuzatib turgan sarbozlar Nahang o‘lpochiga qo‘shilib, yayrab-yayrab kulishdi.

Meshpolvon larzanglab borib, jallodning qo‘lini changalladi. Uni qattiq qismoqchidek «Hayt!» deb qichqirgan paytda ilon begona kaftni chimillatib chaqib oldi. Barzangi bir dodlatdi-yu, shilq etib tushganicha nafasi to‘xtadi.

Meshpolvon g‘olibona qiyofada atrofga alangladi. Nahang o‘lponchi so‘rrayib, sarbozlar angrayib, mazanglar dong qotib turganini ko‘rdi. Birgina Oshiqbola odatdagidek xotirjam edi.

– Shunday mutaxassisni nima qip qo‘yding? – deya achinib baqirdi Nahang o‘lponchi. – Bunaqa vahshiy endi yo topiladi, yo topilmaydi.

Ikkinci jallodning barmoqlari kaftda bo‘g‘izlanib, tumshug‘i to‘ng‘izlanib, vahimalar tog‘ini Meshpolvonning ustiga ag‘dargudek bo‘ldi:

– Kunim bitdi deyaver, bola. Qo‘lingni uzib, itlarga beraman. Oyog‘ing hakkalarga hakaltayoq bo‘ladi. Kindigingni sug‘urib, buzoqqa chilvir qilaman. Qulog‘ingdan parrak, burningdan hushtak yasayman.

– Ko‘p kerilma! – dedi Meshpolvon. – Peshaningga bitta chertsam, pitillab qolasan.

– Men pitillaryamanmi? – deb na’ra tortdi ikkinchi jallo. – Mana, chertvol! Armonda ketma!

U g‘ijunganicha peshanasini tutgan chog‘da Meshpolvon chap qo‘ynidagi ilonni turtib: «Ko‘zingni och, Puka!» – deb shivirladi. Puka asta o‘rmalab, yengining uchiga kelganini sezganidan so‘ng, dabdaba bilan raqibiga yaqinlashdi.

– Mayli, odamgarchilik qilib chap qo‘limda chertaqolay, – dedi u. – O‘ngida chertsam, kallang uchib ketmasin.

Shunday deya «Hayt!» deb jallodning peshanasiga chertdi. Yeng ichidan boshini chiqarib turgan ilon zaharli tishini kallaga botirdi. Jallo aravadan tashlangan to‘ngakdek oyog‘i osmondan bo‘lib yerga ag‘anadi. Mazanglar ham, sarbozlar ham baravar: «Vo-o-h!» deb yuborishdi.

Shundan keyin Meshpolvon sarbozlarga mayda hasharotlarga qaragandek qarab, gapni gupirtirishga tushdi:

– Hov, hani-hunilar! Meni tanimayapsanlar shekilli? Yuz tomonga dong‘i ketgan dahshatli Meshpolvon – menman. Senlarga o‘xshagan chittak-pittaklar minan pachakilashishga vaqtim yo‘q. Kuch sinashmoqchi bo‘lsanglar, ana, shogirdim Oshiqbola turibdi, Go‘ro‘g‘libekning chevarasi bo‘ladi, shu bola minan urishaveringlar.

Ilonlarning zahari tugab, Meshpolvon noiloj qolganini sezgan Oshiqbola bir sakrab G‘irotga mindi. Qilichini sug‘urib, sarbozlarning ustiga hayqirganicha ot soldi:

Kelaverjin taraf bo‘lsang,
Mendan gina qilma o‘lsang,
Go‘ro‘g‘libek bobom, bilsang,
Qilichida mundoq chopgan.

Senlarga sal beray saboq,
Boshlar bilan uchsin papoq,
Qarindoshim Avaz baboq⁹
Qilichida mundoq chopgan.

Opoq otam Hasan polvon
Urushganda bo‘lib qoplon,
Qonxo‘rlarni qo‘ymay omon,
Qilichida mundoq chopgan.

⁹ Бабоқ хўроз демоқчи.

Ravshan botir menga ota,
Bilaklari juvozzoda,
Shirvon askarlarin tog‘da
Qilichida mundoq chopgan.

Jang qilay, tan bersin olam,
Faxrlansin bir kun bolam,
Desin: «Dushmanlarin dadam –
Qilichida mundoq chopgan!»

Oshiqbola o‘zbekning nomiga xos ish qilib, pahlavon ota-bobolarini pesh qilib, bundan kuchiga kuch qo‘silib, qo‘lida qilichi eshilib, qora papoqlilarni qiyrata ketdi. Lekin, qora papoqlilar ham sara sarbozlar edi, bir tirranchadan chekinishni o‘zlariga ep ko‘rmay, jon-jahdlari bilan savalashishdi, ko‘p talafot berayotganiga qaramasdan Oshiqbolani soy yoqasiga qisib borishdi. Endi qo‘lga tushding deya «hayov-hayov»lab shovqin ko‘tarishdi.

Oshiqbola o‘ng tomondagilarning hamlasini qaytarishga chalg‘igan damda chapdagilardan biri kamonda uning kuragini nishonga oldi. Meshpolvon «orqangga qara», deb qichqirmoqchi bo‘lgan ediki, yonginasida «tup» etgan tovush eshitildi. Sarbozning kamoni qo‘lidan uchib, chap ko‘zini changallaganicha otdan yiqildi. Meshpolvon o‘girilib qarasa, boya jallod boshidan oshirib uloqtirgan uzunsoch lo‘li bola tuppakni o‘qlab turibdi. O‘qlab bo‘lgach, og‘ziga solib puflagan edi, yana «tup» etgan ovoz taralib, endi boshqa bir sarboz ko‘ziga kaft bosib, otdan ag‘darildi.

– O‘qiga qalampir qo‘sghanman, jo‘ro, – deb Meshpolvonga irshayib boqdi mazang bola. – Ko‘z deganni yondiradi!

Shu tariqa u hash-pash deguncha besh-olti dushmanni cho‘ziltirib qo‘ydi. Bu orada Oshiqbola qurshovni yorib chiqib, endi qora papoqlilarni quvlab yurib chopishga tushdi.

Nahang o‘lponchi ko‘rdiki, ahvol chatoq. Shartta otining boshini burib, «sharaqa-shuruq» qochib qoldi. Ajali yetmagan uch-to‘rt sarboz yarador jo‘ralarigayam, karvondagi o‘ljalarigayam qaramay, jonholatda unga ergashdi.

Yovning yengilib qochganini ko‘rgan mazanglar g‘ala-g‘ovur bilan Meshpolvonni o‘rab olishdi, umrimizda bunaqa pahlavonni uchratmagan edik, deb maqtay ketishdi. Bundan Meshpolvonning behad dimog‘i ko‘tarilgan bo‘lsayam, o‘zini kamtarroq ko‘rsatishga urindi.

– Bas endi, lo‘lijonlar, maqtovni to‘xtatinglar, – dedi u mo‘miqdek¹⁰ g‘o‘dayib. – Bular nima bo‘pti? Aslini olganda, ertakdagи qizil devniyam men sulaytirganman. Maqtanishni yomon ko‘rganimdan, hech kimga aytmay yuruvdim. Bo‘ldi endi, uyaltirmanglar meni. Odamlar mana shunaqa oyog‘imga yiqilavermasin deb qirq boshli ajdarhonи tinchitganimniyam birovga bildirmagandim. Bas, odamni xijolat qilyapsizlar. Ochig‘ini aytsam, Badaxshon-u Farg‘onani kemirib yotgan odamxo‘r yalmog‘izniyam, Buxoro-yu Xorazmni tilsimlab qo‘ygan malla jodugarniyam o‘zim o‘ldirganman. Yetar endi, etagimni o‘pib, meni uyaltirmanglar. Quruq maqtayvergandan ko‘ra, ovqat-povqatdan gapiringlar.

Buni eshitib, mazanglarning oqsoqoli mehmonni siylash kimni o‘ldiribdi deb, ziyofat ustiga ziyofat beraverdi. Meshpolvon esa, «bo‘ldi, to‘ydim», demay, borini bo‘ksitib uraverdi. Mazanglarning ikki haftaga yetgulik oziq-ovqati qironga uchrab, «topganimiz shu edi», deb uzr so‘rashgandan keyin, Meshpolvon noiloj qo‘lini artdi. Nafsi andak tiyilib, kayfiyati suyulib maysaga yonboshlarkan, Oshiqbolaga qarab dedi:

– Manavini odamgarchilik desa bo‘ladi. Mazanglarga qoyil qoldim. Ke, oshna, karvonni mol-dunyosi minan shularga beraylik.

¹⁰ Мўмиқ – бирон белги сифатида йўл чети ёки майдонга кўмиб ўрнатиладиган ёғоч устун.

– Narsalarni egalariga qaytaramiz, – deb e’tiroz bildirdi Oshiqbola. – Ular kambag‘al odamlarniki. Meshpolvonning birdan jahli qo‘zib o‘shqirdi:
– Mingpodaliklar Sepkilshohga o‘zlari sotilgan. Baloni olishsin!
Hozir uning dilida kechayotgan so‘zlarni misralarda ifodalashga urinib ko‘raylik:

Boqma boy-u nochoriga,
Qo‘shma odam qatoriga,
O‘z yurtining attoriga –
Sotqinlarga rahm qilma.

Molasidan uyalmagan,
Dalasidan uyalmagan,
Bolasidan uyalmagan
Sotqinlarga rahm qilma.

Urushmasdan asir tushib,
Bir-biridan endi cho‘chib,
Yuraversin rangi o‘chib,
Sotqinlarga rahm qilma.

Yov soqolin yulolmagan,
O‘qlov bilan sololmagan,
Mendan o‘rnak ololmagan
Sotqinlarga rahm qilma.

– Qoningni qaynatmasdan turgin,—deya Meshpolvonga tanbeh berdi mazang kampir. – O‘rtog‘ing to‘g‘ri aytgani shuki, odamlarda ayb kam, yurtni amaldor sotadi. Karvondagi mullajiringlarni kambag‘allarga qaytib topshir. Mazanglarning boyligi yo‘lda, bizga ot bilan tuyalarni savg‘o qilsanglar bo‘lgani.

Maslahatlashib, oxiri bir qarorga kelishdi. Mahallalarga ikki kishi-ikki kishidan taqsimlanib, ertalabgacha boyliklarni beva-bechoralarga tarqatib chiqadigan bo‘lishdi.

– Nevaram Chumakovoy san pahlavon bilan birga borsin, – tuppakchi bolani Meshpolvonga ro‘para qilib dedi mazang kampir. – Sandan aql o‘rganadi.

Ikkovlon o‘zlariga tegishli mahallada tomma-tom yurib, qopchiqdagi tangalarni mo‘rilardan tashlab ketishaverdi. Mahalla oxirlab qolganida oy botib, u yer-bu yerdan xo‘roz qichqiriqlari eshitila boshladi.

Ular pastakkina tuproq tomga chiqishganda, «tamom, mahalla shu yerda adog‘ bo‘ldi», deb pichirladi Chumakovoy. Shu payt mo‘ridan dag‘dag‘ali ovoz yangradi:

– Ketamiz dedimmi, ketamiz! Kechdim bunaqa egasi betayin yurtdan!

Endi keksa ayolning: «Ota yurtingdan ketib, qaergayam sig‘arding?» – degan titroq tovushi eshitildi.

– Qanaqa ota yurt? Sepkilshohning tomorqasi-ku bu. Nimani xohlasa, shuni qiladi.

– Chidab tur, bolam. Bu kelgindilargayam xudo bordir.

– Qani o‘sha Xudo? – deb shang‘illadi o‘g‘il. – Nega yurtimni ozod qilmayapti?

– Shakkoklik qilma, tiling kesilgur!

«Oshiqbola to‘g‘ri gapirgan ekan, – deb o‘ylab qo‘ydi Meshpolvon. – Mingpodaliklarning hammasiyam sotqin emas shekilli».

* * *

Sepkilshohning soliqchilari boplab jazolanib, karvondagi boyliklar mingpodalik kambag‘allarga tarqatib chiqilgach, Meshpolvon bilan Oshiqbola tuya va otlarni mazanglarga berib, xurjunlarini yebichgulik narsalarga to‘ldirib, yo‘lga shaylanishdi. Oshiqbola Meshpolvonga: «O‘lja tushgan otlardan bittasini minib olsang-chi», degan edi, Meshpolvon: «Xachirni qo‘sнимга sog‘-omon qaytarmasam, omonatga xiyonat bo‘ladi», deb ko‘nmadi.

O‘yinchi mazang kampir bu orada Chumakvoyni qo‘sхурjunli tuyaga o‘tqazganicha yetaklab kelib, yana «pahlavonlar ustozi»ga ro‘para qildi.

– Shuni manga layzon¹¹ qilib ber, pahlavon Mesh, – dedi u. – O‘lsa, yo‘lning bo‘yiga ko‘mib, go‘riga tuppagini os. Ajabmas, uni topib, ziyorat qilsam.

Meshpolvon odatdagidek maqtanib yuborganini o‘zi bilmay qoldi:

– Tashvishlanmang, lo‘li xola, biron yil yonimda yursa, suvda baliqni quvib ushlaydigan qip qo‘yaman. Ana, Go‘ro‘g‘li boboning chevarasi menga qo‘silib, kam bo‘ptimi?

Uchalasi mazanglar bilan quyuq xayrlashib, yo‘lga chiqishdi. So‘qmog‘i o‘nqir-cho‘nqir, o‘pqoni sayoz-chuqur, maysasi qovjiroq, shamoli buqadek hirqiroq dashtda past-baland bo‘lib borishaverdi. Meshpolvon tuyasini lo‘killatib ketayotgan Chumakvoyga zimdan tikilib: «Xayriyat-ey, kalondimog‘ Oshiqboladan balandroqda yuradiganlar ham bor ekan-ku», deb ich-ichidan quvonib qo‘ydi.

– Tuyaga nega ikkita xurjun o‘ngarding? – deb so‘radi so‘ng Chumakvoydan. – Shular hammasi ovqatmi?

Chumakvoy: «Yo‘q, jo‘ro, bittasiga tuyilgan qalampir bosdim. O‘qsiz tuppak bilan qaysi ahmoq urushga boribdi?» – deya qo‘lidagi qurolini ta’riflashga tutindi:

Topsa agar bir masov,
Nay bo‘lardi bu g‘arov,
Endi mendan ham asov
Qo‘lda turgan tuppagim.

O‘zi go‘yo qalamdir,
Yoqtirgani – qalampir,
Boshqa ovqatni bir-bir
Chetga surgan tuppagim.

Birga-birga el kezib,
Dardlarimni tez sezib,
Yuragimni goh ezib,
Suhbat qurgan tuppagim.

Birovga dil yashnatar,
Birovga o‘q sachratar,
Do‘st-dushmanni ajratar
Ko‘pni ko‘rgan tuppagim.

Chiqli juda nozikta’b,
Suygan yog‘i – doim chap,
Kimki menga otsa gap,

¹¹ Лайзон ёки лайзонгул – остига қўрғошин қўйилгани боис иргитиб юборсангиз ҳам тик туриб қолаверадиган қўғирчок. Уни «дикквой», «мирза диккак» ҳам дейишади.

Ko‘zdan urgan tuppagim.

Yov ko‘zidan ursak soz,
Meni quchmang, iltimos,
Vazifam puflash xolos,
Asli mergan – tuppagim.

Oshiqbola kulib qo‘yib so‘radi:

- Chivinniyam ko‘zidan ura olasanmi, Chumakovoy?
- Buni qiyin joyi yo‘q, jo‘ro, – deya pinak buzmay gapirdi Chumakovoy, – ishqilib, ko‘zi qaerdaligini ko‘rsatib turgin.

Ho‘kizteri yopingan Meshpolvon o‘qlovni qozonqopqoqqa «taqira-tuqur, taqira-tuqur» urib, eski ashulasini boshladi:

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjir yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Tuya-otlari harsillab, qovirg‘alari qirsillab borayotgan Oshiqbola bilan Chumakvoyning o‘n kun umri dashtda shu ashulani takror-takror tinglash bilan o‘tdi. Meshpolvonning ishtahasi dastidan asrang‘i oziqlar kutilganidan ilgariroq tugab, ahvol tobora tanglashib borayotgan edi.

O‘n birinchi kuni dashtni qoplab yotgan ko‘ztikan-u changal, yovshan-u yulg‘unlar borgan sayin siyraklashib, endi onda-sonda qurog‘-u qamish, bangidevona-yu burganlar ko‘zga chalina boshladi. Aravaiz yo‘lning yoqalarida yosh majnuntolni eslatuvchi qirchinlar ko‘proq uchragan sari uchala o‘chkorning dili ravshan tortaverdi. Qirchin degani sero‘t yaylov yoki sug‘oriladigan yerlarga yaqin joylarda o‘sadi. Tabiiyki, qaerda chorva boqilib, ekin ekilsa, o‘sha o‘rtada odamzod yashaydi.

Ochlikdan sulayib, jag‘ini qozonqopqoq qirrasiga tiyaganicha oshqovoqmanti, yalpizsomsa, po‘stirmapalov, hatto piyovoniyam so‘lak yutib o‘ylab ketayotgan Meshpolvon yo‘lning o‘rtasida qalamsimon rangdor narsa yotganini ko‘rib, hushyor tortdi. Sinchiklab qaradi-yu, darrov tanidi: navro‘z va hayit kunlari popukli qog‘ozga o‘rab sotiladigan, salmog‘i ko‘zda tortiladigan chaynamayshiming meni yalaydigan mard bormi, qand qurg‘ur shunchalik xormi, deb porpirab turibdi.

Bironta anqov bozorchining tugunidan tushib qolgan bo‘lsa kerak degan fikr boshiga urilib, Meshpolvon og‘zi suvslashganicha xachirning yuganini tortdi. Oshiqbola bilan Chumakovoy ham tuya va otni teppa-teng to‘xtatganidan bezovtalaniib, zudlikda yerga sakradi. Sheriklari xuddi o‘chakishayotgandek oldinma-ketin pastga tushganidan battar xavfsirab, popukqandga yaqinroq bordi, ularning nigohini chalg‘itish maqsadida tevarakka elovladi.

- Ha, nimaga to‘xtading? – deb so‘radi Oshiqbola.
- Hay, endi tinchlikmi o‘zi? – deb ming‘irladi Chumakovoy.
- Tinchlik, – dedi Meshpolvon. – Xachirimning ayilini tortvolay, egar qiyshayib ketyapti.

U, xachirning qorni ostiga bosh tiqib, ayil-pushtani tortayotgandek ivirsishga tushdi. Qancha piybalanmasin, sheriklari erinmasdan kutib turishaverdi.

– Nima, men minan ichaklaring birmi? – deb xitlandi Meshpolvon. – Birov to‘xtasa, to‘xtayverasanlarmi? Yo‘lingdan ketaver-da ikkalang.

- Sherikka qaramasdan ketvorish yaxshimas, – dedi Oshiqbola.

Chumakovoy ham donolangan bo‘ldi:

- Baski birga yo‘lga chiqdik, endi azobniyam, rohatniyam baham ko‘raylik.

«Baham ko‘raylik» degan gap Meshpolvonni cho‘chitib yubordi. «Nimani shama qilyapti bu

lo‘livachcha», deb ichida achchiqlandi.

U, sur sheriklarini tag‘in chalg‘itmoqchi bo‘ldi. Zero, ikki odim narida turgan shirinlikni qo‘lga kiritish uchun begona ko‘zlarni yarim soniyagina alaxsitib qo‘yish kifoya edi. Shu maqsadda osmonga tikilib: «Anavi burgutmi, lochinmi?» – deb so‘z qotdi. Biroq umidi chippakka chiqdi, Oshiqbola ham, Chumakvoy ham osmonga qaramadi, aksincha popukqand tarafga ko‘z qirini tashlashgandek tuyuldi.

Meshpolvon nima qilishni bilmay, qaytadan ayilni tortishga kirishgan edi, Oshiqbola dimog‘ida xirgoyilanganicha bitta-bitta bosib kelib, popukqandni xirom etigida to‘sib to‘xtadi. Peshining changini qoqqan bo‘lib sal egilgan vaqtida, hamma voqeani xachirning oyoqlari orasidan kuzatib turgan Meshpolvon oxiri chidamasdan, o‘zini o‘ljaga otdi. Lekin, kutilmaganda, havodan kamon o‘qidek uchib kelgan Chumakvoy popukqandga birinchi bo‘lib panja urdi. Chumakvoyning ustiga Oshiqbola, Oshiqbolaning ustiga Meshpolvon qo‘nib, lo‘labolishlardek taxlanib qolishgan damda popukqand bir sapchidi-yu, to‘rt qarich nariga borib tushdi.

Uchalasi ham ko‘ziga ishonmay bir zum karaxtlanib turdi. Ularning nazarida oralarida kimdir shirinlikni nariroqqa turtib yuborgandek bo‘ldi.

Meshpolvon eng tepada yotgani uchun o‘ljaga yana hammadan oldin tashlanib ko‘rdi. Biroq, maqsadga yetdim deganida, popukqand joyidan bir sakrab, uni ikkinchi bor kalaka qildi.

Oshiqbola bilan Chumakvoyning navbatma-navbat irg‘ishlashidan ham ish chiqmadi, qitmir o‘lja hammaga pand berib, sal narida ermaklab turaverdi.

Azbaroyi ochlikning zo‘rligi, buning ustiga qizishib ketganlari bois uchalasi ham nima bo‘layotganini mulohazalab o‘tirmadi, bunga fursat ham yo‘q edi. Ular yalanib-qalanib emaklagani sayin, popukqand erinmasdan qocha borib, oxiri yo‘l chetidagi o‘tlar ichida ilondek sirg‘alganicha g‘oyib bo‘ldi.

Shu pallada qirchinlar ortidan qattiq kulgi eshitildi. Turishi dalliroq, ishton-nimchasi shalviroq, beti yalpoq, boshida kigiz qalpoq, jag‘ini soqol bosgan, bo‘yniga cho‘zma osgan pak-pakana chol qorin quchganicha panadan chiqib kelib, maysalarga dumalab-dumalab xoxolay boshladi.

Birinchi bo‘lib Oshiqbola o‘rnidan turdi, keyin Chumakvoy bilan Meshpolvon. Ular qotib-qotib kulayotgan mitti cholga bir-bir xo‘mrayib, kiyimlaridagi changni qoqa ketishdi. So‘ng har biri o‘z uloviga qarab yurdi.

Buni ko‘rgan cholning birdan kulgisi bosilib, baroq qoshlari osilib, kiprigidagi yoshlarni qoqib, ularga hayratomuz boqib: «Ie, bu qanaqasi, ukavoylar? Rostdanam meni urmasdan ketaverasizlarmi?» – deb, orqadan piching qistirdi:

Ho‘, omadi ketmagurlar, shoshmanglar,
Meni pisand qilmay haddan oshmanglar,
Uch pahlavon uch qarg‘adek qochmanglar,
Nega meni do‘pposlamay ketyapsiz?

Qand yemasdan hali hech kim o‘lman,
Tekin qand yeb yo sandig‘i to‘lman,
Ustingizdan birov mendek kulmagan,
Nega meni do‘pposlamay ketyapsiz?

Ochning ko‘ngli nozikligin bilsam ham,
Qog‘ozga loy o‘rab, ipga ilsam ham,
Hammangizni boplab jinni qilsam ham,
Nega meni do‘pposlamay ketyapsiz?

Shunda Meshpolvon jahllanib: «O‘zim yetti iqlimga dong‘i ketgan Meshpolvon bo‘lsam, bular

mendek pahlavonning shogirdlari bo‘lishsa-yu, odam qurib ketgandek, sizni savalaymizmi?», - deya so‘zni ko‘pirtirib berdi:

Duvol uchrasa buzib o‘tdim,
Zanjir uchrasa uzib o‘tdim,
Bo‘ri uchrasa ezib o‘tdim,
Ko‘ldan baqadek suzib o‘tdim,
Tog‘dan achchig‘im qo‘zib o‘tdim,
Cho‘ldan qumg‘ondek qizib o‘tdim,
Suvsiz sahrodan bezib o‘tdim,
Tulkidek junim to‘zib o‘tdim,
Izimni qumga chizib o‘tdim,
Dashtda quyondan o‘zib o‘tdim,
Qulog‘ini bir cho‘zib o‘tdim,
Yuzlab qishloqni kezib o‘tdim,
Oshning hidini sezib o‘tdim...

– Mayli, ukavoylar, urmasanglar ixtiyor o‘zlaringda, – dedi chol. – Lekin, baribir qiziq ish qilyapsizlar. Shu yerda bolalikdan berisiga o‘tkinchilarni mazaxlab kelayotgan bo‘lsam, hali biron marta kaltak yemasdan qolmaganman. Mana, yuzimdagи chandiqlarni ko‘rib turibsiz, bular badanimdagilarning mingdan biri xolos. O‘nta barmog‘imdan sakkiztasi qiyshiq, o‘ttiz ikki tishimni o‘ttizimdayoq to‘kib bo‘lishgan, qo‘l-u oyoq, umurtqa-yu qovurg‘alarimning sinmagan bo‘g‘ini qolmadi. Labim to‘la tirtiq, jag‘im o‘ynoqi, burnim qiyshiq, chap qulog‘imning pardasini yirtishgan. G‘o‘dayganlarni mazaxlash arzonga tushavermas ekan.

Keyin pakana chol xususan kimlarni masxaralab emaklatganini zavq-shavq bilan sanay ketdi. Ularning orasida mug‘ambir baqqol-u dallollardan tortib, qassob-u jallod, hudaychi-yu ponsod, mirshab-u qozi, bek-u nozir, hatto taniqli saroy arboblarigacha bor edi:

Yulg‘ich zoti ko‘p dunyoda,
Ochko‘z undan ham ziyoda,
Xoh otdadir, xoh piyoda,
Barin kulib emaklatdim.

O‘tdi bundan o‘g‘ri-kazzob,
Ukasini shilgan qallob,
O‘tdi allop, o‘tdi jallob,
Jilib-jilib emaklatdim.

Qulga qo‘shib zo‘r quldorni,
Gadoni-yu va puldorni,
Savodsiz-u ilmdorni
Ipqa ilib emaklatdim.

Berar bo‘lsang la’l-u zarni,
El sotishga rozilarni –
Bek, savdogar, qozilarni
Bag‘rin tilib emaklatdim.

Arzimas-u arzirni ham,
Karnaychi-yu nozirni ham,
Nosfurush-u vazirni ham
Sichqon bilib emaklatdim.

Tekin xo'rda bo'ldi qopqon,
Keldi ko'plar taqib unvon,
Keldi to'ra, keldi sulton,
Ermak qilib emaklatdim.

– Shu vaqtgacha Sepkilshohning doriga osilmaganingizga shukur qiling, – xachiriga minib, egar qoshidagi qozonqopqog'-u o'qlovni qo'lga olarkan, cholga salmoqlanib gapirdi Meshpolvon. – Endi qo'rmasangiz ham bo'ladi, yaqin orada biz uni mijig'lab qo'yamiz.

Mitti chol ularning niyatini payqab: «Sepkilshohning amaldorlari ozgina yerimniyam tortvolishib, meni darbadar qilishdi. Endi sizlar bilan borib, undan qasos olayin», deb arzi hol aytdi. Chumakovoy, «qo'lingizdan biror ish kelsamikan o'zi», deb so'ragan edi, chol bo'ynidagi cho'zmaga ishora qilib, «chumchuqni burnidan uraman», dedi.

– Bizga zap ajoyib askarlar uchrayapti-da, – deb jilmaydi Oshiqbola. – Biri ko'zni mo'ljallasa, boshqasi burunga yopishadi.

Meshpolvon esa yana aqlini namoyish qilgisi kelib, qochiriq gap tashladi:

– Chumchuqda burun nima qiladi, otaginam? Chumchuqda tumshuq bo'ladi.
– Biz shunaqa o'ylaymiz, – deb peshanasini tirishtirdi chol. – Chumchuqlar bo'lsa, o'zlarini burunli, odamlarni tumshuqli deyishadi.

U birpas tortishib, bolakaylarni sherikchilikka ko'ndirgach, qirchinazor tarafga «me-e, me-e-e», deya ovoz qilgan edi, shoxdor bir qo'chqor takir-tukur yugurib chiqib, egasining yonida to'xtadi. Chol «qani, ketdik bo'lmasa», deb qo'chqorga mindi, ikkala shoxidan mahkam ushlab, uni oldinga niqtadi.

«Xayriyat-ey, mendan pastroqda yuradiganlar ham topilib qoldi», deya o'zicha sevinib qo'ydi Meshpolvon.

Picha yo'l yurishgandan so'ng, mitti chol yo'ldoshlariga qo'chqordan bo'ylanib boqib: «Durustroq so'rashib olaylik. Meni otim Rayhon qiziq», dedi. Keyin boshqalarning ismi-sharifi, tag-zotini surishtirdi. Hammasi bilan tanishib chiqqach:

– Ie, hali Oltiariqdanmisan? – deya Meshpolvonga iljayib yuzlandi. – U tomonlik odamlarni juda shinavanda deyishadi. Bolaligimizdag'i bir aytishuv hozirgacha esimda turibdi.

O'sha aytishuv mana bunaqa ekan:

– Oltiariq – zo'r ariq!
– Bu ariqda nima bor?
– Yelkani ko'k kema bor.
– Kemasida nima bor?
– Jo'ra minan Juma bor.
Jo'ravoyni uni bor,
Jumavoyni juni bor.
– Qayga borar Jo'ravoy?
– Istambulga yetvolsa,
Unni junga almashar.
– Qayga borar Jumavoy?
– Istambulga yetvolsa,
Junni unga almashar...

Meshpolvon Rayhon qiziqqa tumtayib boqdi:

– Nima bo‘lgandayam, yurtingizga mehmonmiz. eski-tuski she’rlarni aytgandan ko‘ra, kichik bir ziyofat tashkil qilsangiz-chi.

– O‘zim ham yurtimga musofirman, – deb javob qildi chol. So‘ng oldi ochiq nimchasi ostidan bog‘langan qo‘shbelbog‘ning birini yechdi. – Mana, belbog‘imda beshta qatirma bor, shuni tinchitib qo‘yaqolamiz.

U yo‘l-yo‘lakay qatirmalarni taqsimlashga tushdi.

– Menga ikkita bering, otaginam, – dedi Meshpolvon. – Qo‘ynig‘imda egizak ilonlar yotibdi. Qornini yaxshilab to‘ydirmasak, hammamizni chaqib o‘ldirishadi.

– Be, gap buyoqda ekan-da, – deb lab burdi Chumakovoy. – Men ahmoqni ko‘rginki, jallodni chertib o‘ldirganingga ishonibman.

Meshpolvonning qo‘qqis avzoyi buzilib, o‘shqirib berdi:

– Og‘zingni yum, lo‘li! Qo‘yinga ilon solib yurishgayam yurak kerak!

– Kimda qancha yurak bor – endi buni bilmadim...

– Lo‘lilar ot o‘g‘irlashdan boshqa nimaniyam bilardi!

Meshpolvonning jahli qo‘zishi ishtahasiga zarracha putur yetkazolmadi, yarimta qatirmani Chika bilan Pukaga bo‘lib berib, biryarimtasini o‘zi yedi.

* * *

Ular ulovlarini niqtab, yarim tunda gandiraklab to‘xtab, maysato‘shakda uxlashib, tushida qovurmani yo‘qlashib, azonda yana egarni minib, ochlikdan ko‘zlarini tinib yo‘lda davom etishaverdi.

Kunlardan bir kuni uzoqda kattakon chorbog‘ ko‘rindi: Meshpolvonning ko‘ziga quymoq, Oshiqbolanikiga qaymoq, Chumakvoynikiga saryog‘ ko‘rindi. Rayhon qiziq esa ularning hafsalasini sovitib dedi:

– Uchalang namuncha tamshanib qolding? Xomtama bo‘lmanglar, bu chorbog‘ning egasini Mutual-maynavoz deydilar. Tilosi ming ko‘za, uyida har kuni ro‘za, umrida tovuqqa to‘rt dona don, kuchukka bir tishlam non bermagan. Onasi tirilib kelib «ochman» desa, oldiga yovg‘on sho‘rva qo‘yadi.

Rayhon qiziqning gapiga ko‘ra, Mingpoda bilan Qahratoniya chegarasida yashovchi bu boy Sepkilshohga birinchi bo‘lib sotilgan ekan. U avvaliga shu o‘ramdagi odamlarni «o‘zimizga o‘zimiz ko‘proq xo‘jayin bo‘lamiz, kamroq soliq to‘laymiz», deb aldab, Sepkilshohga yaxshilikcha bo‘ysundiribdi. Keyin qabiladoshlarining birini fitnachi, birini isyonchiga chiqarib, hammasining yerini tortib olibdi, o‘zlarini qulga aylantiribdi, hatto yaqin qarindoshlarini, jigarbandlarini ham ayamabdi. Endi biron kishi uning izmisiz bu joydagisi toshni u joyga jildirib qo‘yishgayam botinolmas ekan.

– Hozir vaqtimiz ziq, Mutual-maynavozingiz bilan keyin hisob-kitob qilamiz, – dedi Oshiqbola. – Lekin, bizga qo‘rslanib ko‘rsin-chi!

To‘rtovlon chorbog‘ga yetib borib, darvozani taqillatishdi. Darvozabonlarni po‘pisalab, bu yerning xo‘jayinini surishtirishayotgan chog‘da: «E, kelinglar, kelinglar. Xo‘jayin, mana, bizmiz», deb iljayganicha Mutual-maynavozning o‘zi paydo bo‘ldi. To‘rt xil ulov minib, to‘rt turda qurollangan mehmonlarning ko‘ziga sinchkovlik bilan bir-bir boqib chiqdi.

– Qani, qani, buyoqqa marhamat qilinglar, – deya ta‘zimini poyondozga aylantirdi u.

Yo‘lovchilar ichkariga kirib, ulovlarini bog‘lab bo‘lishgach: «Xo‘sh, xizmat, akang aylangurlar», deb so‘radi.

Tashqining bir tarafi qator-qator uy-hujra, ikkinchi tomoni mevalar g‘arq pishib yotgan mo‘l-ko‘l bog‘ edi. Bog‘dan ko‘z uzolmay, kekirdagi lik-liklab qolgan mehmonlar bir-biriga gap bermasdan, ko‘nglidagini bayon qila ketishdi.

MYeShPOLVON:

– Tezroq uzing uzumni,
Kuydirmasdan ko‘zimni.

OShIQBOLA:

– Nafsi buzuq emasman,
Behi yemay ketmasman.

ChUMAKVOY:

– Meni yaxshi boqinglar,
Yong‘oqni ko‘p qoqinglar.

RAYHON QIZIQ:

– Anjirvoyni boplayin,
Jig‘ildonga chaplayin.

MYeShPOLVON:

– Tering besh qop g‘aynoli,
Olti paqir shaftoli.

OShIQBOLA:

– Elliktacha nok bering,
Yuvib-netib pok bering.

ChUMAKVOY:

– Ko‘p yemayman men go‘dak,
Anor cho‘zing bir etak.

RAYHON QIZIQ:

– Olma tushsa tap etib,
Yeb qo‘yaman xap etib...

– Voy, akang aylangurlar-ey, itdek ochqaganga o‘xshaysizlar-ku,— deb achingannamo bosh tebratdi Mutual-maynavoz. — Qani, qani, mehmonxonaga kiringlar-chi, nasibada borini dasturxonadan olganimiz ma’qul. Shunda kabobi sizga, savobi bizga bo‘ladi.

«Shunday odamni yomonlab yuribdi-ya», deb o‘ylab, Meshpolvon Rayhon qiziqa chapya tagidan o‘qrayib qo‘ydi. So‘ng mezbonning quyuq mulozamati, muloyim iltifotidan bahri-dili ochilib, uning ko‘ziga umidvor tikilganicha bir so‘z dedi:

Topmasak sizni agar,
Ochdan o‘lardik, masalan.
Kulcha-yu choy bersalar,
Sog‘lik tilardik, masalan.

Tuppani qilsak tamom,
Kovatok dimlab momom,

Qo‘ysalar pista-bodom,
Ermak qilardik, masalan.

Qazini yupqa tilib,
Keltiring tarvuz «yulib»,
Shullani «xo‘r-xo‘r» qilib,
Nonni bulardik, masalan.

Shavlalar bo‘lgach hazm,
Sho‘rno‘xat bermak – rasm,
Sut ichib qursak bazm,
Shodon kularidik, masalan.

Oshpalov kelsa pishib,
Chaynasak bodring qo‘shib,
Qornimiz meshdek shishib,
Yayrab silardik, masalan.

To‘rtovlon mehmonxonaga kirishdi, adres ko‘rpachalarga chordana qurishdi. Mutual-maynavoz poygakka cho‘kkalab, yuziga fotiha tortdi, qo‘l qovushtirib «xush ko‘rdik» qildi.

– Qani, qani, mehmonlarning qo‘liga suv quyvoringlar, – deya ochiq eshikdan tashqariga bo‘ylandi u.

Ikkita g‘ulom¹² zipillaganicha kirib keldi. Ularning qo‘lida hech vaqo bo‘lmasa ham, nimanidir ushlab turgandek ehtiyyotkorona qadam bosishardi.

Birinchi g‘ulom Meshpolvonga yaqinlashib, o‘zini o‘ng qo‘lida oftoba, chap qo‘lida chilopchin tutgandek ko‘rsatdi, «qo‘lni chayqasinlar», deya qaddini egdi.

Meshpolvonning bir jahli chiqib, bir go‘layib, buning chinmi-hazilmi degandek g‘ulomga ziyraklanib tikildi, uning jiddiy va itoatkorona qiyofadaligini ko‘rib, battar merovlandi. Mutual-maynavoz: «Chilopchinni pastroq tutsang-chi, mol!» – deb g‘ulomni jerkib bergach, hammasi rost shekilli deb ko‘rinmas chilopchinning ustiga qo‘l cho‘zdi. G‘ulom uch marta suv quygandek qiliq qildi. Ikkinci g‘ulom «sochiqni olsinlar», deya unga quruq qo‘lini uzatdi. Boshqalar ham noqulaylikdan qizarib-bo‘zanganlaricha qo‘l chayqagan bo‘lishdi.

Shundan keyin birinchi g‘ulom dasturxon yozayotgandek harakat qildi, cho‘ri qizlar esa o‘zlarini barkash ko‘targandek ko‘rsatib, qatorlashganicha kirib kela boshlashdi. Mutual-maynavoz: «Mayizlarni buyoqqa qo‘y. Sho‘rdanakni naryoqqa sursang-chi», deb dasturxonchi g‘ulomni tergab turdi. Hatto cho‘rilardan birini «uzumni toza yuvmabsan» deb yo‘q barkashi bilan orqaga qaytarib yubordi. Go‘yo non sindirgan bo‘ldi. Keyin choy quyib uzatayotgandek bo‘m-bo‘sh qo‘lini mehmonlarga bir-bir cho‘zib chiqdi.

Deyarli butun hayoti turli tahqirlashlarga chidash bilan o‘tgan Rayhon qiziqning bosiqligi qo‘l kelib, tezda esini yig‘ib oldi, o‘zini allanarsaga non botirib yeyayotgandek, choyni xo‘rillatib ichayotgandek qilib ko‘rsatdi.

– Manavi shinni bedanatutnikimi deyman? – beparvo turib Mutual-maynavozga savol berdi u.

– Topdingiz, mehmon, topdingiz, – deb odob bilan ta’zim qildi Mutual-maynavoz. – Ana shu holvoytarniyam bir yalab ko‘rmadilar-da.

Shundan keyin boshqalar ham Rayhon qiziqqa qo‘shilib, ersak-tersak kavshanishga tushishdi. Quruq kavshangani sari Meshpolvonning ichaklari kuchliroq achishib, tomog‘iga so‘lak tiqila

¹² Фулом – хизматкор, кул.

boshladи.

Mutal-maynavoz sipo cho'kkalab olib, lag'mon ketidan o'rama, o'rama ketidan dimlama, dimlama ketidan dumba-jigar, dumba-jigar ketidan lo'lakabob buyurib turaverdi, cho'rilar xonaga quruq kirib, quruq chiqaverdi. Nihoyat, nomi bor-u o'zi yo'q osh tortilib, apil-tapil «eb bo'lingach», mehmonlar bu xo'rlikdan tezroq qutulish uchun uy egasidan fotiha so'rashdi. Tashqarida chala-chulpa xayrlashib, shoshilinch yo'lga chiqishdi.

Alami ichiga to'lib turgan Meshpolvon darvozadan o'tiboq, Mutal-maynavozni bo'ralashga tushdi:

– Hozir urushga ketmayotgan bo'lsam, bu battolni qiymalab tashlardim. Obro'yimni ikki pul qildiya.

– Shapaloq solay desang, qo'ling bormaydi, – yoniqib boqdi Chumakovoy. – Bir ta'zim qiladi, bir iljayadi.

– Sizlarga aytuvdim-ku, juda pixini yorgan deb, – deya kulimsiradi Rayhon qiziq. – Nafsning nog'orasiga o'ynab, meniyam hijolatga qo'ydinglar, ukavoylar.

Oshiqbola ularning g'alvasiga barham berishga tirishib dedi:

– Bo'ldi-da endi, hozir bunaqlar bilan o'chakishib yurmaylik. Oldimizda tog'dek dushman turibdi.

* * *

Ertasi kuni ular Qahratoniya yurtining chegarasidan o'tishdi. Otning tuyog'ini yutadigan sho'rxok tuproqda imillab, har shamol uvlaganda quloqlari qimirlab, chang qoplagan kiprik tagidan yo'lga mo'ralashib, siyrak o'sgan chakalakzorni oralashib olg'a yurishaverdi.

Shamol tinib, endigina yengil nafas olishayotganda boshqa ofatga duch kelishdi: avvaliga ondasonda g'ashga tegayotgan chivinlar daqiqa sayin ko'payib bordi, oxiri ularni chimmatdek o'rab, shafqatsiz talay ketdi. Bu bedavo hasharotlar xonadonlardagi ming'irloq iskabtoparlardan biroz kichikligi, o'limdan qaytmasligi bilan ajralib turardi. Eng yomoni – kishi nafas olganda to'rt-beshtasi shuvillab og'izga kirib tanglayga yopishar, Oshiqbola va Chumakovoyning bundan ko'ngli behuzur bo'lib tinimsiz tuperishar, Rayhon qiziq tuperishdan tashqari har safar tesha tegmagan so'kishlarni ishlatardi.

Birgina Meshpolvonning parvoyi falak edi. U kekkayganicha og'zini odatdagidan kattaroq ochib borar, chuqur-chuqur nafas olar, o'zini ajalga urayotgan «oqqanot»larni imkon qadar ko'proq yutishga harakat qilardi. Ammo, chivinlar bitmas-tuganmas bo'lsa-da, haddan ziyod chinqarchaligi uchun qorniga urpoqchalik yuqmasdi. Xudoyim, hech bo'limganda, chuvalchangni uchadigan qilmabdi-da, deb ichida afsuslanayotganida, uzoqdan xirilloq o'kiriklar eshitildi.

Ular ovoz kelgan tomonga yurishib, kichkina yalanglikda qonga belanib urushayotgan ikkita to'ng'izning jangi ustidan chiqib qolishdi. Olishuvni changallar ortidan birpas tomosha qilishgach, Meshpolvon: «Qani bo'linglar, bekor turguncha six tayyorlaylik», deb buyruq berdi.

Rayhon qiziq taajjublanib yelka qisdi:

– Sixni nima qilamiz? Achamizga to'y bo'lyaptimi?

– To'ng'izkabob yeymiz, – dedi Meshpolvon.

Buni eshitib Oshiqbolaning burni bujmaydi:

– Avval ko'raylik-chi, hali birontasi o'ladimi, yo'qmi.

– Ana bu gap to'g'ri, – deb quvvatladi Chumakovoy.

Meshpolvon o'jarlanib turib oldi:

– Men aytdimmi – gap tamom. Ko'rmayapsizlarmi, to'ng'izlarning ikkalasiyam urg'ochi. Bedanavoz qo'shnimiz «ikkita urg'ochi bir-biriga qasdlashsa, bittasi o'lmasdan qolmaydi», derdi.

Rayhon qiziq: «Bunaqa olishuvning chatoq joyi shuki, o'lgan haqmidi, nohaqmidi – bilolmaysan», degan edi, Meshpolvon: «Qozilikka savod kerak, men yengilganini yeyaveraman», deb kekirdagini g'o'lqillatdi.

Ular jang bo‘layotgan tomonga qarab-qarab, kabob bazmiga ahillik bilan hozirlik ko‘rishaverdi. Qiziqishda bir quchoqdan six tayyorlab tashlashdi hamki, na u, na bu to‘ng‘iz hadeganda o‘lavermadi. Olishuv juda cho‘zilib ketdi. Yaxshiyamki, nasya o‘ljaga ishonib birovni mehmonga aytishmagan, yo‘qsa, rosa o‘sal bo‘lishardi.

Hayvonlarning tepalashuvi peshingacha davom etdi. Oxiri ikkalasiyam holdan toyib, gandiraklay boshlashdi. Buni ko‘rib, Meshpolvon sheriklariga xursand ko‘z qisdi, quruq sixni og‘ziga sirg‘antirib, endi kabob yeymiz degan ishorani qildi.

Kutilmaganda, qo‘chqor qattiq ma‘rab yubordi. Terisidan oppoq bug‘ ko‘tarilayotgan to‘ng‘izlar hansiraganicha bir daqiqqa harakatsiz turib qolishdi, atrofga diqqat bilan qulq solishdi, begona sharpani sezganlaridan keyin oyoqlariga mador kirib, ikki tarafga tiraqaylab ketishdi.

Meshpolvon alamdan yig‘lab yuborishiga oz qoldi. Betamiz qo‘chqorni miriqib savalash niyatida o‘qlovni qo‘lga olgan ediki, buni payqagan Rayhon qiziq ustamonlik bilan uni shashtidan tushirdi – qo‘chqorni yengil tarsakilab, do‘q urdi:

– He, betasir! Duch kelgan hayvonga achinaverasanmi? Ming yordam qilgin, to‘ng‘iz zoti baribir senga el bo‘lmaydi...

– Boplang, otaginam! – deb dalda berdi Meshpolvon. – Bu betigayam tarsillating!

– He, kallang qursin! – deya tergashni kuchaytirdi Rayhon qiziq. – Ko‘rpangga qarab oyoq uzat, deb nechchi marta aytganman, g‘irt garang ekansan-ku. Meshpolvondek odam turganda, sen bilan menga gapirishni kim qo‘yibdi? Qachon esing kiradi, vey? Hozir mana shu cho‘zma bilan burningga qaratib...

– Otmang cho‘zmani! – qichqirdi Meshpolvon. – Bo‘pti, bu nodonni kechirdim.

U uzangiga tirmashayotib qo‘chqorga bir-ikki bor ola qarab qo‘ydi. Egarga paxsakashdek o‘rnashib olgach, cho‘loq xachirini likonglatib, sheriklarini yo‘lga boshladi.

Hivich urib tuyasini o‘rnidan qo‘zg‘atayotgan Chumakvoy, jahllanib po‘ng‘illadi:

– Battar bo‘l, haromi to‘ng‘iz. Bizdek pahlavonlar yemoqchi bo‘ldik, sen ahmoq noz qilding.

– Hali uyga borib rosa attang deydi, – deb jilmaydi Oshiqbola.

Ochlik hamma narsaga, jumladan, kayfiyatga ham zavol ekan. Ular turnaqator tizilib olib talay manzilni bosib o‘tishdi, ammo na o‘zaro chaqchaqlashishdi, na Meshpolvonning «bog‘bon buva» qo‘shig‘ini tinglash sharafiga tuyassar bo‘lishdi. Xuddi «dim-dim» o‘ynagandek goh xayol surib, goh tevarakka befarq ko‘z tashlab ketishaverdi.

Quyosh og‘ayotgan pallada oldinda kattakon ko‘l ko‘rindi. Yaqinroq borib qarashsa, sohilda keng dasturxonning peshi ochilib, bir dunyo noz-ne’mat sochilib yotibdi. Popukdor dasturxonning yonida to‘p-to‘p zodagoncha kiyim, kiyimlar ustida xanjaru qilichlar uyum-uyum, o‘n chog‘lik yigit ko‘l o‘rtasida cho‘milib, baqato‘nga ko‘milib yuribdi. Egasi yo‘q tulporlar esa jilovsizlikdan erkalab, bir-birovini yelkalab, chetda maysa chaynashyapti.

Shu payt boshqa tarafda otliqlar galasi ko‘zga chalindi. Sepkilshohning qora papoqli suvorilar o‘z hoqoni sha’niga xushomadnamo qo‘sish qaytganicha shu tomonga yaqinlab kelishayotgan edi. To‘rttalasi darhol panaga o‘tib, sharbat o‘rniga tuprik yutib turaverdi.

Meshpolvon ko‘rsaki, ko‘ldagilar chalqancha ag‘anavolib, asta-sekin qirg‘oqqa qarab suzishyapti. «Shuncha ovqatdan birortasiniyam totmay ketadigan ahmoq menmas», deb o‘yladi u va sheriklarining «hay-hay»iga qaramay, halpillaganicha borib, dasturxon yoniga cho‘kkaladi, qo‘liga ilingan masallig‘ning nomini surishtirmay, lunjiga tiqaverdi.

Qora papoqli suvorilar zodagoncha kiyimlarni tepalab, sara ovqatlarni to‘porilarcha yamlayotgan Meshpolvonga hayrat bilan birin-sirin boqib qo‘yishib, ashulani to‘xtatmasdan yo‘lda davom etishdi:

Bordir paxmoq soqoli–

Bir bog‘ sholi poxoli.

Poshsho bobo sog‘ bo‘lsin,

Doim vaqt chog‘ bo‘lsin.

Hamyonida tillo ko‘p,
Kallasida hillo ko‘p.
Poshsho bobo sog‘ bo‘lsin,
Doim vaqt chog‘ bo‘lsin.

Ayiqteri po‘stini,
Dorga osar do‘stini.
Poshsho bobo sog‘ bo‘lsin,
Doim vaqt chog‘ bo‘lsin.

Zodagon yigitlar ko‘ldan chiqib kelib, baqrayib qolishdi: dasturxon payhon, noz-ne’matlarning ko‘pi gumdon. Boshiga sopol idish kiygan notanish juldirvaqi ko‘zini mo‘ltiratganicha qunishib turibdi. Undan ko‘raylik deyishsa, bir bola shuncha ovqatni qoringa tiqvorishiga ishonib bo‘lmaydi. Oxiri oralaridagi eng barvastasi unga yaqinlashib, «Bu qaysi tovuqning ishi?» – deb so‘radi.

– Ozgina go‘sht bersanglar, to‘g‘risini aytishim mumkin, – dedi Meshpolvon.

Shunda yigitlarning laychasifatrog‘i oldinga pildirab chiqib, «vey, o‘zingni qiyma qipqo‘ymaylik tag‘in», deya musht do‘laygan vaqtda, Meshpolvonning eski tersligi qo‘zib, gapni balanddan oldi:

Dabdurstdan urmagin do‘q,
G‘alvalarga toqatim yo‘q.
Shukur qilki, betamizni –
Tuzlolmayman ochligimda.

Gapirsang sal bo‘lib odam,
Berardim to‘q bo‘lsam yordam.
Lek qornimdan boshqa maqsad
Ko‘zlolmayman ochligimda.

Ovqat yesam bo‘lar ayon
Nima rost-u, nima yolg‘on.
Azal to‘g‘ri gapni topib
So‘zlolmayman ochligimda.

O‘grayasan menga nechun?
Ahvolimni o‘zing tushun –
Ochiq aytsam, pochchamni ham
Sizlolmayman ochligimda.

Ovqatlarni qilib talon,
Ketdi surlar biron tomon.
Ular ketgan tomonni men
Eslolmayman ochligimda.

Boyagi barvasta yigitning toqati toq bo‘lib: «E, menga desa dasturxonniyam qo‘shib yut. Bularni kim yeganini gapirsang-chi, nafsingga o‘t tushgur!» – deb baqirib berdi.

Meshpolvon olisda qo‘shiq aytib borayotgan suvorilar tomonga ishora qildi:

– Ana, to‘q qoringa ashulani vajanglatib ketishyapti.
– Otlarni egarlanglar! – deb sheriklariga qichqirdi barvasta zodagon. – Bu tagi pastlar poshsholikning ayg‘irini minvolib, hovliqib ketganga o‘xshaydi. Yeganini burnidan buloq qilamiz. Ketdik!

Ular shosha-pisha kiyinib, qurollarini taqishdi, otlarni pala-partish egarlab, qora papoqli suvorilarning ketidan poyga qo‘yishdi.

– Hamma ovqatlar xurjunlarga tiqilsin! – deya Meshpolvon ham o‘zinikilarga buyruq berdi. – Bu yerdan vaqtida jilmagan – nomard.

Xurjundagi oziqlarni iloji boricha tejashib, oshqozonlarini shohona taomlarda «bezashib», qorinlari chirmanda, o‘zлari darmonda bo‘lib, yana to‘rt-besh kun yo‘l yurishdi, oxirgi uchta non tuyqus yo‘qolganini Meshpolvondan ko‘rishdi.

* * *

To‘rt o‘chkorning dilidagi maqsad bir-biriga yaqindan-yaqin, ularni maqsadga eltuvchi yo‘llar esa uzundan-uzoq edi.

Tug‘ilganidan buyon bir joyda muqim yashagan kishi o‘z maskanini yer yuzining eng ko‘rimli, eng tortimli, eng qiyossiz, hatto eng katta bo‘lagi deb tasavvur qilaveradi. Yaydoq adir etagiga makon qurgan cho‘ponlarning xayolida ko‘rk-u qudratda tengsiz Jazoir mamlakati ham yayloving bir chetiga bermalol sig‘adigan mo‘jaz shaharcha shaklida namoyon bo‘ladi, yunonlar elatini esa faqat sayr-u tomosha, savdo-sotiq qilib qaytishgagina yaraydigan yirik bozor deb bilishadi.

Bularning hammasi xomxayolligini, o‘zi kun kechirib kelgan qurama, viloyat yoki yurt poyonsiz dengizning bittagina o‘zanchasi, nari borsa, biron-bir ko‘rfazidek gap ekanligini kishi safarga chiqqanda anglay boshlar ekan.

Ular necha-necha qishlog‘-u shaharlardan o‘tishdi, qanchadan-qancha ovul-u qal’alarga duch kelishdi, turli urf-odatdagi kishilar bilan muloqotda bo‘lishdi, lekin hech qaysi joyda sabab-zaruratsiz u yoki bu tarafga borib yashashni, o‘sha yoqdagagi qabristonga ko‘milishni orzu qilgan insonni ko‘rishmadi. Har kim o‘z o‘zanini, o‘z ko‘rfazini eng muhim, eng muqaddas deb tushunarkan. Balki butun boshli dengizning barhayot-u barqarorligi ham shundadir.

Jahd-u jadallik bilan kuyib-yonib yo‘l bosishgani sayin Meshpolvon bir narsaga qayta-qayta shukrona aytardi: yaxshiyamki xachirda miya yo‘q, agar miyasi ishlab yo‘lkiraga haq so‘rab qolsa, surunkasiga besh-olti yil mardikorchilik qilib, qarz uzishi lozim bo‘larmidi? Axir qishloqda birovning daladagi bug‘doyini shunchaki uyiga tashib bersang ham, har qopidan bir g‘alvir xachirhaqi olasan. Meshpolvon esa kam deganda to‘rt qop bug‘doychalik tosh bosadi. Shuncha yuk! Shuncha yo‘l! Uning bo‘yniga tushishi mumkin bo‘lgan qarzni endi o‘zingiz hisoblab chiqaravering.

Xayriyatki, xachir zotida aql-farosat yo‘q. Bunga ming marta shukur qilish kerak.

Ular shu tariqa qo‘nim-tinimni bilmay borishayotib, bir kuni yo‘lda qora matoga burkangan, iyagi burniga surkangan, beti kalishdek burishgan, peshanasi tirishgan, og‘zining ikki chetida to‘ng‘iztish, sopolnusxa ko‘zida allaqanday tashvish, o‘ng qo‘lida qiyshiq hassa ushlagan, chapida belini mushtlagan kampirni uchratishdi. To‘rttalasi tengdan salom bergen edi, u: «He, o‘sha salomlarining qursin, hammangni ajina ursin. Bekor sang‘ib yurguncha, zolim Sepkilshoh bilan olishsanglar bo‘lmaydimi», deb qarg‘ana ketdi.

– O‘sha poshsho mengayam yoqmaydi, xolaginam, – dedi Meshpolvon qo‘rsayib. – Mana, askarlarimni olib, uni tinchitgani ketyapman.

Bu gapdan keyin kampirning birdan chehrasi ochildi. Endi tirjayganicha ularni alqashga tushdi:

– Voy, bo‘yingga qoqindiqlar! Voy, senlardan o‘rgilib ketay! Sepkilshohni qo‘lga tushirsanglar, dorga osilgan o‘g‘illarimniyam o‘chini olinglar. Bo‘lmasa, ikkala qo‘lim tepada ketadi.

– Hay, mayli, shunaqa qilamiz, – deb o‘zicha va’da berib yubordi Chumakovoy. – Shu yo‘l to‘g‘ri

poshshoning qasriga borsamikan, ishqilib?

– Bu tomondan yursanglar ham bo‘ladi, – dedi kampir. – Ammo-lekin, sal uzoqroq-da. Agar Iblisjardagi so‘qmadan¹³ kesib o‘tsanglar, rosa bir hafta oldin yetardinglar.

Ochlik azobi jonini kemirib turgan Meshpolvonga bu gap malhamdek yoqib, kampirdan so‘radi:

– O‘sha yo‘lni ko‘rsatib qo‘yolmaysizmi, xolaginam? Qasrga tezroq yetvolsak bo‘lgani, keyin o‘ch olishni bizga qo‘yib berasisiz.

– Voy, bo‘yingga gирgitton bo‘laylar! Voy, senlardan xolang aylansin! – deya tag‘in iljayib sannay ketdi kampir. – Yo‘l ko‘rsatish nima bo‘pti? Sizlarni o‘zim boshlab boraqolaman. Sepkilshohning dodvoylarini qulog‘im bilan eshitmasam, armonda o‘lmaymanmi?

Kampir tuyaga mingashib yo‘l boshladi. Kun botayotgan mahalda Iblisjar yoqasiga yetib kelishdi.

Jarlik to‘rt terak bo‘yi chuqurlikda bo‘lib, yonbag‘irlari qilichda kesilgandek tippa-tik edi. Pastga qarashgan chog‘da ko‘zlari juvillab, boshlari aylanib ketayozdi.

Jar bo‘yidan picha yurib borishgach, yog‘och ko‘prikka duch kelishdi. Bu yerda jar ichidan qad ko‘targan ustunsimon tik qoya bo‘lib, uning cho‘qqisi bilan yonbag‘ir oralig‘i o‘n besh qadamcha chiqar, qoyaning berigi tarafi tik, naryog‘i esa jar ichiga bemalol tushish uchun ataylab yasalgandek suyri edi. Qoya bilan yonbag‘irlikni yo‘g‘on yog‘ochlar tashlanib qurilgan kenggina ko‘prik birlashtirib turardi.

Ular ko‘prikdan o‘tib, qoyadagi aylana yo‘lakdan jar tubiga tushib borishganda, kun qorong‘ilasha boshladi. Buloq suvidan to‘yib ichib olishgach, yiltirab ko‘rinayotgan jilg‘a yoqalab ancha yo‘l yurishdi. Tun rosmana quyuqlashib, hech nimani ko‘risholmay qolgandagina, sero‘t joyni tanlab, tunashga to‘xtashdi.

Ertalab uyg‘onib qarashsa, kampir joyida yo‘q. Uyoqqa yugurib chaqirishdi – topilmadi, buyoqqa yugurib chaqirishdi – topilmadi, oxiri hayron bo‘lganlaricha bir-birining ko‘ziga tikilishdi.

Meshpolvonning nazarida sheriklari unga hadiksirab qarayotgandek tuyuldi. Shundan keyin: «Menga bunaqa qaramanglar. Nima, kampirlaringni yeb qo‘yibmanmi?» – deb o‘zini oqlashga tushdi:

Ochlikda loy totganman,
Aravamoy totganman,
Kalishpatoy¹⁴ totganman,
Odam yegan emasman.

Ba’zida jun yeb ko‘rdim,
Kabobtutun yeb ko‘rdim,
Atirsovun yeb ko‘rdim,
Odam yegan emasman.

Gohi tivist chaynadim,
Gohi chigit chaynadim,
Dam semizqurt chaynadim,
Odam yegan emasman.

Rostdir boyqush yeganim,
Shamni noxush yeganim,
Xamirturush yeganim,
Odam yegan emasman.

¹³ Сўқма – айлана йўлни кесиб чиқувчи ёлғизоёқ йўлак.

¹⁴ Калишпатой – калишнинг патаги, демокчи.

Xom go'shtdan qon yaladim,
To'uda qozon yaladim,
Zangli ketmon yaladim,
Odam yegan emasman.

Kavshab ko'rdim munchoqni,
Qizlardagi qurchoqni,
Chirik piyozpo'choqni,
Odam yegan emasman.

Ushlab yedim goh ari,
Yulib urdim qush parin,
Lekin na yosh, na qari –
Odam yegan emasman.

– Qo'rqlama, sendan ko'rayotganimiz yo'q – deb Meshpolvonga taskin berdi Oshiqbola. – Kampirni yeganingda, hech bo'lmasa hakarkovushi qolgan bo'lardi.

– Menimcha, mundoq, – deya taxmin qilishga tutindi Chumakovoy. – Kampir tahorat qilaman, deb azonda chetroqqa chiqqan, ana unda bo'rilarining qo'liga tushgan.

Meshpolvon unga qarab, aftini burishtirdi:

– Lo'lililing qo'zib, fol ochvording-ku.

Rayhon qiziq havoni diqqat bilan hidlab, «Tutunning isini sezyapsizlarmi?» – deb so'radi.

– Xullas, aldoqchi pistak kampirning qo'liga tushganga o'xshaymiz, – deya chimrilib boqdi so'ng.

– Qani, orqaga qaytaylik-chi, agar ko'priq joyida turgan bo'lsa, ajalimiz yetmagani. Ko'priq buzilgan bo'lsa, unda jarning narigi chekkasidayam, boshqa joyidayam chiqishga yo'l yo'q deyavereng.

Ular yuraklari potir-putur bo'lib ortga qaytishdi. Kelib qarashsaki, qoya ustidagi ko'priknинг yog'ochlari jar tubida kuyib yotibdi.

– Qopqonga tushibmiz, ukavoylar, – deb asta buloq bo'yiga cho'kkaladi Rayhon qiziq. – Endi osmonga termilib yotaveramiz, chuchvara yog'ishini poylaymiz.

Shu mahal qaerdandir jarangdor qah-qaha yangradi, ular cho'chib tepaga qarashdi. Jar qirg'og'ida qora papoqli askarlar terilib turar, kechagi kampir so'yloq tishlarini yiltiratganicha balanddan chaqchayib boqar, qo'llarini biqiniga tirab olgan Nahang o'lponchi esa hanuz qah-qah otib kulardi.

– Xo'sh, qalaysanlar, qaroqchilar? – deb mammun baqirdi Nahang o'lponchi. – Endi qaysi biring zo'r bo'lsang, nimjonrog'ingni tutib yeyaverasan. Vox-xox-xo! Vox-xox-xo!

Rayhon qiziq bo'ynidagi cho'zmani olib, charsillatib otgan edi, yuqorida «po'k» etgan ovoz eshitildi. Nahang o'lponchining kulgisi bo'linib, burnini changallaganicha enkayib qoldi. Panjalari orasidan qon sizib chiqa boshlagani pastdagilarga ham yaqqol ko'rinib turardi.

Notanish merganning beyuzligi qora papoqlilarga alam qilib, kamonlardan o'q yog'dira ketishdi. Jardagilar tezda qoyaning panasiga o'tib, biqinib olishdi.

* * *

Birozdan keyin o'q-yoylarning «viz-viz»i tinib, ko'p o'tmasdan qora papoqlilarning o'zları ham g'oyib bo'lishdi. Jarlikka qamalib qolgan bandilarning o'limini poylab o'tirishni ortiqcha dahmaza deb o'ylashgan bo'lsa kerak.

Qopqondagi to'rt o'chkor ikki kunga zo'rg'a chidashdi. Uchinchi kuni Meshpolvon: «Odamlardek tirikchilikka kirishmasak bo'lmaydi, bu ishni tuyani yeyishdan boshlaylik», degan taklifni o'rtaga surdi:

Qo‘chqor sho‘x-u beorom,
Ot tepog‘ich va g‘irrom,
Xachir go‘shti g‘irt harom,
Tuya so‘yib yesak-chi?

Kun ochlikda o‘tmasdan,
Et suyakka yetmasdan,
Uvol bo‘lib ketmasdan,
Tuya so‘yib yesak-chi?

Behol burun tortguncha,
Yomon o‘yga botguncha,
Barmoq so‘rib yotguncha,
Tuya so‘yib yesak-chi?

To‘rt kishiga qo‘y kamdir,
Otlar azal serchandir,
Xachirga-ku na g‘amdir,
Tuya so‘yib yesak-chi?

– Nega birdaniga tuya deysan? – cho‘zilib yotgan joyida shang‘illadi Chumakovoy. – Qo‘y go‘shti turganda, ipirisqi tuyaga balo bormi, jo‘ro?

– Men-ku qarshi emasman-a, – deb paysallandi Rayhon qiziq, – lekin bu qo‘chqorni yesak, dunyodagi hamma cho‘ponlarning qarg‘ishiga uchraymiz. Olamdag'i eng zotdor qo‘chqorning oxirgi nusxasi – mana shu. Hozir buni yetaklab borsam, qozoq biylari qirq ming tillo berishadi.

Oshiqbola esa gapni cho‘zib o‘tirmay, uyqusiragan alfovza asta po‘ng‘illadi:

– G‘irotdan gapirganning tilini sug‘urvolaman...

– Unda bilganlaringni qilinglar, – deb achchig‘landi Meshpolvon. – Xohlasalaring, ana, xachirimni yeaverenglar.

Ochlikka hatto Chika bilan Puka ham dosh berolmadi, Meshpolvonning qo‘ynidan chiqishib, bilanglaganlaricha butazorga kirib ketishdi.

– Ha, yo‘l bo‘lsin, ilon afandilar? – deb ularning ortidan chinqirdi Meshpolvon. – Qarindosh-urug‘larni ko‘rganimi?

Ilonlar shu kuyi bedarak yo‘qoldi...

Shu kech Meshpolvonning tushiga ota-onasi kirdi.

Ular jazirama daladagi to‘p-to‘p qullar qatorida ketmon chopib, yer ag‘darishayotgan mish. Bir vaqt onasi holdan toyib yiqilgan ekan, uer-buerda g‘o‘dayib turgan qora papoqlilardan biri yaqin kelib, «tur» deya biqiniga tepibdi. Onasi o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘libdi-yu, gandiraklab yana yiqilibdi. Shunda qora papoqli quldor qamchini do‘laygan ekan, dadasi yugurib kelib xotinini gavdasida to‘sib olibdi. Quldor uni ayamay savalashga tushibdi. Savalayveribdi, savalayveribdi...

– Urma! Urma dadamni! Dadajon! Onajonim!

Meshpolvon titrab-qaqshab uyg‘onganida, allaqachon tong ota boshlagan ekan. Ko‘zlarida jiqla yosh. Sheriklari unga hayron tikilib turishibdi.

– Tushimda dadam minan onamni urishdi, – deya ko‘z yosollarini artdi u. – Sho‘rliklarni yomon xo‘rlashayotganga o‘xshaydi. Men ularni qutqarish o‘rniga, ochdan o‘lishimni poylab yotibman.

Shunday deya Chumakovoya o‘qrayib boqqan edi, u boshini quyi solib, «hay, mayli, men rozi, tuyamni yeaver», deb shivirladi.

– Nega yemas ekanman, yeyman! – tuyqus jonlanib, o‘rnidan turdi Meshpolvon. – Sen-chi? O‘zingnikidan o‘tmaydimi?

– O‘tmaydi, jo‘ro, – deya yana ma’yus shivirladi Chumakovoy.

– Unda baloni yegin! Sen yemasang, mana biz yeymiz. To‘g‘rimi, og‘aynilar?

– Men ham yemayman, – dedi Oshiqbola.

– Mengayam ketmaydi, – dedi Rayhon qiziq.

Kutilmaganda Meshpolvonning shashti pasayib, belbog‘idan sug‘urgan daskallasini jahl bilan chetga otdi, sheriklariga araz-duraz aralash tikilib, tegralarida bir karra aylanib chiqdi.

– Unaqa bo‘lsa, meni yenglar, – dedi u kesatib. – O‘ng qo‘lim Chumakovoya, chapi Go‘ro‘g‘li boboning chevarasiga. – So‘ng Rayhon qiziqqa qadalib ko‘z tikdi. – Yumshoqqina biqinimni o‘zları g‘ajisinlar.

Rayhon qiziq unga bir qarab qo‘yib, indamay o‘rnidan turdi, yerda yotgan daskallani olib, o‘lab yurgan qo‘chqorga yaqinlashdi. Borib, asta shoxidan ushladi. Odatda betinim irg‘ishlab cholning g‘ashiga tegadigan qo‘chqor bu safar yuvosh odimlab, egasi yetaklagan tomonga yurdi. Chol uning bo‘ynini eski chuqurchaga to‘g‘rilab yotqizayotganda ham tipirchilamay turaverdi.

Rayhon qiziq qadrdon qo‘chqorining do‘ngalak peshanasini silaganicha unga birpas termilib qoldi. Jonivorning ko‘zları ham xiyol yoshangandek edi.

Meshpolvonning eti jimirlab ketdi. Chol qo‘chqorni silashdan to‘xtab, shoxidan mahkam ushlaganicha daskallani zARBaga shaylayotgan damda, u qattiq seskanib, «To‘xtang!» deb qichqirdi.

Chol bu qichqiriqni eshitgan bo‘lsa ham, parvo qilib o‘tirmay, ko‘zini chirt yumganicha «Ix!» deya zARB bilan daskallani urdi. Ammo, daskalla qandaydir narsaga taraqlab tegdi-yu, qo‘lidan uchib ketdi.

Ko‘zini ochib qarasa, Meshpolvon tilingan bilagini og‘zida «kux-kux»lab turibdi, uning afsonaviy qozonqopqog‘i esa yerda pachoqlanib yotibdi.

Rayhon qiziq shoshib kelib, uning bilagiga lab bosdi, yarasidan jarohat zahrini so‘rib tashlay boshladi. So‘ng: «Meshpolvon! Sen baribir yaxshisan! Juda yaxshi bolasan, Meshpolvon!» – deya uning bo‘ynidan quchib, yuzidan «cho‘lp-cho‘lp» o‘pishga tushdi.

Xuddi shu lahzada kimdir Meshpolvonning boldirini qashlayotgandek tuyuldi. U hayron bo‘lib ortga o‘girildi. Eti qalt-qalt titrayotgan qo‘chqor erkanganicha unga suykanayotgan ekan. Bu unga cholning tashakkuridan ham ko‘proq huzur bag‘ishladı.

Shu voqeadan keyin Meshpolvonning kayfiyati ochilib, o‘z-o‘zidan ruhi ko‘tarilib ketdi. Ochligi esidan chiqqandek bo‘lib, tanasiga yangi quvvat quyildi. Endi sheriklari bilan ham gapi qovusha boshladi, avvalgidek quvnoq va xotirjam qiyofaga kirdi.

* * *

Oqshom qo‘nayotganda nogahon Chika bilan Puka paydo bo‘ldi. Ular bo‘g‘ib o‘ldirilgan semiz kalamushni dumidan tortib sudrab kelishardi.

Hayal o‘tmay kalamushning tash-ichi tozalanib, Chumakovoy chaqmoqtosh yordamida yoqqan o‘tda kabobga aylantirildi. Taom o‘rtaga qo‘yilgach, benihoyat och bo‘lishlariga qaramay, luqmaga qo‘l uzatishga hech kimning ko‘ngli chopmadı.

– Qani, boshlang endi, otaxon, – deya Rayhon qiziqqa iltifot ko‘rsatdi Oshiqbola.

– Mayli, men ming marta roziman, – dedi Rayhon qiziq. – Kichiklardan bo‘la qolsin.

Chumakovoy odob bilan qo‘lini ko‘krakka bosdi:

– Yoshga qarab ish qilaylik.

– O‘zi bir isqirt kalamush bo‘lsa, shungayam mulozamatmi?

Meshpolvon shunday dedi-yu, butun boshli luqmani olib, bafurja og‘ziga tashladi, bir-ikki yamlab, yutib yubordi.

Masallig‘ jig‘ildondan o‘tib bo‘lgach, boshqalar labi shilpillaganicha noumid qolganini ko‘rib,

picha o'ng'aysizlandi.

– Ortiqcha ko'ngilga olmanglar, – dedi u sheriklariga qiyalab. – Ilon afandilarni ertaga yana ovga jo'nataman. Bundanam semizroq kalamushlarni tutib kelishadi. Keyin rosa maza qilamiz, to'g'rimi?

Oshqozoniga ozgina iliqlik o'rlab, Meshpolvon bu kecha hammadan oldin uxbab qoldi, xurragi Iblisjarning borliq kavak-kandiklariga yorib kira boshladi. Qorong'uda u odamdan ko'ra ko'proq yertandirga o'xshab ko'rinardi.

Yarim kechada kimdir uni chimchilayotgandek bo'ldi. Ko'zini ochiboq, bir sapchib tushdi. Chumakovnikidan ham o'siqroq pilta sochlari gajimdek hilpirayotgan to'lpoqqina bola oppoq tutunga burkanganicha tepasida jilmayib turardi.

– Kimsan o'zing? – deya qaltirab so'radi Meshpolvon. – Qayoqdan kepqolding?

– Ie, namuncha qo'rqasan?

– Yaqinlashma menga! Qirq boshli ajdarhoni qiymachalpak qilganman. Sengayam chatoq bo'ladi.

– Iblisjar hoqonining evarasiman, menga bo'yningni cho'zma!

Bu gapni eshitib Meshpolvonning battardan rangi oqarib ketdi:

– Voy! Iblismisan hali?

– Ajinaman. Otim Hojixonajina.

– Nomingni eshitib, xursand bo'ldim. Bo'pti endi, ketaver.

Hojixonajina bu gapdan ranjib qovog'ini soldi:

– Nega meni haydayapsan?

– Haydayotganim yo'q. Ko'rib turibman, yaxshi bola ekansan.

Hojixonajina tezda o'zgarib, yana avvalgidek jilmayib boqdi:

– Menga o'rtoq bo'lmaysanmi?

– E, qo'ysang-chi, – dedi Meshpolvon kapalagi uchib. – Boshqa o'rtoq qurib ketibdimi? Bir kunmas bir kun sal arazlatib qo'ysam, meni urib ketasan. Keyin yo jag'im qiyshayadi, yo g'ilay bo'p qolaman.

So'ng dilidagi taxmin-u shubhalarni tilida shunday izhor qildi:

Men qo'rqlayman jaridan,

Hatto qovog'aridan.

Tursa lekin ajina,

O'tgim kelar naridan.

Cho'chimayman ilondan,

Dumi gajak chayondan.

Ajinaga tobim yo'q,

Yetib kelding qayondan?

Titramayman baqadan,

Arra tishli laqqadan.

Dardim tutar, gap ketsa

Ajinalar xalqidan.

Tap tortmayman bo'ridan,

O'rgimchakning to'ridan.

Qorong'ida qo'rqlaman

Ajina-yu mo'ridan.

Seskanmayman chaqmoqdan,

Yo‘lda turgan ahmoqdan.
Tangri o‘zi saqlasin
Ajinafe’l o‘rtoqdan.

Hojixonajina uning gapini eshitib: «O‘ylab ko‘r. O‘rtog‘im bo‘lsang, seni bu jardan qutqarishim mumkin», dedi.

- Meni xolosmi? Bularni-chi? – deb savol berdi Meshpolvon, sheriklarini ko‘rsatib.
- Hamma gap shunda-da. Yo ularni deysan, yo meni.
- E, yo‘q...
- Shoshilma. Oldin yaxshilab o‘ylab ko‘r. Meni desang, birga borib, Sepkilshoh bilan jang qilamiz...
- Nimaga ketayotganimni sen qayoqdan bilasan?
- Men hamma narsani bilaman... Xullas, menga qo‘shilsang, ziyon qilmaysan, qo‘limdan ko‘p ish keladi. Bularni desang, shu jarda birga o‘lib ketaverasan. Baringni o‘zim yeyman.

Meshpolvon ikkilanib qoldi.

«Nima bo‘lgandayam, ota-onamni, kishandagi odamlarni qutqarishim kerak, – deb ko‘nglidan o‘tkazdi u. – Oshnachilik deb jarda harom o‘lsam, kimga foyda-yu, kimga ziyon? Umuman, bular kim bo‘pti menga? Insof qilib aytganda, tirik qolsam, uchlasigayam yaxshi-ku – Sepkilshohni yengib qaytayotganimda hammasining suyagini to‘plab, izzat-ikrom bilan ko‘mdiraman, ustiga sag‘ana qudiraman. Mehr-oqibat shunchalik bo‘lar-da...»

Keyin birdan o‘zining fikriga o‘zi qarshi chiqdi:

«Nimalar deyapman, yo tavba! Mabodo, bular biron sabab bilan tirik qolishsa-chi? Unda, ko‘zlariga qanday qarayman? Hatto o‘lib ketishgandayam, bir kuni to‘g‘ri gap yuzaga chiqsa, yurtda qanday bosh ko‘tarib yuraman? Hali shu ahvolda odamlarni qutqarishga ketyapmanmi? Agar qo‘rroqligimni onam bilib qolsa, meni yaxshi ko‘rmay qo‘yadi, xiyonatkorsan, deydi. Dadam-ku itdek kaltaklaydi. Bizni bunaqa isnodga qo‘yib qutqargandan ko‘ra, o‘ldirib qo‘yaqolsang bo‘lmasmidi, deb butunlay oq qiladi...»

Mahallalarida bir baxshi bola bo‘lardi. Sepkilshohning askarlari kelib, uni devorga bostirib ketmaslaridan sal ilgari, Meshpolvon undan shunday qo‘shiqni eshitgan edi:

Anqovlikni oqlash mumkin,
Yalqovlikni oqlash mumkin,
Xiyonatni oqlab bo‘lmas.

Yulishqoqni oqlash mumkin,
Qunushqoqni oqlash mumkin,
Xiyonatni oqlab bo‘lmas.

Kekkayganni oqlash mumkin,
Enkayganni oqlash mumkin,
Xiyonatni oqlab bo‘lmas.

Gumonchini oqlash mumkin,
Yolg‘onchini oqlash mumkin,
Xiyonatni oqlab bo‘lmas.

Sullalikni oqlash mumkin,
Tullaklikni oqlash mumkin,

Xiyonatni oqlab bo‘lmas.

Yig‘loqlikni oqlash mumkin,
Qo‘rqoqlikni oqlash mumkin,
Xiyonatni oqlab bo‘lmas...

– Yo‘q, bunisi bizga to‘g‘ri kelmas ekan, – deya Hojixonajinaga tundlandi Meshpolvon. – Gapingga kirsam, keyin yomon izza bo‘larkanman. Lekin, betingga to‘g‘risini aytib qo‘yay, bizni yeysan, deb yaxshi ish qilmayapsan. Jig‘ildon qurg‘urning gapiga kiraverma.

Aslida Meshpolvonning enasi ana shu keyingi jumlanı uning o‘ziga nisbatan ko‘p marta ishlatgan edi.

Hojixonajina tishini vahimali g‘ijirlatib, ko‘zlarini olaytirganicha so‘radi:

- Shu gap gapmi?
- Shu gap gap, – dedi Meshpolvon.
- Keyin attang qilmaysanmi?
- Yo‘q.
- Seni hoziroq yeyaveraymi?
- O‘zing bilasan.

Hojixonajinaning jussasi pufakdek tez kattalasha bordi. Bo‘yi mirzaterakdek, har bir tishi kurakdek, ko‘zi aravaning g‘ildiragidek, tovushi bahorning momaguldiragidek bo‘lib, Meshpolvonning tepasida ajdarday aylana boshladi. Oxiri o‘ranusxa og‘zini katta ochib, «eyma-a-a-n», deya pastga sho‘ng‘idi. Meshpolvon ko‘zlarini chirt yumib olib, dir-dir titriganicha jim turaverdi. Boshining ustida allanarsa shuvillab aylanayotgan pallada ham miq etmadi.

Birdan hammayoq jimjit bo‘lib qoldi.

«Allaqachon oshqozonga borib tushdim shekilli, – deb o‘yladi Meshpolvon. – Xayriyatki, chaynab o‘tirmadi».

Uning qulog‘i ostida qiqir-qiqir tovush eshitildi. Yuragi dov berib-bermay sekin ko‘zini ochsa, o‘sha piltasoch bola qarshisida yana muloyim jilmayib turibdi.

– Seni ko‘pdan beri kuzatib yuruvdim, – dedi u Meshpolvonga. – Ovqatga o‘chligingga qaramay, Mingpodadagi gadoydan boringni ayamading, ochiqqo‘llik qilding. Bildimki, rahmdil ekansan. Mutal-maynavoz qanchalar jig‘ingga tegmasin, qanchalar xo‘rliging kelgan bo‘lsa ham, asosiy maqsadingdan chalg‘imay, yo‘lda davom etding. Chidamli bola ekansan. Mana, bugun do‘srlaringni sotmading, o‘rtoqlikni hech narsaga almashtirmading. Oriyating, vijdoning bor ekan. Sendan juda xursand bo‘ldim, Meshpolvon. Bobomning aytishiga qaraganda, yer yuzi shafqatlilar, sabr-bardoshlilar, insoflilar uchun yaratilgan ekan. Bundaylar kamayib ketsa, mana shu olam ham, uning hamma mavjudot-u mo‘jizalari ham oxiri kuyib kul bo‘larkan.

– Hazillashib, «bo‘pti» devorganimda nima qilarding? – deb so‘radi Meshpolvon. – Ajinalar hazilni tushunishadimi o‘zi?

– Hamma narsaniyam o‘rni bor. Ikkidan birini tanlash kerak bo‘lib qolganda oraga hazil sig‘maydi. Agar yo‘ldoshlarining dan tonganingda, seni kechasi bilan qo‘rqtib qiyab chiqardim. Bir umr shu yerda qolib ketarding. Eng yomoni – o‘lguningcha sharmandalikda yasharding, juda og‘ir jazoga duchor bo‘larding: el-yurtga sharmandamisan, ota-onang oldida sharmandamisan, o‘zingga o‘zing sharmandamisan, buning hech qanday farqi yo‘q, bir xil azob tortaverasan.

Hojixonajinaning so‘zlarini eshitib, enasi aytib bergen bir ertak beixtiyor Meshpolvonning yodiga tushdi...

Malla jodugar bo‘lgan ekan. U Buxoro-yu Xorazmni tilsimlab olib, odamlarni yomon ahvolga solib qo‘yibdi. Bu elatlardagi boylig-u noz-ne’matlarning yuzdan to‘qson to‘qqiz qismi uning jig‘ildonini moylashga ketarkan.

Shu vohada yashovchi bir qariyaning uch azamat o‘g‘li bor ekan. Ular butunlay kuchga to‘lib, jang ilmini puxta egallab bo‘lishgach, otalari: «Malla jodugardan o‘ch olinglar. To dushman yanchilmaguncha, qasosdan boshqa narsani o‘ylamanglar», deb oq fotiha bilan uchalasini yo‘lga kuzatibdi.

Og‘a-inilar yo‘l yurishibdi, yo‘l yursayam mo‘l yurishibdi, kunlardan bir kuni g‘aroyib qal’aga duch kelishibdi. Darvoza oldida ularni chiroyda tengsiz uchta pari qiz kutib olibdi. Yigitlar dunyoga kelib, bunaqa husndor qizlarni ko‘rismagan ekan: katta o‘g‘il behush yiqilibdi, o‘rtanchasi anqayganicha ulardan ko‘z uzolmay qolibdi, kenjası esa kiprigini pirpiratib turaveribdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il hushiga kelib, uchovlon ichkariga kirishgach, battar hayratga tushib, og‘izlari lang ochilib qolibdi. Qal’aning to‘rt tomoni to‘rt xil olam timsoli bo‘lib, bir tarafdag‘i shinam bog‘da olmaxon-u ohular, sirtloncha-yu tovuslar ahil o‘ynoqlashib yurar; ikkinchi yoqdagi kashtanamo gulzorda yer yuzining borliq sayroqi qushlari xonish qilib turar, uchinchi yondagi bir biridan mo‘jaz ko‘shk-u ayvonlarning naqshi ko‘zni qamashtirar ekan.

Qizlar uch og‘a-inini suvliklar olamining ramzi bo‘lgan to‘rtinchi tomonga qarab boshlashibdi. Tagini to‘lqin yuvib turgan uzun ko‘prikchadan o‘tib borib, atrofi tilla baliqlarga to‘la, gilam-u ko‘rpachalar qavat-qavat so‘riga o‘tirishibdi. Dasturxon bir zumda tansiq taomlarg‘a to‘lib ketibdi. Qizlar goh xushbo‘y choy, goh sharbat uzatishib, «toting-ko‘ring» qilib qistashaveribdi.

Shu mahal kunbotardan malla jodugarning ovozi kelibdi:

– Bu dunyoda mana shu uchala qizimdan bo‘lak quvonchim ham, tayanchim ham yo‘q. Hadhisobsiz boyliklarimni teng uchga bo‘lib, ularning sepiga atab qo‘yganman. Menga mo‘tabar kuyov bo‘linglar, azamat yigitlar. Yer yuzini o‘n karra kezib chiqib ham buncha baxt, buncha boylik, buncha nazokatni topolmaysiz.

– Ha, men baxtimni topdim, – deya oqbilik qizlardan biriga mahliyo tikilibdi to‘ng‘ich o‘g‘il.

Endi kunchiqardan otaning xitobi yangrabdi:

– Ko‘zlarining ochinglar, bolalarim! Malla jodugar o‘z jonini saqlab qolish uchungina qizlarini sizga in‘om qilyapti. Shuni esdan chiqarmanglarki, bular baxt-u nomusi poymol etilayotgan mingminglab cho‘rilar evazigadir.

To‘ng‘ich o‘g‘il baribir pari qizdan ko‘ngil uzolmabdi. Katta to‘y-tomosha bilan unga uylanib, shu chamanzorda qolib ketibdi.

Ikki og‘a-ini yana bir necha hafta yo‘l bosibdi. Tog‘ dovonidan oshib o‘tishlari bilan, endi biri-biridan fusunkor ikkita shaharchaga yo‘liqishibdi. Suvi oynadek tiniq ko‘lning ikki sohilida qad ko‘targan bu shaharchalarning baland marmar devorlari cheksizlik sari cho‘zilib ketgan emish.

Bu obod shaharlarda hamma narsa to‘kin-sochin bo‘lib yotar, odamlari boy-u badavlat yashar, ular malla jodugarni tun-u kun duo qilish bilan band ekanlar.

Malla jodugar kunbotar yoqdan yana tovush qolibdi:

– E, botir yigitlar! Mana, muruvvatimni ko‘zingiz bilan ko‘rib qo‘ying. Olamdag‘i biron-bir o‘lkada bundan farovonroq, bundan charog‘onroq joy yo‘q. Sizlarni bu shaharlarda omad kutyapti, bek bo‘linglar. Shu ikkala jannatni sizlarga berdim – yeng, iching, davr suring. Sizlarga yana nima kerak?

– To‘g‘ri-da, – debdi o‘rtancha o‘g‘il. – Bizga yana nima kerak? Hamma narsa oshib-toshib yotibdi. Fuqarosini shunchalik yayratib qo‘ygan malla jodugarni o‘ldirsak, barchanining qarg‘ishiga qolamiz.

Shunda kunchiqar tarafdan otaning ovozi eshitilibdi:

– Aldanmanglar, bolalarim! Mansabga uchmanglar! Malla jodugar hayotiga xavf tug‘ilganini sezib, sizlarni yo‘ldan uryapti. Ikkita shaharni may-chay qilib qo‘yish unga ish bo‘ptimi? Doim esda tutinglar, bu zeb-hashamlar talon-taroj qilinayotgan yuzlab elatlardan keltirilgan, ulardan qonning isi anqib turibdi.

O‘rtancha o‘g‘il shahar bekligini qo‘ldan chiqargisi kelmabdi, shu yerda qolib ketibdi. Kenjası esa otasining yo‘rig‘iga kirib, tanho o‘zi yo‘lga tushibdi.

Yo‘lda hanuz davom etayotgan Kenja botirni avrash niyatida malla jodugar borliq hiylasini ishga solib ko‘ribdi, unga va’da qilmagan narsasi qolmabdi, ammo niyatiga yetolmabdi. Shundan keyin har xil xuruj va ig‘volar uyushtirib, uni maqsadidan chalg‘itishga urinibdi. Pahlavon yigit ozod qilmoqchi bo‘lgan o‘sha xalq ichidagi hasadgo‘y, anqov, ochko‘z, kirdil, molparast, manman, poraxo‘r, amalparast kabi rasvo bandalarning ko‘nglini ovlab, o‘ziga og‘diribdi, birini ayg‘oqchiga, birini johil zararkunandaga aylantiribdi, ularni Kenja botirga qarshi qayrabdi.

Uning bu galgi niyati pahlavonni o‘z qabiladoshlariga o‘chakishtirish, qon-qardosh odamlarga bir-birovining go‘shtini yedirish, ularni o‘zaro nizolar bilan ovora qilib qo‘yish ekan.

Kenja botirning yo‘l-yo‘lakay qabiladoshlaridan ko‘rmagan jabri, tortmagan azobi qolmabdi. Biri menikidan chiroyliroq ekan, deb otini o‘g‘irlabdi, biri quyuqroq salom bermading, deb haqorat qilibdi, biri bekordan-bekorga ovqatini tortib olibdi, yana biri shevangga qaraganda eng isqirt urug‘dansan, deb hamiyatiga tegibdi, kimdir falon joyda menga oliftachilik qiluvding, deya nohaq qamchilab o‘tibdi, boshqasi och yotganini ko‘rib ham bir to‘g‘ram non berishga yaramabdi. Amaldorlar esa uni hech yerga sig‘dirmay, qayoqqa borsa quvg‘in qilishaveribdi.

Bunday paytlarda Kenja botirning xo‘rligi kelib, beixtiyor xanjariga qo‘l yogurtar, malla jodugar uni gij-gijlab: «Ana, o‘sha aymoqlaring! Hali shularni deb kuyib yuribsanmi? Istanasang, seni ularga hokim qilaman, izzat-nafsingga tekkanlardan qonguningcha qasos olasan. Doimo, hamma joyda aytganing aytgan bo‘ladi», deya kunbotardan so‘z qotarkan.

Shu zahoti kunchiqardan otasining tovushi kelar ekan:

– Jahlingni bos, bolam! Ishongan tog‘im bitta o‘zing qolding. Sen ham yanglishsang, hammasi tamom bo‘ladi. Boshingga tushayotgan ko‘rgiliklarga yurtdoshlaring emas, ularni shu ko‘yga solgan, shunday qilganlarni rag‘batlantirayotgan, boylikka ko‘mayotgan malla jodugar aybdor.

Kenja botir har gal otasining nasihatiga qulq solib, tezda o‘zini bosib olarkan.

Oxiri u malla jodugarning makoniga yetib borib, qattiq jang qilibdi, yovuzni yengib, asir olibdi. Shundan keyin nomi minglab-minglab tillarda doston bo‘lib, ulkan bir qabilaning eng suyukli qahramoniga aylanibdi. Malla jodugarning halokatidan so‘ng borliq farog‘atidan ajragan akalari esa ota oldida shuvityuz, el-yurtda sharmanda-yu sharmisor bo‘lishibdi...

Obbo, kitobxonlarim-ey! Obbo, chug‘urchuqlar-ey! Oraga gap qo‘shib, ishimga yana xalaqit beryapsiz. Bu turishda fikrim chalg‘ib, kitobimning navbatdagi boblarini chalkashtirib tashlashim hech gapmas. Keyin, tanqidchi degan amakilaringiz meni u chig‘iriqdan bu chig‘iriqqa irg‘itib o‘ynashadi.

Xo‘p, nimani so‘rayotuvdingiz? O‘sha chol ikki o‘g‘li hammaga sharmanda bo‘lganida achinmadimikan? Bundan oldin to‘ng‘ich yoki o‘rtancha farzandinikiga borib, mazza qilib yashasa bo‘lmasmidi? Kenja botir o‘lib ketishiyam mumkin edi-ku, otasi uni namuncha xatarga qistamasa?

Shularga hayron bo‘lyapsizmi?

Yanglishyapsiz. Ota-onangiz sizga qanchalar mehr qo‘yanini, sizdan hatto jonini ayamasligini bilasiz. O‘sha chol ham o‘z farzandlarini xuddi shunaqa suyub, e’zozlar edi. Ammo u juda dono bo‘lgani uchun el-yurtini ja‘miki narsadan ortiq sevar, xalqining tinchi, Vatanining erkini barchasidan yuqori qo‘yar, tahqirlangan o‘lkada yashab, o‘zi ham, farzandlari ham hech qachon haqiqiy baxtni topa olmasligini yaxshi bilardi. Shu bois ayriliqqayam, farzand dog‘igayam, yolg‘izlik azobigayam chidadi. Aslida, hammadan ko‘p uqubatni cholning o‘zi tortdi.

O‘sha davrlarda, o‘sha tahqirlangan o‘lkada bunaqa dono otalar juda kam bo‘lgan ekan.

Endi qissamni davom ettiray, iloji boricha jim o‘tiringlar...

Hojixonajina Meshpolvonning o‘ylanib qolganini ko‘rib, «Namuncha damping ichingga tushib ketdi?» – deb so‘radi.

Iblisjar hoqonining evarasi deyarli beozor ekanini fahmlab yetgach, ko‘ngliga taskin qo‘ngan Meshpolvon bu savoldan keyin fikrini jamlab, burnini osmonga ko‘tardi:

– Yolg‘ondakam shumshayganimga meni qo‘rroq deb o‘layapsan shekilli? Indamasam, o‘zingcha katta ketib, har xil mazax gap aytvoryapsan. Boshni bir ishlatib ko‘rgin-a, senga o‘xshagan

churvaqilardan qo‘rqadigan bo‘lsam, malla jodugar minan urushgani borarmidim?

Hojixonajina odatdagiday qiqirlab, uning bo‘ynidan quchdi:

– Meni aldama! Malla jodugarni senmas, ertakdagi Kenja botir o‘ldirgan.

Meshpolvon: «Malla jodugarlar egizak bo‘lishgan, sen qaysi birini aytyapsan?» – deb gap boshlaganda, Hojixonajina jarangdor kulib yubordi:

– Judayam qiziqchi bola ekansan. Seni hoziroq ozod qilaman.

Shunday dedi-yu, birdan quyunga aylanib, Meshpolvonni somonqopdek ko‘targanicha tobora balandlay boshladi, uni havoda obdan sayr qildirgach, jar yoqasidagi o‘tloqqa avaylab qo‘ndirdi. Yerga qo‘nib oliboq, «boshqalar-chi», deb so‘radi Meshpolvon.

– Ozgina toqat qiptur, – dedi Hojixonajina. – Mening iltimosim bilan bobom ularni sehrlab qo‘ygan, buyoqqa uyg‘otmasdan olib chiqaman. Ertalab tomoshani ko‘rasan.

– Xachirim-chi, xachirim?

– Ulovlardan ham tashvishlanma. Ajina zotining odamlardan asosiy farqi shuki, biz ishni chala qilmaymiz.

Hojixonajina va’dasini bajarib bo‘lgach, Meshpolvonning yelkasiga shapatilab dedi:

– Endi vaqtinchaga xayrashaylik. Hademay tong otadi. Kunduzi odamlarga ko‘rinolmayman, quyun bo‘lib yuraman xolos.

* * *

Sahargi namsaldan dildirab ko‘zini ochgan Chumakovoy bosh tomonida allaqanday «tikir-tikir» ovoz va qadamlar sharpasini eshitib, erinchoqlik bilan o‘girilib boqdi. Bir-birining etagidan ushlaganicha qatorlashib ketayotgan ko‘zi so‘qir uchta kishini ko‘rdi. Oldindagisi uzun hassasini yerga urib-urib, ehtiyotkorona odimlab borayotgandi.

– Ie, buyoqqa qanday keldingiz, akajonlar? – deya uyqusirab gap tashladi Chumakovoy.

– Bozorga ketyapmiz, – dedi so‘qirlarning yo‘lboshchisi.

Chumakvoyning kulgisi qistadi:

– Unda bozorga yetdingiz. Tag‘in o‘n qadam yuribsizki, xo‘rozqand do‘konib bor. Ko‘proq olib, yalab yotasiz.

– Nimalar deb tontirayapsan, hov?

– Demoqchimanki, oxirat kelguncha kalamushxo‘rlik qilib yursak ham bo‘ladi. Ko‘zimiz ochiq, lokigin jardan biz chiqolmadik. Hay, sizlarga yo‘l bo‘lsin endi?

Orqadagi so‘qirlar: «Kimsan o‘zing? Qanaqa jarni gapiryapsan?» – deb javranib berishdi. Chumakovoy: «Bu yerni Iblisjar debdilar. Hammangizni quduqdagi toshbaqaga o‘xshatdim», degandan keyin, bu gal ikkovi yo‘lboshchiga dag‘daga qila ketdi.

– Bizni qayoqqa boshlab kelding, masov?

– Kecha aytuvdim, «ko‘knorini kamroq ichgin», deb. Padarginangga ming la’nat!

Shu tariqa, biri olib-biri qo‘yib, yo‘lboshchini qarg‘ab-qoralayverishdi:

– Yetmagandek so‘qirliging,

Azal manglayi sho‘rliging,

Kelar ekan ja xo‘rliging,

Yo‘lboshching ham so‘qir bo‘lsa.

– Etagidan ushlagaysan,

Beg‘am ko‘ngil xushlagaysan,

Oxir boshni mushtlagaysan,

Yo‘lboshching ham so‘qir bo‘lsa.

– Sakrab o‘zin duldul qilar,
Sayrab tilin bulbul qilar,
Ishonchingni bir pul qilar,
Yo‘lboshching ham so‘qir bo‘lsa.

– Chiqib o‘zing guzar tomon,
Boshla desang bozor tomon,
Opkeladi mozor tomon,
Yo‘lboshching ham so‘qir bo‘lsa.

– Ichib olib xufya ko‘knor,
Ko‘rsatadi o‘zin hushyor,
Qilar oxir sarson-u xor
Yo‘lboshching ham so‘qir bo‘lsa.

– Qulayroqdir yo‘l-safarda
Ergashmoqlik soqov-karga,
Yiqilasan bir kun jarga
Yo‘lboshching ham so‘qir bo‘lsa.

– Og‘zingni yum ikkalang! – deb baqirib berdi yo‘lboshchi. – Senlarni shuncha yil boshlab yurib, biron marta adashtiruvdimmi? Men qolib, yo‘lda yotgan qandaydir jinniga ishonganlarining alam qilyapti. Suf senlarga! Qaysi biring mendan shubhalansang, etagimni qo‘yvor, men ketdim.

Orqadagi so‘qirlar Chumakvoyning ovozi kelgan tomonga xiyol bosh burishib: «Hov, jinni, yaxshi qol. Xayr, jinni», deganlaricha yo‘lboshchining etagidan ushlab, manzil sari yurishda davom etishdi.

Chumakvoy sergak tortib, boshini balandroq ko‘tardi. Sinchiklab kuzatsa, haqiqatan ham jar yoqasida yotishibdi, atrof keng dala. Jonholatda qichqirib, oyoqqa qalqdi.

Oshiqbola bilan Rayhon qiziq cho‘chib uyg‘onishsaki, Chumakvoy kallasini changallaganicha dodlab turibdi.

– O‘zi nima gap? – deb so‘radi Oshiqbola ko‘zlariga ishonmasdan atrofga alanglarkan.

Rayhon qiziq esa tevarakka loqayd nazar solib chiqqach, bir esnab olib dedi:

– Hech gap yo‘q. Chumak xumpar tushimizda baqirib yuribdi.

Maysaga yonboshlab, endigina ko‘zi ilingan Meshpolvon yon-verida bo‘layotgan gaplarni elas-elashilg‘agan kuyi garangsib do‘rilladi:

– Och qoringa muncha to‘polon qilmasanglar? Ko‘rib turibsizlar-ku, jardan sog‘-salomat chiqvoldik. Oshnamga rahmat denglar.

– Qanaqa oshno? – ko‘zlar o‘ynab so‘radi Chumakvoy.

Meshpolvon tunda bo‘lib o‘tgan voqeani ularga tushuntirib berguncha quyosh ko‘tarilib, atrof nurafshonlanib ketdi.

Oradan yana picha fursat o‘tgach, dalalar bo‘ylab chapanicha qo‘sinqning ohangi taraldi:

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjir yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Iblisjar qafasidan tasodifan omon chiqqan Meshpolvon o‘z askarlari bilan yurishda davom

etaryotganini dunyoga e'lon qilmoqchidek, tobora balandroq ovozda kuylardi.

* * *

Ular sarson-u sargardon yura-yura, nomi betayin, atrofi serqayin, uylari katalak, tomlari kamalak qishloqqa duch kelishdi. Keng ko'chaga yoyilib, burunlari havoga sayilib, g'ishtin mo'rillardan taralayotgan turfa xil taomlar isini simirib borishaverdi. Ayniqsa Meshpolvon har bir taomga solingan masalliplarning turigacha aniq aytib beradigan darajada diqqat bilan hid olardi.

Navbatdagi muyulishdan qayrilishayotganda, orqada qolgan Chumakovoy hovlilardan birining yonida tuyasini to'xtatdi. Panjara-devor ortida barq urib o'sgan shiringullarga bir zum mahliyo tikilib turgach, cho'zg'ilanib quyi egildi. Eng bo'ychan shoxdag'i gulga burnini bosib hidlay boshlagan ediki, nektar emayotgan asalari peshanasini jizillatib chaqib qochdi. Chumakovoy: «Oh, dono kallaginam!» – deganicha panjaraning ortiga ag'darildi. Ariqchadagi loyqash tuproqdan bir siqim olib, peshanasiga bosdi, og'riq tiyilishini kutib, «uh-uh»lab yotaverdi.

Pichadan keyin sheriklari uni axtarib kelib qolishdi. Tuya panjara-devor yonida egasiz turganini ko'rib, xavotirga tushishdi.

– Arpaboshoqqa o'xshagan bola edi, – deya achingan bo'ldi Rayhon qiziq. – Bechorani chumolilar sudrab ketdimikan?

- Agar yer yutgan bo'lsa, tuyasi tashqarida qolmasdi, – dedi Oshiqbola.
- Yo ishtonini ho'l qipqo'yib, chekkaroqda qurityaptimikan?
- Balki o'rdaklarga qalampir sotib yurgandir?

Meshpolvon xachirining bo'ynidan quchoqlab, yumalangudek alfozda pastga sirg'andi. Yerga busbutun qo'nib olganidan so'ng: «Hey, Chumakovoy! Qaerdasan, lo'liginam?» – deb tevarakka ovoz qila ketdi.

Peshanasi ayvonsifat shishib, ko'zları xandonpistaga o'xshab qolgan Chumakovoy bu tovushni eshitib, asta o'rnidan turdi, betini tarvaytirganicha shiringullar orasidan bosh chiqardi. Meshpolvon uni tanimay: «Ho', oshna, tuppak ushlagan anqov lo'lini ko'rmadingmi?» – deb so'ragan edi, u: «Ermaklashni senga ko'rsatib qo'yaman», deya panjaradan oshib o'tib, yoqalashib ketdi. Oshiqbola bilan Rayhon qiziq tez ulovdan tushib, ularni ajratishga shoshilishdi.

Shu mahal ustiga dasturxon yopilgan mistog'arani o'ng biqiniga tirab, belini chapga qiyshaytirgan yalangbosh kishi paydo bo'lib: «Tekinga mushtashguncha, talashib somsaxo'rlik qilsanglar-chi», dedi. Bu so'z qulog'iga ilinishi bilanoq Meshpolvon sipo tortdi. Chumakovoyning yoqasini qo'yib yuborib, yalangbosh kishiga yaqinlashdi. Unga cheksiz hurmat bilan ko'z qadab: «Qanaqa somsani gapiryaptilar?» – deb so'radi.

– Bozorga somsa sotgani ketyapman, – dedi yalangbosh kishi. – Issig'ida kepqoling, tugamasdan yeb qoling!

Meshpolvon beixtiyor cho'ntagini kavladi-yu, birdan manglayi tirishdi.

- Sotgani ketyapman, deng?
- Sotamiz! Pul sizdan, gul bizdan!
- Yo'q, biz somsa yemaymiz, – deya notavon qiyofada bosh tebratdi Meshpolvon. – Somsayam ovqatmi?

Somsapaz: «Ie, bundan yaxshiroq taomning nomi nima ekan?» – deya jirillab, tog'orasini yerga qo'ydi, og'iz ko'pirtirib molining ta'rifini keltirishga tutindi:

Yerni g'uluv yaratdi,
G'uluvlar buv¹⁵ yaratdi,

¹⁵ Був – бўғ.

Buv esa suv yaratdi
Odam somsa yesin deb.

Suylar qirg‘oq yaratdi,
Qirg‘oq tuproq yaratdi,
Tuproq o‘tloq yaratdi
Odam somsa yesin deb.

O‘tloqlar don yaratdi,
Donlar dehqon yaratdi,
Dehqon xirmon yaratdi
Odam somsa yesin deb.

Xirmon sabr yaratdi,
Sabr xamir yaratdi,
Xamir tandir yaratdi
Odam somsa yesin deb.

Tandir qalov yaratdi,
Qalov olov yaratdi,
Olov ko‘sov yaratdi
Odam somsa yesin deb.

Ko‘sovlar kul yaratdi,
Kul kuyik dil yaratdi,
Kuyik dil pul yaratdi
Odam somsa yesin deb.

Meshpolvon somsaning yaralish tarixini tinglab bo‘lgach, afsusnamo lab jimirib dedi:
– To‘g‘risini aytsam, jon-jon deb yerdig-u, birlamchidan, bu yurtning puli qanaqaligini bilmaymiz.
Ikkilamchidan, bilganimizdayam, cho‘ntagimizda hemiri yo‘q.

Somsafurush Meshpolvonning belidagi chilvirga qistirilgan daskallaga suqlanib: «Anavi xanjaring qiyma chopishga juda bop ekan. Shuni sovg‘a qilsang, hammangga uchtadan somsa berardim», dedi.

«Qozonqopqoqni pachoqlaganim yetmaganidek, daskallayam gumdon bo‘p ketsa, enamdan baloga qolmaymanmi? – deb o‘yladi Meshpolvon. – Yo tavakkal qilsammikan?»

Oxiri nafsi g‘olib chiqib: «Mayli, roziman. Lekin, somsani beshtadan berasiz», dedi, somsafurush uchtadan deb turib oldi.

Meshpolvon Chumakvoy tarafga ma’nodor ishora qilib: «Xorijli mehmonning oldida somsa talashsak uyat bo‘lmaydimi?» – degan edi, somsafurush past tovushda: «Qaerning odami bu?» – deb so‘radi. Meshpolvon qovoqlari yumilib qolgan Chumakvoyga bir qarab qo‘yib: «Xitoydan kelgan», deb shivirladi. «Bo‘pti, yana bittadan qo‘shaman», dedi somsafurush.

Hammaga to‘rttadan somsa tarqatib chiqilguncha Meshpolvon o‘ziga tegishlisini yamlab bo‘ldi. Oxirgi somsadan pichasini Chika bilan Pukaga ehson qilishni unutmadi.

– Bu deyman, akaginam, sal nodonroqqa o‘xshayapsiz-ku, – dedi Meshpolvon sinchaloqda tishini kavlab. – Bunaqa ko‘tarishda, tog‘ora biqinni shilvormaydimi?

– Shilish ham gapmi, naq teshvoraman deydi, – deb zorlandi somsafurush.

Go‘lroq tinglovchi topilsa, ikki kun tinmasdan aql o‘rgatib rohat qiluvchi Meshpolvon: «Yo‘lini bilish kerak-da, bunga uch baravar tog‘oraniyam osongina ko‘tarib ketsa bo‘ladi», degach,

somsafurush birdan jonlanib, «agar malol kelmasa, o'sha usul ilmidan andak saboq bersalar», deya iltijolandи.

— Qornimni to'ydirsangiz aytaman, — dedi Meshpolvon.

«To'rtta somsani pok-pokiza urvoldi, — deya xayolida hisob-kitob qildi somsafurush. — Juda borsa, yana to'rtta yeysi-da». Xullas, u shartga rozi bo'ldi.

— Erkaklarni-ku qo'yib turaylik — deb gap boshladi Meshpolvon. — Biz tomondagi xotinlar savatdek mistog'oraga besh tandir somsa, ustidan uch qozon qatlama bosib, to'yga jo'nashadi. Buning yo'li mundoq: teshikkulchadek keladigan baxmal chambarak yasaladi, uni boshga qo'yib, tepasiga tog'ora o'rnashtiriladi. Keyin ko'ribsizki, beli boshmaldoqdek kelinchak ham kallasida bir pud yuk minan besh chaqirim naridagi to'yga saqich chaynaganicha ketaveradi. Uni it quvib etagini yirtsa yirtadiki, tog'orasini tushirolmaydi.

— Anavini qaranglar-a! — deb angrayib boqdi somsafurush. — Juda ko'p o'ylardim, nega kallaning tepasi tappak yasalgan deb. Demak tog'ora qo'yishga moslangan ekan-da?

Bu orada Meshpolvon xachirdan tushib qorin to'ydirishga kirishdi-yu, «dars tinglovchi»ning bir kunlik daromadi paqqos qulog'ini ushlab ketdi.

* * *

Shu kuyi tez-tez qishloqlar uchrayverdi. Bu tomonlar asosan to'qayzor bo'lgani uchun tirikchilik qilish ancha osonlashdi — goh maymanchak terib, goh qo'ziqorin pishirib, yeb borishaverdi.

Bir kuni uzoqdan bahaybat tosh qasr ko'rindi. Butun boshli ulkan tepalikni egallab yotgan bu qasr ichidagi baland binolarning ganjli guldevorlari, tomi yarqiroq bo'ychan so'ppilar yaqqol ko'zga chalinayotgandi.

— Ana, Sepkilshohning hujrasigayam yetib keldik — deb qo'ydi Rayhon qiziq.

O'sha yoqqa qarab ketishayotganda, shoh qasridan uch-to'rt chaqirim beriroqdagi do'nglik ortidan bo'y cho'zgan ixchamgina qo'rg'onne ko'rib qolishdi. Panalab borib, yaqinroqdan kuzatishsa, qo'rg'onning enlik devori ustida yasan-tusan kiyungan bir gala qiz belini oftobga tutib, tevarakdan tomosha kutib o'tirishibdi. Shu atrofdagi qishloq bolalari esa ularga pastdan gap tashlab, qo'y-mol boqib yurishibdi.

Bir vaqt to'rt g'ildirakli ko'tak aravaga o'tin yuklab, «chu, haromi», deya qari qirchang'isini do'qlab, yo'ldan bukri chol o'tib qoldi. «Bu qanaqa qo'rg'on?» — deb so'rashdi undan.

— Qizqo'rg'on bu, — dedi bukri chol.

Turli o'lkalardan asir qilib keltirilgan qizlar orasidan esli-hushli, biron hunarga usta, oyoq-qo'li chaqqon yoki shunchaki chiroylar qizlar tanlab olinib, shu qo'rg'onga joylashtirilar, tarbiyachilar ularga xulq-odob, bejirim ro'zg'or tutish, qo'shiq aytish, raqs tushishni o'rgatishar ekan. Keyin Sepkilshoh har yili katta sayil uyushtirib, uzoq-yaqin yurtlardan kelgan shahzoda-yu bekzodalarga qizlarni namoyish qilib ko'rsatarkan, mehmonlarga yoqqanini og'ziga siqqan bahoda kanizaklikka sotarkan.

Bukri chol: «E musofir bandalar, noinsof Sepkilshoh taxtga minib, oxirzamonni boshlab kelgan ko'rinadi», deya kuyinib bir so'z dedi:

Bordir elak bozori,
Teshik chelak bozori,
Beshik-sumak bozori,
Otashkurak bozori,
Qanday zamon keldiki,
Paydo bo'lsa qizbozor?

Sotiladi qovoqlar,

Chegov, ko‘ra, tovoqlar,
Kuv, kelinop, o‘roqlar,
Sham yoki jinchiroqlar,
Qanday zamon keldiki,
Paydo bo‘lsa qizbozor?

Pullanadi pillaqurt,
Sedana-yu tog‘kunjut,
Achchiqtosh-u olmurut,
Guluta¹⁶-yu echkisut,
Qanday zamon keldiki,
Paydo bo‘lsa qizbozor?

Bozorda bor anqo don,
Jodi, qirg‘ich, chuv, qopqon,
Itbalig‘-u suvilon,
Sotiladi hatto jon,
Qanday zamon keldiki,
Paydo bo‘lsa qizbozor?

Sotishar soy ko‘prigin,
Kirsovunning guprigin,
Olmaxonning kiprigin,
Amaldorning tuprigin,
Qanday zamon keldiki,
Paydo bo‘lsa qizbozor?

Qilni savdo qilishar,
Filni savdo qilishar,
Dilni savdo qilishar,
Tilni savdo qilishar,
Qanday zamon keldiki,
Paydo bo‘lsa qizbozor?

Bukri chol ketgach, Oshiqbolaning yuragi hovliqib: «Hoy, birodarlar! Oytumor ham shu yerda bo‘lsa-ya», dedi. U Qizqo‘rg‘on sari yurmoqchi bo‘lgan edi, Rayhon qiziq yo‘lini to‘sdi.

– O‘pkani bos, ukavoy, – deya o‘ychan soqol qashladi u. – Hozir qo‘rg‘onga yaqin borsang-u, Oytumor qizlarning orasida bo‘lib seni tanib qolsa, suyunganidan biron narsa deb yuboradi. Sirimiz ochilib, to‘rt yoqni askar bosadi. Chunki, Nahang o‘lponchi bizni to‘g‘rimizda ko‘pirtirib, Sepkilshohni cho‘chitib qo‘ygan. Bo‘lmasa, o‘shanda Iblisjar tarafga hiylagar kampir bilan lak-lak askarini yuborib o‘tirmasdi.

– To‘g‘ri, – dedi Chumakovoy. – Biz hushyor ish qilaylik, dushman g‘aflatda yotsin.

Oshiqbolaning shashti so‘nib, ikkilanganicha turib qoldi. Shunda Meshpolvon uning joniga ora kirib, zo‘r chora o‘ylab topganini aytди. Yelkasiga ilib olgan ola terini Oshiqbolaning ustiga yopib, uyoq-buyog‘ini tikib-chatdi, archa tomiridan muguz, popukdor ishtonbog‘dan dum yasab, oshnasini bir zumda ho‘kiz qiyofasiga kiritdi. Belidagi chilvirni yechib, uning bo‘yniga bog‘lagach: «Hozir o‘tlatib

¹⁶ Гулута – қийикқа тикиладиган кашта гулини чизишда ишлатиладиган қўкиш бўр.

yurgandek bo‘lib Qizqo‘rg‘on yaqiniga boshlab boraman, sen po‘stakning teshigidan qizlarni tomosha qil. Oytumoring ularning orasida bo‘lsa, tanib olarsan. Lekin, ho‘kizligingni esingdan chiqarib, meni hijolat qilma», deb bir necha pand-nasihat aytdi:

Shubha solib bizlarga,
Ko‘p qarama qizlarga,
Eslik, oposh ho‘kizim.

Alanglamay jim yurgin,
Chuchkumasdan dim yurgin,
Eslik, oposh ho‘kizim.

Yuragimni xitlama,
Chechak uzib hidlama,
Eslik, oposh ho‘kizim.

Chang qilvorma po‘stakni,
Goh chaynab tur kurmakni,
Eslik, oposh ho‘kizim.

Kapalakka tashlanma,
Chivin chaqsa qashlanma,
Eslik, oposh ho‘kizim.

Gapirib yo‘l so‘rama,
«Oytumo-o-r!» deb mo‘vrama,
Eslik, oposh ho‘kizim.

Meshpolvon ho‘kizini o‘tlatayotgandek bo‘lib, asta-sekin qo‘rg‘on sari boraverdi. Yaylovdagi bolalar notanish podachiga zimdan o‘qrayib-o‘qrayib qarab qo‘yishardi.

U hanuz bitta-bitta odimlaganicha qo‘rg‘on yoqalab ketayotganida, devor ustidagi nayzali soqchilardan biri: «Hov, sopolqalpoq, bor, nariroqda uymalan!» – deb o‘shqirib berdi.

– Qo‘rg‘oningda kerilaverma, – dedi Meshpolvon, – Oltiariqdan o‘tib qolsang, tuyib qo‘yaman.

Oltiariqni shu o‘ramdagи bironta qishloqcha deb tushungan soqchi aftini tirishtirganicha indamay yuz o‘girdi.

Devor tepasida o‘tirgan qizlar boshiga chapya kiyib, pakana ho‘kizining chilvirini siltay-siltay o‘zлari tomon yaqinlashayotgan baqaloq podachiga qiziqsinib tikilishdi. Meshpolvon ularning qarshisiga yetgach: «Ha qizlar, ahvollar qalay?» – deb shang‘illadi. Kimni mayna qilishni bilmay zerikib yotgan qizlar: «Ahvol zo‘r. O‘zlaridan so‘rasak? Ho‘kizvoyniyam sog‘ligi yaxshimi?» – deya jovillay ketishdi. Faqat, chetroqda xomush o‘tirgan ko‘k kamzulli qiz gapga qo‘shilmay, ufqqa jim ko‘z qadab turaverdi.

Shoyi-barqutga yasanib, tilla-kumushga bezanib, o‘rtada g‘ozdek qad kergan bekach xotin Meshpolvonga masxaraomuz ohangda: «Kelin ko‘rgani keldingmi? O‘zingga o‘xshagan po‘rdoqisidan tanlayver», degan edi, qizlar tipirchilab qiyqirishga tushishdi. Meshpolvon: «Menga anavi ko‘k kamzullisi yoqib qoldi, juda indamasidan ekan», deya taltayib gap boshlagan chog‘da ho‘kizi uni bir suzib, oyog‘ini osmondan qildi. Qizlar battar qiyqirib kulishdi.

Meshpolvon o‘rnidan turib, «he, bo‘kib o‘lgur», deb ho‘kizning ketiga «gup» etkazib tepdi. Bekach xotin: «Shu qizni gapirtiolsang, senga besh ketamiz, po‘rdoqvoy», degandan keyin yana kayfiyati

xushlanib iljaydi. Hofizlardek suzilib tomoq qirib olgach, ko‘k kamzulli qizga baqrayib tikilganicha «tappa-tupak, tappa-tupak», deya birpas og‘zida kuy chalib, so‘ng qo‘sish qaytishga kirishdi:

Quvlamagin, anoryuzim,
Men senga kerak bo‘laman.
Do‘itali saryog‘ingga xum,
Suvingga chelak bo‘laman.

Quloqqinangda baldog‘ing,
Ko‘ylakkinangda qadog‘ing,
Oyoqqinangda paypog‘ing,
Nimchangga cho‘ntak bo‘laman.

Zardangga men bezardaman,
O‘zim romingga pardaman,
Qand so‘rasang parvardaman,
«Tuz» desang, sho‘rttak bo‘laman.

Nonushtada dasturxoning,
Choynak-piyola, qumg‘oning,
Qatlama-yu patir noning,
Chalpag-u pashmak bo‘laman.

Terlaganingda soya-tol,
Uxlaganingda par-poxol,
Yig‘laganingda dasro‘mol,
O‘ynasang g‘ijjak bo‘laman.

Kosangda men yog‘och qoshiq,
Yuzingni yuv, o‘zim sochiq,
Darvozangga oshiq-moshiq,
Ipingga g‘altak bo‘laman.

Otangga yangi nosqovoq,
Onangga chinni oshtovoq,
Opangni sochiga taroq,
Ukangga hushtak bo‘laman.

Qaynagan sho‘rvadek toshib,
Qir, tepadan o‘tdim shoshib,
«Kel» desang obro‘yim oshib,
Haydasang ermak bo‘laman.

Yoqtirmadim uni-buni,
Esim og‘ar ko‘rib seni,
Bu turishimda bir kuni
Qip-qizil tentak bo‘laman.

Kambag‘al-u tasqaraman,
Hozircha sal masxaraman,
Payti kelib o‘zgaraman –
Dunyoga ertak bo‘laman.

Bu qo‘sinqni eshitib, ko‘k kamzulli qiz parvo ham qilib qo‘ymadi. Meshpolvon: «Menga qarang, hov, yaxshi qiz...» deb qiy panglay boshlagan ediki, ho‘kizi yana xuruj qilib, uni suzib ag‘dardi.

– Bas qil, kallavaram, – deya po‘stak ichidan do‘q urdi Oshiqbola. – Oytumor – shu qiz!

Meshpolvon ham shivirlaganicha uni jerkib berdi:

– Yaxshilikcha shunaqa desang o‘lasanmi? Suzaverib biqinni archvording-ku, duming uzilgur.

Shundan keyin joyidan turib, ust-boshini qoqdi, Oytumorga ancha roiyishlanib boqdi. «Baribir seni gapirtirmasdan ketmayman, tovushingni eshitib, oshnam bir mazza qilsin», deb ichida tuginib qo‘ydi. Uni yayrab mazaxlayotgan qizlarning kulgisiga e’tibor bermay, Oytumorga ikkinchi qo‘sinqni ham bag‘ishlab yubordi:

Keldim, mana, sovchi bo‘lib,
Ho‘kizni boshlovchi bo‘lib.
Iyya-iya, iyya-iya,
Indamagan – bukri tuya.

Sizni birov yaxshi ko‘rar,
Ho‘kiz misol gangib yurar.
Iyya-iya, iyya-iya,
Indamagan – laylak uya.

Ko‘p qiy namang, aytay sirin –
Ho‘kizniyam joni shirin.
Iyya-iya, iyya-iya,
Indamagan – qozonkuya.

Ko‘paysa sizdek pari qiz,
Bu yaylovga to‘lar ho‘kiz.
Iyya-iya, iyya-iya,
Indamagan – qashqa biya.

Oytumor bu safar ham pinagini buzmadni, osmondan ko‘zini uzmadi. Meshpolvonning achchig‘i qo‘zidi, ho‘kizning bo‘ynidagi chilvirni mahkamlayotgandek egilib turib: «Farosat bormi bu qizingda? Gapni yetkazib qo‘ysam ham, ho‘kizga sinchiklab qaramaydi-ya», deb Oshiqbolaga arzlandi. «Endi sen kuylayotgandek og‘zingni qimirlatib tur, ashulani men aytaman», dedi Oshiqbola.

Bekach xotinning: «Omading yurishmadi-ku, po‘rdoqvoy», deya qizlarni kuldirgani Meshpolvonga qo‘l kelib: «Qizbola qaysar bo‘ladi, opaginam, hozir yuragiga tegadiganidan aytamiz», deb ho‘kizining biqiniga bir nuqib qo‘ydi. Oshiqbola, picha kalovlanguday bo‘lsa, endi tepki ham yeishi mumkinligidan qo‘rqib, tezda qo‘sinqni boshladni. Meshpolvon ilhom bilan tebranib, po‘stak ichidan chiqayotgan ovozga mos ravishda og‘zini ochib-yopib turaverdi:

Qizlargayam mardlik yaxshi,
Surmali ko‘z dardlik yaxshi,
Dangallik – «shart-shart»lik yaxshi,

Yov taltayar indamasang.

Solib yuz xil jabrlarga,
Tiqsa qafas-qabrlarga,
Shahdingni qo'sh sabrlarga,
Yov taltayar indamasang.

Sen – qul, ruhing ozod bo'lib,
Dilda erkli kun yod bo'lib,
Nafrat sochgin shaddod bo'lib,
Yov taltayar indamasang.

Qasosingni «jiq-jiq» qilgin,
Yuragingni jo'shiq qilgin,
Alamingni qo'shiq qilgin,
Yov taltayar indamasang.

Qo'shig'ingni yonib kuyla,
Qo'rquvlardan tonib kuyla,
Yurt ishqiga qonib kuyla,
Yov taltayar indamasang.

Qo'shiq boshlangan palladayoq tanish ovozdan yuragi seskanib, beixtiyor qad rostlagan Oytumorning so'nik chehrasi tobora yorishib bordi. Qo'shiq tugagandan keyin ham sehrlangandek ho'kizga termilib turaverdi. Meshpolvon: «Bu safargisi qalay chiqdi?» – deb baqirganidan so'ng hushini yig'ib, atrofdagilarga jovdiradi. Ularni xavfsiratmaslik uchun o'zini quvlikka solib, «ho'kizing yaxshi ashula aytarkan», dedi. Chunki, oxirgi qo'shiqnini podachi emas, po'stakka burkanib olgan boshqa odam aytayotganini ayyor bekach xotin sezmaganiga ishonib bo'lmasdi. Oytumor uning ko'nglidagi hadikni yuvib tashlash uchun qo'shiqchilarni tirikchilik dardida yurgan xashaki masxarabozlarga yo'yib yuborishga tirishdi.

– Oytumorniki gapirtirding, balo ekansan, – deya Meshpolvonga jilmayib boqdi bekach xotin. – Bizni qoyil qoldirding. Ma, mukofotni olgin-u, qorangni o'chir.

U qo'lidagi naqsh olmani pastga tashladi. Meshpolvon «mukofot»ni panjada emas, katta ochilgan og'zi bilan ilib olib, urug'-po'chog'i aralash yamlab yubordi. Oytumor esa «bunisi ho'kizingga, po'rdoqvoy», deb popukli ro'molchasini irg'itdi.

Meshpolvon ho'kizini sudragudek bo'lib Qizqo'rg'ondan uzoqlashib borarkan, Oytumorning ko'z o'ngida manzarador Bobotog'dagi sayil, qayoqdandir tuyqus paydo bo'lgan xushro'ygina yosh ovchi gavdalandi, uning o'shanda aytgan ishqiy qo'shig'i qulog'i ostida boshqatdan yangrayotgandek bo'ldi:

Yulduzni kul qilar ko'zi,
Ko'zgusidir oyning o'zi,
Bu hurliqo kimning qizi –
Sochida ot qamchilagan?

Qirq kanizak hamdam bo'lib,
Men yorisiz birkam bo'lib,
Kulgulari shabnam bo'lib,
Bobotoqqa tomchilagan.

Chambar ro‘mol o‘rashlari,
Gajjagini burashlari,
Cho‘chib-cho‘chib qarashlari
Yuragimni chimchilagan...

* * *

Qizqo‘rg‘ondan qaytib kelishgandan keyin Oshiqbola yori sovg‘a qilgan ro‘molchaning mushkanbarini hidlab, yuragi «pit-pit»lab, qo‘ziqorin pishirishga qaralashmasdan, birovning gapiga aralashmasdan yotaverdi. Sheriklari to‘rt six kabobdan birini unga tutishganda, hatto qayrilib boqmadi.

– Uni birpas tinch qo‘yaylik, – dedi Meshpolvon. – Sho‘rlikning kabobiniyam men yeymen shekilli.

Lekin ikki six kabob uning uchun ikki dona olcha yutishdek gap edi, ichga tortib ketgan qornini ma'yus silaganicha ajriqqa yonboshladи, bir necha hafta ilgari ko‘l bo‘yidagi dasturxonadan tanavvul qilingan zodagoncha tansiq taomlar ko‘z oldiga kelib, shirin xayolga cho‘mdi. U, ayniqsa, nonni juda sog‘inib ketgandi.

Shu asno, yaylovda qo‘y-mol boqib yurgan bolalarga o‘ychan tikilib yotarkan, qo‘qqisdan kallasiga ajoyib fikr kelib, shoshib o‘rnidan turdi. Bolalarga yaqinroq borib: «Filni ko‘rganmisizlar?» – deb so‘radi. «Eshitganmiz-u, ko‘rmaganmiz», deyishdi ular.

Meshpolvon: «Bizda fil bor. Tomoqqa ilinadigan narsa olib kelganlarga uni ko‘rsatishim mumkin», deya bolalarni tomoshaga qiziqtirishga urindi:

Yer yuzi keng, beta’rifdir,
O‘ng mashrig‘-u chap mag‘ribdir.
Bu dunyoda eng g‘aribdir
Tirik filni ko‘rmaganlar.

Garchi maymun qiziqchiroq,
Oddiy itdan kichik biroq.
Juda noshud, juda no‘noq
Tirik filni ko‘rmaganlar.

Derlar: «Qo‘tos zo‘r hayvondir»,
Bu gap «mish-mish» va yolg‘ondir.
G‘irt savodsiz, g‘irt nodondir
Tirik filni ko‘rmaganlar.

Tomoshaga siz ilhaqsiz,
Ko‘rsatilmas lekin haqsiz.
O‘ta nochor, o‘ta baxtsiz
Tirik filni ko‘rmaganlar.

Buni eshitgan bolalar «qiyov-chiyov» qilib qishloqlari tomon yugurishdi, ko‘p o‘tmay boshqa sheriklarini ham ergashtirib, qaytib kelishdi. Non, pishloq, suzma, archayong‘oq, qoqbaliq, qiyom, mevaqoqi kabilalar bir uyum bo‘ldi.

Shundan keyin Meshpolvon ularni safga tizib, butazorda o‘tlab yurgan tuyaning yoniga yetaklab bordi:

– Manavini fil deydilar!
Bolalar hayratlanib chug‘urlay ketishdi:
– Vu-u-y!
– Balandligini qaranglar!
– Bilamiz, minishda shoti qo‘yib chiqishadi.
– Nega beli do‘ngalak, a? Nega do‘ngalak, deyapman!
– Filda xartum bo‘ladi deb eshituvdim-m, – deb ching‘illadi ozg‘ingina bola.
Meshpolvon unga tuyaning dumini ko‘rsatdi:
– Ana xartumi, ukaginam.
– Iya, xartum dumga o‘xsharkan.
– Balki bular tarafda dumni xartum deyishar.
– Xartum nimaga kerak, a? Nimaga kerak deyapman!
Boyagi ozg‘in bola yana ching‘illab: «Xartumni old tomonda bo‘ladi deb eshituvdim-m», dedi.
– Sen Hindistonning filini gapiryapsan, – deb gerdayganicha uqtirdi Meshpolvon. – Bunisi Oltiariqniki.
– Hindiston Oltiariqdami?
– Yo‘q, ukalar, ikkalasiyam alohida-alohida yurt.
– Sizlarda yana nima bor?
Meshpolvon hanuz gerdayib turarkan, uzoq o‘ylab o‘tirmay, shartta javob qildi:
– Hammasidan bor. Eng ko‘p uchraydigani – oqayiq.

* * *

Meshpolvon o‘z lashkari uchun Qizqo‘rg‘ondan yarim chaqirimcha naridan zo‘r istehkom topdi. Qachonlardir kesilib, vaqtida tashib ketilmagan azamat daraxtlar bu yerda uyum-uyum bo‘lib yetardi.

Tomosha haqiga tushgan oziqlarning bir qismi ehtiyyotdan xurjunga solinib, qolgani o‘sha istehkom oldida baham ko‘rilayotgan chog‘da Meshpolvon: «Ana! Kelyapti!» – deb quvonch bilan qichqirdi-yu, o‘rnidan turib ketdi. So‘ng: «Oshnam kelyapti! Hojixonajina bu!» – deya irg‘ishlab, yo‘lakni changitganicha istehkomga yaqinlashayotgan quyunning istiqboliga yugurdi. Qulochini yoyib, to‘zonni quchmoqchi bo‘lganida, eshilib, yerga ag‘anadi.

– G‘irromlik qilma, Hojixon, g‘irromlik qilma, – deya quyunga barmoq saraklatdi u. –Bunaqa oyoqdan chalish yo‘q.

Quyun Meshpolvonning atrofida girgitton aylanib, yana chalib yiqitmoqchidek unga bir zum tegajoqlik qildi, dasturxon tegrasida o‘tirganlar yonidan uyoq-buyoqqqa «viz-viz» o‘tib, to‘qlidek sho‘xligi tutib, quvnoq raqs tushib berdi. Oxiri ajriqlarni shildiratib, xas-cho‘plarni pildiratib o‘ynaganicha o‘rmon ichiga kirib, ko‘zdan yo‘qoldi. Meshpolvon: «Uzoqqa ketvorma, Hojixon, bir gapplashaylik endi», deya ortidan baqirib, dilidagi armonlarini to‘ka boshladi:

Ayrilganman dadamdan,
Ayrilganman onamdan,
Ayrilganman enamdan,
Tashlab ketma, Hojixon.

Yirtiq-yamoq ustim bor,
Sen-u uchta do‘stim bor,
Yana mehribon kim bor,
Tashlab ketma, Hojixon.

Dushman turar biqinda,
Yurgin bizga yaqinda,
Yararsan og‘ir kunda,
Tashlab ketma, Hojixon.

Bordir otliq navkarim,
Tuya-qo‘yda lashkarim,
Bo‘l piyoda askarim,
Tashlab ketma, Hojixon.

Kirsa lashkarim jangga,
Yovni bulab ber changga,
So‘ng uyog‘i – akangga,
Tashlab ketma, Hojixon.

– Qachonki ovqat yesang ko‘nglim ayniydi, – deya Meshpolvonga ezgin qiyofada tikildi Chumakvoy. – Lokigin, gaplaring odamni yig‘latadi.

Hojixonajina shu ketganicha kechqurun qaytib keldi. U bilan tanishuv Meshpolvonning sheriklari uchun biroz qo‘rquinchli tarzda boshlanib, keyin qiziqarli tus oldi.

– Misol uchun desak, ot o‘g‘irlashga qanday qaraydilar? – deb so‘radi Chumakvoy.

Hojixonajina qovog‘ini uyib, bir muddat jimb qoldi. Keyin: «Otni pishirib yeymanmi? Mabodo xohlasam-ku, «xusht» deguningcha erondagi duldulni Uchqo‘rg‘onga opkelaman», deb bir so‘z aytdi:

Gaping menga keldi malol,
Berding picha qo‘pol savol,
Ajinalar garchi halol,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Garov o‘ynab chiroqmoyga,
Oshnam bilan qo‘yib poyga,
Oldin yetib bordim oyga,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Bu tog‘dan u toqqa sakrab,
Sho‘x ukamga yurdim qarab,
Menga bir tosh Shom-u Arab,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Tunda doim ishlarim soz,
Yomonlar duch kelsa bexos,
Quvalayman bo‘lib novvos,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Boyni zarga ko‘mizganman,
Oddiy chaqa yegizganman,
«Jon akajon», degizganman,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Ko‘rshapalak bo‘lib atay,
Yotog‘ida chalsam surnay,
Poshsho qochgan debon: «Bay-bay»,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Gapir menga Rum, Turondan,
Dengiz, dala, dasht, o‘rmondan,
Bulut quvmojni osmondan,
Ot o‘g‘irlash ish bo‘ptimi?

Chumakvoy unga hang-mang boqib, yoqa ushladi:

– Hay-haaay! Mana shu joyda bildimki, ajinaning oldida lo‘li ham ip esholmaydi.
Oshiqbola ulfatini o‘z kulfatiga tortib, «yaxshi ko‘rgan qizing bormi», deb savol tashlagan edi,
Hojixonajina bezrayib turib: «Hali bunaqa topshiriq olmaganman», dedi.

Rayhon qiziq yoshi boshqalardan ancha salobatliroq, fikriyam daromadliroq ekanini namoyish etmoqchidek «xo‘-o‘-sh...» deb qo‘yib, picha sukut saqlab turdi, kiprigi pastga terilib, qoshi ko‘rshapalakning qanotidek kerilib, o‘zicha pichirlashga berilib, hammani mahtal qildi. Katta bir masala chiqqanga o‘xshaydi deb, sheriklari ziyrak tortishdi.

Nihoyat, kiprik yuqori sakrab, qosh quyi ag‘nab, Rayhon qiziq tilga kirdi:

– Ajinalar jamoasi cho‘zma otishni bilarmikan?
– Hech ko‘rmaganman, – dedi Hojixonajina.
– Ya’ni aniqrog‘i?
– Yo‘q! Ajinalar cho‘zma otishmaydi.
– Ana-a-a!

Rayhon qiziq chapak chalganicha qah-qah urib yubordi, toychoqdek gijinglab, miriqib-miriqib kuldii.

– Otishmaydi dema, bilishmaydi desang-chi, – deb g‘ururlandi u. – Men senga aytsam, ukavoy, cho‘zma otish har kimniyam qo‘lidan kelavermaydi. Burunga urishni-ku gapirib o‘tirmaylik. Hiq-xiy-xiy. Hiq-xiy-xiy...

Aslida Hojixonajina hozir bu yerga hazil-mazax aytishib gurunglashish uchun kelmagandi.

U, Qahratoniya poytaxtida ertalab paydo bo‘ldi. Meshpolvon boshchiligidagi o‘chkorlarni qidirib, ancha joyni kezib chiqdi, ularni oxiri yaylovdan topdi. Bu Meshpolvon qo‘rg‘onning devori ustidagi ko‘k kamzulli qizga termilganicha, «nimchangga cho‘ntak bo‘laman», deb xonish qilayotgan payt edi. Hojixonajina o‘zgalar e’tiborini tortmaslik, qolaversa, hofizni chalg‘itmaslik maqsadida bir qarichgina chang ko‘tarib, ehtiyyotlik bilan yaqinlashgani bois Meshpolvon o‘shanda uni sezmadи.

– Qizqo‘rgondagi bekach xotin zog‘ning o‘zginasi ekan, – dedi Hojixonajina. – Oshiqbola po‘stak ichida ashula aytayotganda Oytumorning o‘zgarib qolganini payqab turuvdi. Men undan xavfsirab, orqasidan tushdim.

Meshpolvon bilan Oshiqbola yaylovdan ketishlari bilanoq, bekach xotin Sepkilshoh qarorgohiga qarab jo‘nabdi. Borib, pistak kampirga uchrabdi, bo‘lgan voqealarni chaqimchilab beribdi.

– Ulardan bittasi boshiga chapya kiygan dedingmi? – deb so‘rabdi pistak kampir. – Voy, yer yutgurlar-ey, Iblisjardan qanday qutulib chiqishdiykin?

Pistak kampir bekach xotindan eshitgan gaplarini oqizmay-tomizmay Sepkilshohga yetkazibdi. Ular birgalashib reja tuza boshlashibdi.

– Qisqasi, hammalarin ni hammomda bo‘g‘izlab o‘ldirishmoqchi, – dedi Hojixonajina panjalarini tajovuzkor qoplonnikidek changaksimon ko‘rsatib. – Odamzod hammomga doim qurolsiz kiradi. Ular mana shundan foydalanishmoqchi.

Sepkilshoh o‘z navkarlari orasidan ellikta eng odamxo‘rini tanlab, dushmanning kekirdagidan

tishlab o'ldirishni yaxshi ko'radigan bir kalni galaboshi qilib tayinlabdi.

Hojixonajina gapini tugatgach, o'chkorlar boshni bir yerga jamlab, bunga qarshi chora axtarishdi. Birovi u dedi, birovi bu dedi, piravardida Chumakvoy o'ylab topgan hiyla hammaga ma'qul tushdi.

* * *

Ertasi kuni ular istehkomda nonushta qilib o'tirishganda, yonlariga bir kampir kelib: «Hoy sho'rlik musofirlar, juda irkitlanib ketibsizlar-ku. Yuringlar, jonim qoqindiqlar, qishlog'imizdag'i gumbazli hammomni ko'rsatib qo'yay, yuvinib sal odamnusxa bo'lvolinglar», deya hammasini go'dakchasiga taltanglata ketdi:

Yuvinadi mushuklar,
Bo'talog'-u kuchuklar,
Popishag-u chumchuqlar,
Siz ham cho'm-cho'm qilvoling.

Buzoq-ulоq yalanar,
Zag'cha-to'rg'ay taranar,
Toy shudringga belanar,
Siz ham cho'm-cho'm qilvoling.

Jo'jalarin o'rdaklar –
Soy tarafga yetaklar,
Qurtga to'ldi ko'lmaklar,
Siz ham cho'm-cho'm qilvoling.

Havas qiling qo'ng'izga,
Kaltakesak, xonqizga,
Yotmang o'xshab to'ng'izga,
Siz ham cho'm-cho'm qilvoling.

«Obbo, pistak kampir-ey, – deb o'yladi Meshpolvon, – basharasiniyam, tovushiniyam tezda o'zgartirib olibdi».

Ular: «Rahmat, ena, zap savob ishga boshlayapsiz-da», deyishib, kampirga ergashishdi.

Gumbazli hammom keng va baland qilib qurilgan ekan. Yechinib, ichkariga kirishsa, ko'zi chovbirdek¹⁷ o'ynagan, so'lagini chaynagan ellikta muzbashara davangir qulay fursatni kutib, qorniga yolg'ondan sovun surtib o'tiribdi. Ozgina vaqt o'tgach, ular burchaklardagi qizib turgan toshlarga jomda «jaz-juz»latib suv sepa ketishdi. Birpasda atrofni bug' qamradi, xona bir qarich naridagi odamni tanib bo'lmaydigan holga keldi.

Chumakvoy uch marta qattiq tomoq qirib shartli ovoz qilgan chog'da, sheriklari sovun ichiga yashirilgan bigizlarni olib, hammomdagilarning dumbasiga jiq-jiq sanchishga tushishdi. Xona bir zumda oh-nolaga to'ldi.

O'chkorlar to'polonda adashib bir-biriga jabr yetkazib qo'ymaslik imo-ishora bilan oldindan o'z joylarini taqsimlab olishgan edi. Shunga qaramay, ehtiyot shart deb, chap qo'lidagi tog'orada orqasini berkitganicha jang qilishardi.

Kallakesarlardan biri hozirgina ortiga bigiz sanchilgan tomonga tavakkaldan chang soldi,

¹⁷ Човбир – болалар қамчилаб ўйнайдиган ёғоч пилдирок.

shapalog‘i tarsillaganicha galaboshning taqir kallasiga urildi. Qonga tashna bo‘lib turgan galaboshi o‘z navbatida uning kekirdagini tishlab, jig‘ildonini uzib oldi. Ablahlardan bittasini tinchitdim deb sevinayotganida dumbasini bigiz jizillatib, shataloq otib yubordi.

Kallakesarlarning ahvoli nihoyatda tanglashib, qiyomat avjga chiqqach, ustidagi tuyrukdan nur tushib turgan eshikni mo‘ljallab, hammasi o‘zini tashqariga urdi. Bu paytda eshikning ikki chetiga biqinib olgan Meshpolvon bilan Oshiqbola ularning ketini nishonga aylantirib, biri o‘ng dumbaga, ikkinchisi chap dumbaga bigiz tiqib turaverdi, bir-biriga hayqirib dalda beraverdi:

– Bigizingni charxlab sanchgin,
Do‘st-dushmanni farqlab sanchgin,
Jiq-jiq,
Jiq-jiq!

– Xanjar qilib yaltiratgin,
Qonxo‘rlarni qaltiratgin,
Jiq-jiq,
Jiq-jiq!

– Voydodlasin galaboshi,
Yuvilgancha chala boshi,
Jiq-jiq,
Jiq-jiq!

– O‘tganini muhrlab ur,
Kerak joyga to‘g‘rilab ur,
Jiq-jiq,
Jiq-jiq!

– Qochsin bari buvalashib,
Lungisiga chuvalashib,
Jiq-jiq,
Jiq-jiq!

– Qo‘ldan tushgan tog‘orasi
Bo‘lsin qochish nog‘orasi,
Jiq-jiq,
Jiq-jiq!

G‘alamis pistak kampir bu mahalda to‘polonga qulqoq solib, lippasidan holva olib, chala chaynaganini chala yutib, kallakesarlardan xushxabar kutib, tashqarida mamnun o‘tirardi. Hammomdan qochib chiqayotganlar shoshilishda uni birin-ketin tepalab o‘tib, arava ezgan baqadek majag‘ini chiqarishdi.

* * *

Vaqt yarim kechadan og‘gan pallada Hojixonajina qasrdan yangi gap topib keldi.

Hammomdagi sharmandalarcha mag‘lubiyatni, ayniqsa, makkorlarning piri hisoblangan pistak kampirning ahmoqona tarzda halok bo‘lganini eshitgach, arboblarning aqli shoshib, Sepkilshohning

g‘azabi toshibdi. Nahang o‘lponchi pistak kampirga achinib: «He, attang, shunday zo‘r mutaxassis g‘o‘r ketibdi», deya bosh tebratganda, shoh: «O‘scha buzg‘unchilarni ikki marta qo‘ldan chiqarding, endi o‘zing aybingni yuv», deb baqiribdi. Unga yuzta askar beradigan bo‘libdi. Nahang o‘lponchi: «Bu kamlik qilmasmikan?» – deya dudmallangan ekan, Sepkilshoh: «Nima, to‘rtta iprindini tutishga uyalmasdan yarim lashkarimni jo‘nataymi?» – deb ayyuhannos solibdi.

– Hammomdagи bigizvozlikni Chumakovoy o‘ylab topuvdi, – dedi Rayhon qiziq. – Bu safargisini menga qo‘yib beringlar, ukavoylar.

O‘chkorlar istehkomi bilan qasr oralig‘idagi yo‘lning bo‘yida erta-yu kech «bilq-bilq»lab turadigan botqoqko‘l bor edi. Rayhon qiziq keyingi kuni qalbaki popukqandni yo‘lga tashlab, «shirintuzoq»qa bog‘langan ipni ushlab, botqoqning narigi chetiga chekinib, qamishlar ortiga bekinib yotaverdi. Bir mahal shu tomonga jadallab kelayotgan qora papoqli askarlar safi ko‘rindi.

Yo‘l qirg‘og‘idagi popukqandga Nahang o‘lponchi bilan yana uch-to‘rt askarning nigohi bir vaqtida qadaldi. Oldingi qatordagilardan biri harbiy intizomni yig‘ishtirib qo‘yib, o‘lja sari yugura boshlagan ediki, Nahang o‘lponchi qat’iy ohangda: «Tegma! Yeganga soliq solaman!» – deb na’ra tortdi. So‘ng izmidagi askarlarga yuzlanib, ikki juft tanbeh aytgan bo‘ldi:

Poshsholikning askari
Ko‘rgan bo‘lar tarbiyat.
Yerda yotgan qandni deb
Safni tashlamoq uyat,
Saqlang tartib-intizom.

Sepkilshohning yurtida
Bir ish qilmang o‘ylamay.
Hech nimani yeb bo‘lmas
Solig‘ini to‘lamay,
Saqlang tartib-intizom.

Bir gal o‘lja tegmasa,
Qo‘rqmang, osmon uzilmas,
Qand topib yeb yursin deb
Atay lashkar tuzilmas,
Saqlang tartib-intizom.
Askarlar o‘z boshlig‘in
Izzat-hurmat qilmasmi?
Men turib, siz yesangiz,
Sharmandalik bo‘lmasmi?
Saqlang tartib-intizom.

Saf oldidagilarning tili labida pildirab, orqadagilar «nima gap» deya qo‘sh ko‘zi yiltirab, hammasi joyida toptanib qoldi.

Ko‘rganlar orqali ko‘rmaganlarga qulqoma-qulqoq gap tarqaldi: «Popukqand yerda yotibdi... Yerda tekin qand yotgan mish... Karmisan? Qanddan gapirishyapti!..»

Nahang o‘lponchi viqor bilan borib, asta egilgan edi, qand sal nariga siljidi. Ikkinci harakati ham shu tariqa zoe ketgach, jahli chiqib, yerga astoydil tizzaladi, chigirkadek pit-pit sakrab, popukqandga olti-etti marta tashlanib ko‘rdi. Har gal qo‘li ozgina yetmasdan qolaverdi. Oxiri xunobi oshib: «Shirinlik tutib keltirilsin!» – deya askarlarga buyruq berdi.

Nafsi jikillab turgan qora papoqli askarlar «ura-ura» bilan popukqandni quvib, Nahang o‘lponchini

ham birga yuvib ketishdi. Shu kuyi orqadagilar oldindagilarni olg'a choptirib, «hay-hay»gayam qaramasdan botqoqqa yaqinlashib borishaverdi. Olddagilar shaloplab, ortdagilar hanuz haloplاب, navbat bilan balchiqqa ag'anayverdi.

Goh uning, goh buning yelkasiga chiqib, askarlarni loyga tezroq tiqib, botqoqdan qutulib qolishga jon-jahdi bilan tirishib ko'rgan Nahang o'lponchi, tugalay cho'kib borayotgan chog'ida ham nariroqdag'i cho'galga ilinib turgan popukqandga qarab, bir yutinib qo'ydi.

Pishayotgan bo'tqani eslatuvchi botqoqning «bilq-bilq»iga endi «biqir-biqir»lar jo'rланib, atalasimon suv yanada kirlanib, yuzasida pufakchalar turlanib, qo'rkoq baqalar qirg'oqda xo'rланib qoldi. Badnafslik balosi Nahang o'lponchiga qo'shib yuzta askarni ham badbo'ylik olamining tubiga yetaklab ketdi.

«Biqir-biqir» tovushlar odatdagi «bilq-bilq»larga aylangach, Rayhon qiziq mabodo biron ta dushman chetda jon saqlab qolmadimikan degan xayolda balchiqsuv ustidagi egasiz qora papoqlarni qaytadan sanab chiqdi. Hamma ish joyida ekaniga qanoat hosil qilib, istehkom tomonga yo'l oldi.

Istehkomga yetay deb qolganida, qo'lda tugun-u to'rsavat ushlab, chivinlarni kish-kishlab, chakalakdagi so'qmoqdan chiqib kelayotgan dehqonlarga yo'liqdi. Kasbi – tomma-tom izg'ish, sochi dumbulsoqoldekk qizg'ish, qo'yniga allabalolarni solgan, chipta kovushli qariyani yetaklab olgan tirmizak bola Rayhon qiziqni ko'rishi bilanoq, quvonib qichqirdi:

– Ana, ajoyibxonachining sheri kelyapti!

Dehqonlar bir zumda uni o'rab olishdi. Rayhon qiziqning yuragi shuvillab: «Sizlarga nima yomonlik qildim?» – deb atrofdagilarga alanglatdi.

– Ho'kizteri yopingan sheringing manavi nevaralarimga filni ko'rsatibdi, – dedi chipta kovushli qariya. – Biz ham ajoyibxonaga ketyapmiz.

«Meshpolvonning mechkayligi boshimizga balo bo'ldi, – deya ko'nglidan o'tkazdi Rayhon qiziq. – Bolalarni-ku aldash oson, kattalar fil nima-yu, tuya nimaligini yaxshi bilishadi. Endi hammamiz kaltak yeymiz shekilli».

Shunda qariya: «Nega tisarilib qolding? Qo'rhma, tekinga ko'rmaymiz», deb qo'lidagi tugunchasini ko'z-ko'z qildi.

– Mana, mendayam bir xalta tuxum bor, – dedi boshqa birovi.

– O'g'izgayam¹⁸ ko'rsataverasizlarmi? – deb so'radi qo'ltig'iga ko'za qistirgan uchinchi kishi.

Rayhon qiziq nima deyishini bilmay, kigiz qalpog'ida yelpinganicha turib qoldi.

– Filimiz kasal, – dedi oxiri bahona topib. – Tomoshalarni to'xtatganmiz.

– Nima bo'ldi, qaeri kasal?

– Dumiga puchak chiqibdi.

– Shunga shunchami? Filga puchak chiqqani chivin chaqqandek gap.

– Bundan tashqari, odamlar bergen har xil narsalarni yeyaverib, ichburug' bo'p qoldi. Isitmaga kuyib, so'ljayib yotibdi.

– Mayli, yotgan joyida tomosha qilaveramiz. Qani, boshla o'sha ajoyibxonangga.

Ular Rayhon qiziqdandan javob kutib o'tirmay, istehkom yoqqa qarab yurishdi.

Salgina vaqt o'tib, istehkom bo'sag'asi g'ala-g'ovurga ko'mildi. Rayhon qiziq to'planganlarning niyatini Meshpolvonga qisqacha tushuntirib, «endi o'zing gaplashaver, bizni bu g'alvaga aralashtirma», deb do'ng'illadi. Meshpolvon bir muddat bo'yin qashib turgach, yo'g'on xodaning tepasiga chiqib, yig'ilganlarga murojaat qildi:

– Filni kasal deb aytishibdi-ku. Poda-poda bo'lib kelaversizlarmi?

– Ahmoq bo'lib tag'in qaytib ketamizmi? – dedi kimdir. – Yotgan joyida ko'rsataver.

– Bu juda xavfli. Kasal fil quturgan itga o'xshab qoladi.

– Gapni ko'paytirma! Yaxshilikcha ko'rsat filingni!

¹⁸ Ўғиз – янги бузоқлаган сиғирнинг сути.

Meshpolvon shu topda bularga gap ta'sir qilmasligini sezib, yana o'ylanib qoldi.

– Mayli, men roziman, – deb birdan past tushdi u. – Lekin, hozirmas. Tomosha kechqurun bo'ladi. Unga dovur fil tuzalib qolishi kerak.

– Shu tomoshangni bir yo'la qishloqda ko'rsatsang-chi, – dedi chiptakovushli qariya. – Bahonada kampirlarimizniyam xursand qilarding.

– Ana, shundoq so'qmoqdan o'tsang, qishlog'imiz biqiningda turibdi, – deya chakalakzor tomonga qo'l cho'zdi boshqasi. – Borsang, burningdan chiqquncha ziyofat beramiz.

«Ziyofat» degan so'zni eshitib, Meshpolvonning hiqildog'i likilladi. «Bo'pti, kechqurun bizni kutib turinglar, hamma hayvonlarni olib boramiz», deb va'dani quyuq qildi.

Dehqonlar ketishi bilanoq, Rayhon qiziqning jahli qo'zib: «Qanaqa hayvonlarni aytyapsan, kuydirgi? Boshimizga kelgan ofat bo'lding-ku», deb vaysab berdi.

– Meni gapim – gap, – dedi Meshpolvon. – Agarda farang yo hangilizlarni bugun yer yutadi desam, ertagacha qolmasdan shu ish bo'ladi. Men mana shunaqaman!

* * *

Qorong'i kira boshladi hamki, Hojixonajinadan darak bo'lavermadi. Diqqati oshgan Meshpolvon yong'oqboz bolalarning soqqasidek uyoqdan-buyoqqa pildirayotgan chog'da Chumakvoy: «Ajinang qasrdagi o'yinchi qizlarga pul qistirib o'tirgan bo'lsamikan?» – deb uning jig'iga tegdi.

Xayriyatki, Hojixonajina ortiqcha kechikmadi. Qaytib kelishi bilanoq, Meshpolvon: «Qasrdagi gaplarni keyin aytarsan. Hozir zarur ishimiz bor», deya uni shoshiltirishga tushdi. Istehkomdagilar yoppasiga qishloqqa yurishdi.

Qishloqdagilar chakalakzorning so'qmog'idan chiqaverishdagi maydonga yig'ilib, ajoyibxonani intiq kutib turishgan ekan, Meshpolvon rahbarligidagi «hayvon o'rgatuvchilar»ni olqishlarga ko'mib qarshi olishdi.

– Hayvonlarimni anavi butalarning orqasida qoldirdim, – dedi Meshpolon. – Davraga birma-bir chiqarib ko'rsataveraman. Qani, so'qmoqni uch tomondan o'rab o'tirib olinglar-chi.

Chol-yigitlar chordana qurib, kampir-juvonlar yerga tizza urib, qizaloqlar qiqirlashib, bolakaylor bir-biriga tixirlashib, oydin maydonga yoyilib o'tirishdi. Shundan keyin Hojixonajina goh u, goh bu hayvonning tusida chakalakdan chiqib, davrani aylanaverdi, Meshpolvon ularni baholi qudrat sharhlab turaverdi:

- Bunisi sahroi kabirning maymuni!
- Sahroda maymun nima qiladi? Maymun to'qayda bo'lmaydimi?
- Farosat bormi o'zi? Sahroi kabirning o'rtasi to'qayzor-ku.
- E, shunaqami? Oldinroq aytib qo'yish kerak-da... Ie, ie! Anavinisi nima? Qaerniki bu?
- Buni nomi tuyaqush. Ozarbayjonda bo'ladi.
- Tuxumiyam kalladek bordir?
- Ana! Yaxshilab ko'rib olinglar! – dedi Meshpolvon davrada yangi hayvon paydo bo'lgach. – Bu yo'lbarsni Sulaymoniyadan ushlab kelganman.

Hojixonajina kelgusi safar zebraga aylandi. Umri bino bo'lib, bunaqa mahluq haqida biron-bir ma'lumot eshitmagan Meshpolvon unga boqib angrayib qoldi. Eshak deyay desa, terisi yo'lbarsniki, yo'lbars deyay desa, turqi eshakning o'zginasi. Oxiri chaynalib turib: «Eng yaramas hayvonlardan bittasi shu», dedi. «Nima o'zi buning?» – deb so'rashdi undan. Meshpolvon zebraga yanada sinchiklab tikilganicha: «Boyagi yo'lbarsning ammasi», deb javob qildi.

- Shuyam yo'lbarsmi? Bizga eshakni bo'yab ko'rsatyapsan!
- Egasi bo'pturib, o'zim bilmaymanmi? Men yo'lbars deganimdan keyin, gap tamom-da.

Turli-tuman jondorlar chakalakdan bir-bir chiqaverdi. Meshpolvon: «Mana bunisi Xirotning mushugi. Endi Ho‘ngariston ayig‘ini tomosha qilyapsiz», deb og‘ziga kelgan gapni qaytarmay, ularning ta’rifini keltiraverdi:

Ana, Toshkent xo‘rozi,
Karnaydan zo‘r ovozi,
Tomoshaga kep qoling!

Bu – misrlik toshbaqa,
Mendan qarzdor besh chaqa,
Tomoshaga kep qoling!

Qashqir derlar bunisin,
Yegan to‘rtta inisin,
Tomoshaga kep qoling!

Sichqon o‘zi bir yashar,
Lekin mashhur tomteshar,
Tomoshaga kep qoling!

Qarang, serka ja go‘shtlik,
Yo iroqlik, yo o‘shlik,
Tomoshaga kep qoling!

Sirtlon – to‘ni guldori,
G‘uljada eng bezori,
Tomoshaga kep qoling!

Anov timsoh yovuzdir,
Boshdan-oyoq og‘izdir,
Tomoshaga kep qoling!

Bu – yovvoyi qo‘zichoq,
Timsohdan ham xavfliroq,
Tomoshaga kep qoling!

Tulki – juni chuvilgan,
Ashxaboddan quvilgan,
Tomoshaga kep qoling!

Kalamushi sal sharttak,
Xo‘jandda yegan kaltak,
Tomoshaga kep qoling!

Endigisi ko‘rsichqon,
Hassa yo‘qotib sarson,
Tomoshaga kep qoling!

Mana, bo‘ri g‘alamis,
Tegmang, keyin solamiz,
Tomoshaga kep qoling!

Ko‘ring gurji tuyasin,
Beshigi qush uyasi,
Tomoshaga kep qoling!

Quyon – fe’li buzilgan,
O‘q yeb, dumi uzilgan,
Tomoshaga kep qoling!

To‘ng‘iz kelar irshayib,
Burni yonga qiyshayib,
Tomoshaga kep qoling!

Va nihoyat fil kelar,
To to‘yguncha yil kelar,
Tomoshaga kep qoling!

Tomoshabinlar filning juda ko‘p ovqat yeishini eshitib, buni ko‘zлari bilan ko‘rishga qiziqib qolishdi. Ammo, ziyofat boshlangach, o‘sha ulkan hayvon behad ochofatligi bilan taxminan qanday vayrongarchiliklar keltirishi mumkinligini Meshpolvon o‘z ishtahasi misolida namoyishlab berdi.

* * *

Sepkilshoh uchinchi to‘qnashuvga ikki yuz nafar jangchisini tashladi. Bu haqdagi ma’lumot istehkomdagilarga qora papoqli askarlardan ilgariroq yetib kelgandi.

Kecha qishloqda tomosha ko‘rsatib qaytishgandan so‘ng Meshpolvon bilan Hojixonajina Sepkilshoh qasrida bo‘lgan gaplar xususida ancha suhbatlashib o‘tirishdi.

– Suyunchi ber, Meshpolvon, – deb qoldi bir payt Hojixonajina. – Dadang bilan onangni topdim.

Meshpolvonning taajjubdan ko‘zлari olayib, benihoyat hayajonlanib ketdi, shoshib-toshib surishtirishga tushdi:

– Nima? Nima deding? Rostdanmi? Qaerda ko‘rding ularni?

– Qasrdagi gaplardan bexabar qolmayin, deb zuvillab borayotuvdim. Lavlagi kavlayotgan qulcho‘rilarning qarg‘ishigayam parvo qilmay dalani to‘zitib o‘tayotganimda, qulog‘imga «Meshpolvon» degan gap chalingandek bo‘ldi.

– Ie! – deb betoqat pitirladi Meshpolvon. – Qani-qani, uyog‘ini gapir-chi.

– Qarasam, bir xotin bilan bir erkak ikki qo‘li ishdan bo‘shamay, yonma-yon gaplashib borishyapti. To‘xtab, quloq soldim.

– Cho‘zmasang-chi, oshna, nimalar deyishdi? Xo‘sh?

– Ular seni ochdan o‘lib ketmadimikan deb rosa tashvish tortishyapti. O‘zлari ozib-to‘zib, gandiraklab turishibdi-yu, boshqaning qornini o‘ylaganiga tan ber. Bildimki, ota-onang seni juda yaxshi ko‘rkan.

– Buni qara-ya. Rahmat senga! Kam bo‘lma!

– Qariroq enang ham bormi?

– Ha, ha, enam bor. Qariligiym to‘g‘ri. Xo‘sh-xo‘sh?

– Shu kampirgayam ko‘p achinishdi. Agar Meshpolvon tirik bo‘lsa, uni to‘ydiraman deb, qahatchilikda o‘zini o‘tdan-cho‘qqa urayotgandir, deyishdi.

– Bundan chiqdi, enamniyam sog‘inishibdi.

– Ko‘zlarining dadangnikiga o‘xshab ketarkan.

– Ie, shunaqa degin? – deb quvondi Meshpolvon, so‘ng tutunsimon do‘stining parday yumshoq yelkasidan quchib, unga mehribon ishqalandi. – Rahmat senga, Hojixon. Ko‘nglimni ancha tinchitding, eng keraklisi – dadajonim minan onajonim tirik ekan, yarim armonim ketdi. Ularni zanjirdan bo‘shatsam, keyin menda armon qolmaydi, oshna.

Hojixonajina nigohini oshnasiga qadab, uning g‘amgin ko‘zlaridan mana shu so‘zlarni o‘qidi:

Chidash mumkin, jon o‘rtoq,

Cho‘lda qaqrasa tomoq.

Qanday chidaysan biroq,

Ota-onang qiynalsa?

Chidash mumkin, oshnajon,

Kun oralab yesang non.

Bo‘lar ammo dil vayron,

Ota-onang qiynalsa.

Chidash mumkin, ey jo‘ra,

Bog‘da tegmasa g‘o‘ra.

Xorsan undan ham ko‘ra,

Ota-onang qiynalsa.

Chidash mumkin, og‘ayni,

Yetmay qolsa husayni.

Kul bo‘lasan baayni,

Ota-onang qiynalsa.

Chidash mumkin, e do‘stim,

Qo‘shning ovqat yesa jim.

Yuraging og‘rir «chim-chim»,

Ota-onang qiynalsa.

Chidash mumkin, birodar,

Qanding olsa birov gar.

Zindon bilan barobar,

Ota-onang qiynalsa.

Ajriqqa uzala tushib olgan Meshpolvon ota-onasi haqida uzoq-uzoq xayol surib yotmoqchi edi, haddan ziyod charchagani uchun ko‘p o‘tmay pishsho-pish uxlab qoldi. Bu kecha hatto tush ham ko‘rmadi...

Yana tong ota boshladi. Istehkomdagilar barvaqt uyg‘onib, jang oldidan yaxshilab tamaddilanishdi.

– Ikki yuzta askar qachon olamni olibdi? – deb chirandi Chumakovoy. – Yuztasiga mana o‘zim bakor turay.

Rayhon qiziq ham past tushishni istamay: «Unda, qolgan yuztasi menga cho‘t bo‘ptimi?» – dedi.

– Aynan shuni o‘ylab turuvdim, – deya qo‘mondonligi tutib tamtamlandi Meshpolvon. – Oshiqbolani bunaqa bachkana janglarga kiritmayman.

Yerga oftob qo‘nishi bilan, yalanglikda ikki yuz nafar qora papoqli askar paydo bo‘lib, tayoqqa ola bayroq ilganicha, ur-sur qilib jangga kirdi. Oldilariga bir uyum mayda tosh, qalampirga qorilgan loy soqqani g‘amlab, temirchining cho‘qmoriday shay turgan Rayhon qiziq va Chumakovoy ularni istehkom ortida kutib oldi. Xodalar uyumiga mushukdek tatalab-tirmashayotgan qora papoqlilar birma-bir adabini yeb yiqligani sayin, ikkalasining zavqi jo‘shib, jangni hazil-mazaxga aylantirib yuborishdi:

– Uyatga qo‘yma, oshnam tuppak.
– Cho‘zmam, ishni bajar mixdek.
– Ko‘zga – shap-shap!
– Burunga – po‘k-po‘k!

– Chap ko‘zlarni achitib urgin.
– Burunlarni yolchitib urgin.
– Ko‘zga – shap-shap!
– Burunga – po‘k-po‘k!

– Qalampirni sachrat qoshga.
– Burunga salom soqqa toshdan.
– Ko‘zga – shap-shap!
– Burunga – po‘k-po‘k!

– Ko‘zga – shap-shap!
– Burunga – po‘k-po‘k!
– Ko‘zga – shap-shap!
– Burunga – po‘k-po‘k!
– Shap!
– Po‘k!
– Shap!
– Po‘k!

To‘polon uzoqqa cho‘zilmadi. Sepkilshoh hali tushlikka o‘tirib ulgurmay, yuborilgan askarlarning yuztasi chap ko‘zidan, yuztasi burnidan yaralanib qaytaganini unga xabar qilishdi. Shoh alamidan «dod» deb yubordi. Uyoqdan-buyoqqa potir-putir odimlab, sardorlarini «itbaliqlar» deb so‘kishga, «haromtomoq» deya lashkarboshining obro‘sini to‘kishga tushdi. Ko‘ringanga olapardek hurib, tokchadagi idishlarni yerga urib, jazavalanib qoldi.

* * *

Har qachongidek o‘z vaqtida uyg‘ongan quyosh navbatdagi kunni boshlab bergach, maydonda Sepkilshoh lashkarlarining uchdan bir qismi saf tortdi.

– He, afsus, hozir Go‘ro‘g‘libek bobomning qirqtagina yigit yonimda bo‘lsaydi, – deb g‘ijindi Oshiqbola.

– Endi bunisini men bilmayman, – dedi Meshpolvon. – Nima bo‘lgandayam, bugun navbat seniki. Har xil bahona axtaravermasdan, jangda o‘zingni ko‘rsatib qo‘y.

– Haliyam kunim senga qolgani yo‘q, – deb jirilladi Oshiqbola. – Umuman olganda, o‘zingdan-o‘zing nega buyruq berib yuribsan? Seni bizga kim qo‘mondon qildi?

Meshpolvon ham bo‘sh kelmadi:

– Onadan qo‘mondonligimcha tug‘ilganman. Senlarning peshanangga askarlik yozilgan, mensiz hammang harom o‘lasan. Esingdami, Iblisjarda «buvijon»lab yotganing? Agar Hojixon oshnam yordamlashmaganda, kuningni ko‘rarding?

– O‘rgildim o‘sha ajinangdan, – dedi Oshiqbola. – Kechasi qasrdan qaytib kelib, «hushyor turinglar, ertaga katta urush bo‘ladi», deganicha qayoqqadir qochvordi. Mana, haliyam qorasini ko‘rsatmayapti...

Istehkom ortidan kelgan ovoz ularning g‘idi-bidisiga barham berdi. Elchi ekanini bildirish uchun nayzasiga oq latta bog‘lab olgan bir jangchi yaqindan turib shartini ayta boshladи:

– Oralaringda dahshatli Meshpolvon degan bahodir bor ekan. Zo‘r bo‘lsa, maydonga chiqib, bizdagi Cho‘tir pahlavon bilan kuch sinashsin.

Avvaliga Meshpolvonning dami ichiga tushib ketdi, qo‘ynida Chika bilan Pukasi borligi esiga kelgandan keyin daf’atan dadillanib, noz-firoqli javob qildi:

– Obro‘yimga uncha to‘g‘ri kelmasayam, bu shartga roziman.

Shundan so‘ng uyoqdan ko‘krak juni po‘stinday, bilaklari ustunday, otbo‘yin-u filoyoq, har panjasি bir tayoq bo‘lib Cho‘tir pahlavon chiqdi, buyoqdan Meshpolvon o‘qlovnı belga qistirib, istehkomni oshib o‘tdi.

Ular maydon o‘rtasida yuzma-yuz kelishgach, Cho‘tir pahlavon xomsemiz raqibiga parvosiz boqib, bir so‘z dedi:

Zoti toza tozilar
Urushmaydi it bilan.
Nahot xumor yozilar
Olishib sen bit bilan?

Mitir-mitir yurasan,
Koshki qo‘lga ilinsang.
Hali dodlab berasan
Biron joying shilinsa.

Sen munosib zo‘r yov-u,
Tushdimmi men shu holga?
Tupuraman o‘qlov-u,
Boshingdagi sopolga.

Po‘staknamo shu to‘nda
Qochmasingdan emaklab,
Opkelaqol besh-o‘nta
Oshnangniyam yetaklab.

Aytay endi mazax gap
Turishingga yarasha:
U ko‘zingga teshasop,
Bu ko‘zingga tarasha.

Bundan Meshpolvonning jahli lunjida ko‘pib, kalishida yer tepib, Cho‘tir pahlavonga dag‘dag‘a bilan javob qildi:

Tirikka go‘r qaziyverma,

Menga hadeb sasiyverma,
Nima, sendan qarzim bormi?

Yiqitmasdan lof urmagin,
Musofir deb hovliqmagin,
Nima, sendan qarzim bormi?

Hammaga bir kelar davron,
Sen qari, men yosh pahlavon,
Nima, sendan qarzim bormi?

Kim bo‘psanki, solsang qovoq,
Menga kulmay, o‘zingga boq,
Nima, sendan qarzim bormi?

Indamasam, «bitsan» deysan,
Bir musht ursang, uch musht yeysan,
Nima, sendan qarzim bormi?

Men ham aytay bir mazax so‘z:
Og‘zingga – muz, burningga – tuz,
Nima, sendan qarzim bormi?

Ular raqibini o‘ziga o‘chakishtirish uchun taomiliga ko‘ra bir-birini masxaralab bo‘lib, bellashuvga hozirlanishdi. Meshpolvon qo‘ynidagi ilonlarini tirsagida turtib: «Chika! Puka! Tayyor turinglar!» – deb shivirlab qo‘ydi. So‘ngra raqibiga qarab: «Oldin seni sinab ko‘rishim kerak. Qani, yelkangdan bir ezay-chi, agar tizzalab qolmasang, kurashga yaraganing bo‘ladi», dedi.

– Menga desa, bo‘ynimga hayinchalak solib uch, – deb tirjaydi Cho‘tir pahlavon.

Meshpolvon oyoq kaftlarini tikkaytirib intilganidan keyingina raqibining yelkasiga zo‘rg‘a bo‘yi yetdi. Yeng ichidan o‘rmalab chiqqan ilonlar biri ikkinchisining dumiga chirmalib, Cho‘tir pahlavonning kelidek yo‘g‘on bo‘yniga o‘ralishdi, uni ayamay bo‘g‘a boshlashdi. Cho‘tir pahlavonning dami bo‘g‘ziga tiqildi, zum o‘tmay o‘q yegan ayiqdek gursillab behush yiqildi. Meshpolvon: «Ha-hayt!» deb qichqirganicha uni bosib tushdi. Ilonlar tezda egasining qo‘yniga kirib olishdi.

Ellik qadamcha narida saf tortib turgan qora papoqli askarlar sarosimalanib qolishgan onda, istehkomdagilar Meshpolvonning g‘alabasidan quvonib, qiy-chuv bilan irg‘ishlay ketishdi.

– Endi bizniyam shartimiz bor, – deya qora papoqlilar tomonga qichqirdi Meshpolvon. – Qahratoniyadagi manaman degan ochofat ovqat yeyishda men minan bahslashib ko‘rsin.

Hamma joyda bo‘lganidek, bu mamlakatda ham ashaddiy poraxo‘r, yebto‘ymaslik bilan dong taratgan nozir bor edi. «Mana, pora», desangiz, qilichni ko‘ndalang yutardi. Tezda borib, uni topib kelishdi. O‘rtaga har biri bo‘yradek ikkita dasturxon yoyilib, turfa ne’matlarga to‘ldirib tashlandi.

Labi kartmon, tishi ketmon, baq-baqaloq, shal pangquloq, burni it g‘ajigan chandiday, og‘zi to‘ytandirday, bag‘baqasi buklangan, qorni alohida aravaga yuklangan nozirni suyab kelishib, ziyoratning ro‘parasiga yonboshlatishdi. Meshpolvon narigi dasturxon qarshisiga o‘tirdi.

– Marhamat, xo‘jayin, porani olsinlar, – deb nozirga ta’zim qilishdi qora papoqlilar.

Nozir: «Ie, bular tekimmi hali? Mayli, ko‘pchilikning talabini inobatga olamiz», deb o‘z yurtining fuqarosiga sodiqligini shunday izhor qildi:

Osh pishirsa o‘tin qalab,

Yeb bergin, deb qilsa talab,
Turolmaymiz yerga qarab,
Xalq talabin bajaramiz.

Xalq – ko‘pchilik, xalq – hukmdor,
Biz shunchaki bir amaldor,
Desa ham: «Yeb, tog‘ni qo‘por!»
Xalq talabin bajaramiz.

Norin turar sepilib murch,
Beshbarmog‘-u sutli guruch,
Barin yemoq biz uchun burch,
Xalq talabin bajaramiz.

Ko‘pchilikka qarshi bormoq –
Bilib turib boshni yormoq,
Toki bizda sog‘dir tomoq,
Xalq talabin bajaramiz.

Ikki tarafda yutinib turganlar uchun tomosha boshlandi. Nozir o‘z odatiga ko‘ra, oldin suyuq ovqatlarni simirib, keyin quyig‘ini kemirishga o‘tdi.

Meshpolvon ishni maydalab o‘tirmadi, tog‘oradagi qatiqqa sharbat-u qaymoq, murabbo-yu sarimsoq, mastava-yu nonpalla, yalma-yu atala, sho‘rkaram-u holva, qalampir-u tuppani aralashitirib, go‘shtni bulab uraverdi. Tog‘ora bo‘shagach, endi unga shilpildog‘-u qovurma, ugra-yu do‘lma, oqcho-yu boda, go‘shtkuydi-yu parmo‘da, shirgurich-u shavla, moshkichiri-yu moshxo‘rda, manpar-u bo‘g‘irsoq, chuchvara-yu qovurdoqni ag‘darib, ustiga non to‘g‘rab yedi. Allaqachon xiqichoq tuta boshlagan nozir ziyoftning to‘rtadan uch qismini gumdon qilishga erishgan damda Meshpolvonning dasturxoni yap-yalang bo‘ldi.

Buni ko‘rib, nozirning ensasi qotdi, mo‘ltirab burun tortdi. Lekin burni yana piqillab, tomog‘i hiqillab, yegan ovqati jig‘ildoniga tizilib, ishtahasi buzilib tursa-da, tayyor poraning bir qismini qoldirib ketishga ko‘zi qiymay, matonat bilan kavshanishda davom etdi. Oxiri bir tishlam luqmani yutish uchun uch piyola choy ichmasa bo‘lmaydigan holga tushdi.

Meshpolvon unga tilamchidek qo‘l uzatib: «Jon tog‘a, somsangizdan bittagina beri-i-ng», deb yalina boshlaganida, tengsiz raqibga yo‘liqqanini anglab, rangi bo‘zarib ketdi, «ke, olaver», dedi cho‘chinqirab boqib. Meshpolvon bu gapni «istaganingcha yeyaver» degan mazmunda tushundi, bir eshak hangrashichalik vaqt o‘tmay, ikkinchi dasturxonni ham tozalab qo‘ydi.

Hech narsa qolmagach, hatto, choynakdag‘i shamaniyam qoqib yegan Meshpolvon og‘zini chapillatib turib: «Tog‘aginam, shunday katta qulqoqni nima qilasiz?» – deb so‘raganida, nozirning yuragi battardan po‘killadi, «buyam odamga bir husn-da», deya mung‘ayib javob qaytardi.

– Erkak kishi chiroyli bo‘ldi nima-yu, bo‘lmadi nima? – dedi Meshpolvon. – Keling endi, shu qulqoqdan bittasini yeb ko‘raylik.

Shu asno qulqoqqa qadalib tikilganicha, ko‘ngilning qulfini ochdi:

Soch tagidan jalpanglanib,
Chalpaknamo yalpanglanib,
Ko‘z kuydirar shalpanglanib,
Shu qulqoqni yegim keldi.

Shakarobga bulab somsa,
Sho‘rva ichdim o‘n to‘rt kosa,
Endi nafsim o‘rtab rosa,
Shu quloqni yegim keldi.

Shirmon tursa savat-savat,
Uraverdim qavat-qavat,
Mana, oxir yetib navbat,
Shu quloqni yegim keldi.

To‘rt yuzta xom tuxum yutdim,
Doshqozondan palov kutdim,
Barining bahridan o‘tdim,
Shu quloqni yegim keldi.

Ellik paqir ichdim ayron,
Butun qo‘yni qildim vayron,
Bir ko‘rdim-u bo‘ldim hayron,
Shu quloqni yegim keldi.

Qurib ketsin pechak qandi,
Jonga tegdi ko‘katmanti,
Cho‘zing endi bo‘lib tanti,
Shu quloqni yegim keldi.

Bu gapdan keyin nozirning ko‘zлari qinidan chiqqudek bo‘lib: «E, hazilingni qo‘ysang-chi, o‘zi yuragim kasal, biron kor-hol bo‘lsa, tovonimni to‘lab yurmagin», deb qarshi javob qildi:

Bilaman sen filtomoqni,
Yeysan avval bir quloqni,
So‘raysan so‘ng qo‘l-oyoqni,
Hazil qilma, yurak chatoq.

Tekinga yeb shuncha ovqat,
Topmadingmi zarra rohat?
Menga yetkazma jarohat,
Hazil qilma, yurak chatoq.

To‘y bo‘larmi to‘y uloqsiz?
Tog‘ bo‘larmi tog‘ buloqsiz?
Qanday yashay men quloqsiz?
Hazil qilma, yurak chatoq.

Boshingdagi sopol idish
To‘lgunicha beray kumush,
Buyurgin-u boshqa yumush,
Hazil qilma, yurak chatoq.

Men o‘zimga yasab qafas,
Ajdar bilan boylabman bahs,
Qulog‘imga tegma, badnafs,
Hazil qilma, yurak chatoq.

O‘zining vaxshiyligiga ishona boshlagan Meshpolvonning battar tixirligi qo‘zib: «Qulojni yaxshilikcha ber deyapman!» – deya nozirga davara qildi. O‘takasi yorilayozgan nozir: «Voy dod, meni ho‘l balodan qutqaringlar», deb echkiemardek sudralganicha qocha boshladи.

– To‘xta! – deb baqirdi Meshpolvon. – Baribir qulog‘ingni yeyman!

Qorni gavdasiga besh baravar keladigan nozir keyingi o‘n yil ichida birinchi marta yordamchilarsiz o‘rnidan turib, o‘z oyog‘i bilan yugurishga kirishdi. Qora papoqlilar endi butunlay vahimaga tushib, lashkar orasida g‘ala-g‘ovur ko‘tarildi. Bu parokandalikdan vaqtida foydalanib qolishga tirishgan Oshiqbola sheriklarini darhol jangga yetakladi.

Pahlavonni behush qildi Meshpolvon,
Ochofatni noxush qildi Meshpolvon,
Dushmanlarni xomush qildi Meshpolvon,
Garang yovni tirqiratib ur endi,

Go‘ro‘g‘liga jondosh Oshiqbolasan,
Ravshanbekka tandosh Oshiqbolasan,
Kambag‘alga yondosh Oshiqbolasan,
Qilichingni yirqiratib ur endi.

Rayhon qiziq, to‘rt lochinning biri bo‘l,
Do‘sst suyangan tog‘ bo‘lmasang, qiri bo‘l,
Dunyodagi cho‘zmabozlar piri bo‘l,
Yov burnini zirqiratib ur endi.

Chumakpolvon, jangda o‘zni sho‘x qilgin,
Mard lo‘lining jahliga xos do‘q qilgin,
Tuppagingga achchiq-achchiq o‘q qilgin,
Ko‘zga puflab, chirqiratib ur endi.

Qora papoqlilar to o‘zini o‘nglab ulgurguncha, maydonning bir tomoni yaradorga to‘lib ketdi. Oshiqbola Go‘ro‘g‘lizodaga loyiq ish qilib, qilichni yaltiroq nish qilib, G‘irotni dovuldek kishnatib, g‘animlarni tepib-tishlatib, o‘rtaga yorib kirdi. Rayhon qiziq bilan Chumakovoy esa cho‘zma-yu tuppakdan tinimsiz o‘q yog‘dirib, dushmanning esini og‘dirib, qilichini qinidan sug‘urolmay gangsib yurganlarni bitta-bitta qulatishaverdi.

Oqsoq xachirini jil panglatib, garchi hozir hech kim tovushini eshitmayotgan bo‘lsa-da, jonkuyarlik bilan: «Hov, Oshiqbola, qilichni qulochkashlab ur!.. Ko‘z ochirma, Chumakovoy!.. Cho‘zma to‘xtatmay ishlatsilsin, burunlar pachoqlab tashlansin!» – deya sheriklariga aql o‘rgatib yurgan Meshpolvon xumordan chiqib jang qilolmadi. Tabiiyki, uning oldiga yaqinlashishga bironta dushmanning yuragi betlamayotgan edi.

Ammo, sal fursat o‘tgach, ko‘p baribir ko‘pligini bildirdi. Asta-sekin es-hushini yig‘ib olgan qora papoqlilar to‘rttala jangarini uch tomondan qisib, tobora orqaga surib borishaverdi. Sal vaqtidan keyin ularni batamom o‘rab olib, yanchib tashlashlari turgan gap edi.

Bir payt orqa tarafdan «jov-juv» qichqiriqlar eshitildi. Meshpolvon mundoq qarasa, chekina-chechina Qizqo‘rg‘onga yaqin kelib qolishibdi, devor ustiga kaptardek terilib olgan qizlar qiy-chuv bilan ularni chorlab turishibdi.

Bu orada qo‘rg‘onning darvozasi ochildi.

– Askarlarim! Botirlarim! – deya sheriklariga hayqirdi Meshpolvon. – Qo‘rg‘onga qochib kirilsin! Darrov menga ergashilsin!

Bu safar uning tovushi barcha sheriklarining qulog‘iga yetib bordi, buyruqqa hammasi so‘zsiz itoat etdi.

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjur yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Nogiron xachirni jitranglatib borayotgan qo‘mondon mashhur qo‘shig‘ini bor ovozda kuylaganicha, o‘z lashkarini qo‘rg‘on sari ergashtirib ketdi.

Oshiqbola otqi Qizqo‘rg‘on yoqqa yeldirib borayotib, «bu tuzoq emasmikan», deb o‘yladi. Devordagi qizlar orasida Oytumor ham turganini ko‘rib, dilidagi shubhasi tarqaldi.

Ular ichkariga kirishlari bilanoq, qizlar darhol darvozani berkitib, yog‘och tambalarni tirkashdi.

Surishtirib bilishsa, dugonalarini Oytumor yo‘lga solgan ekan. Ular avvaliga bekach xotinni tutib, qo‘l-oyog‘ini chandishibdi. Keyin Qizqo‘rg‘onni qo‘riqlash topshirilgan soqchilarni bekachning huzuriga bitta-bitta chaqirgan bo‘lishib, bir boshdan sholchaga o‘rab bog‘lashaveribdi.

* * *

Oytumor sholchalardan biriga o‘ralgan arqonni yechib, «soqchiboshi mana shu», deya, bo‘g‘riqib ketgan biqqi yigitni ko‘rsatdi.

– Men askarlikka yollangan qulman, – deya to‘rttal o‘chkorga joydirab boqdi soqchiboshi. – Sheriklarim ham shunaqa. Bizni o‘ldirmanglar, Sepkilshohni birgalashib qiyratamiz.

Xonada qatorlashib turgan sholchalar ichidan soqovcha bo‘g‘iq tovushlar taraldi. Chamasi, sheriklari soqchiboshining gapini ma’qullayotgan edilar.

Qora papoqlilar Qizqo‘rg‘onning darvozasini hanuz «gupir-gupir» urib, kamon o‘qlari tepadan vizillab o‘tib turgani uchun vaqt juda ziq edi. Meshpolvon gapni chuvalab o‘tirmay, qizlardan beshta non so‘rab olib, soqchiboshining tumshug‘iga qadadi. «Yorug‘ olamda tengi yo‘q dahshatli Meshpolvonga halol askar bo‘lishga qasam ich!» – deya uni qo‘rkitishga tushdi:

Buzsang agar so‘zingni,
Qush cho‘qisin ko‘zingni,
Eshak tepsin o‘zingni,
Shunday xavfli qasam ich!

Qaytar bo‘lsang va’dadan,
Buqa suzsin podada,
Yiqilib tush xodadan,
Shunday xavfli qasam ich!

Pok tutmasang labzingni,
Ochlik qiyinab nafsingni,

Quyon yesin sabzingni,
Shunday xavfli qasam ich!

Bir kun tonsang bu gapdan,
Doim uyg‘ongin chapdan,
Domlang ursin mактабда,
Shunday xavfli qasam ich!

Ontga amal qilmasang,
Erkaklikni bilmасang,
Chayon chaqsin, o‘lmasang,
Shunday xavfli qasam ich!

Soqchiboshi non dastasini qo‘li titraganicha tutamlab, uch marta peshanasi bilan labiga bosdi, «dahshatli Meshpolvonga xiyonat qilsam, meni non ursin, ko‘r bo‘lay», dedi.

Ochligi ko‘zidan sezilib turgan soqchiboshi qasamni tugatgan zahoti Meshpolvon nonlarni undan yilib oldi, sholchalar ichidagi boshqa bandilarga ishora qilib: «Bulargayam ishonsa bo‘ladimi?» – deb so‘radi.

- Men borman, qilt etishmaydi, – deya gapni cho‘rt kesdi soqchiboshi.
- Birontasi aldaydigan bo‘lsa, ochiq gap shuki, kamida moxov bo‘ladi, – deb ogohlantirdi Meshpolvon.

Sholchalar ichidan endi, «um-m, g‘um-m», degan qasamyodlar eshitildi.

Meshpolvon beshala nonni yo‘l-yo‘lakay kavshab, sheriklari va fidoyi soqchilar bilan qo‘rg‘on devoriga chiqib bordi. Kamonlarining o‘qi tugagani bois pastda beish uymalanib yurgan qora papoqli askarlar, ularga yordam berish uchun narvon ko‘tarib kelayotgan ko‘makchilar galasi ko‘rindi.

Narvonlar devorga tiralgach, qora papoqli askarlar bir-birining ketini cho‘qib, qumursqalardek sheringini oldinga nuqib, yuqoriga ko‘tarila boshlashdi. Meshpolvonga askarlikka o‘tgan soqchilar g‘o‘dasha-g‘o‘dasha yigitlar edi, ular yigirma-o‘ttiz kishi tirmashib turgan narvонни nayza bilan bir itarishdayoq, ag‘anatib yuborishaverdi.

Ammo, dushman askarlarining chek-adog‘i, narvonlarning son-sanog‘i yo‘q edi. Bittani yiqitishsa, ikkitasi bosh ko‘tarib chiqardi. Jang qizigandan qizib ketdi. Mudofaachilar charchay boshlagan pallada, qizlar ham «to‘xta-to‘xta»ga qaramay devor ustiga chiqib kelishib, har xil idishlardagi qaynoq suvlarni dushman ustidan sochishga tutinishdi.

Soqchilardan biri yarador bo‘lganidan foydalangan ikkita qora papoqli askar qo‘rg‘on devoriga endigina oyoq qo‘ygan mahalda kirtog‘ora ko‘targan qizga duchor bo‘lishdi. Qiz to‘satdan tog‘orani selpib, ularning aftiga qaynoq suv sepdi, askarlarining kiyimidan oppoq bug‘ ko‘tarildi, dodlaganicha o‘zlarini devordan tashlashdi.

– Barakalla, singilginam! – deb qichqirdi buni kuzatib turgan Meshpolvon. So‘ng qizlarning tevaragida o‘ralashib, ularga dalda bera ketdi. – Qo‘rqmanglar, qizlar, men shu yerdaman. Sizlarga tirmog‘ini tekkizganni mijig‘lab qo‘yaman, menga yaqinroq turib urishinglar...

Bu orada Oytumor uchta dugonasi bilan zaytun yog‘i dog‘ qilingan dalaqozon¹⁹ni ko‘tarib kelishdi. Hali tutuni bosilmagan yog‘ning yarmini narvondan chiqayotganlar boshidan, qolganini devor ostiga narvon o‘rnatayotganlar ustidan sochishdi, «jaz-juz» ovozlar eshitilib, hammayoq chinqiriqa to‘ldi.

– Rahmat, qizlar! Kam bo‘lmanglar! – dedi Meshpolvon.

¹⁹ Далақозон – дошқозондан кичик, уйқозондан каттароқ.

Soqchiboshi esa ustidan tutun chiqorganicha bo‘kirib qochayotganlar ortidan: «Hammomga tez-tez kepturinglar!» – deb baqirib qo‘ydi.

Ko‘p o‘tmay qiz boyoqishlar holdan toyishdi, takasaltang o‘sibmiz deb o‘zlarini koyishdi. Ulardan birining qo‘liga kamon o‘qi sanchilib, «voy, onajonim-ey», deb cho‘kkalab qoldi. Sheriklari chug‘urlashganicha kelib, uning yoniga to‘planishdi.

Mana shu og‘ir daqiqada ufqni birdan chang-to‘zon qopladi. Qizqo‘rg‘on devoridagilar ham, pastdagilar ham nima voqeа yuz bergenini fahmlab ulgurmay, Meshpolvon yer-u ko‘kni zirqiratgudek bo‘lib qichqirdi:

– Hojixon oshnam kelyapti! Sheriklariniyam boshlab kelyapti! E, yashavor!

Haqiqatanam bular o‘nlab quyunlar edi. Ular uvlab-guvlab yetib kelishib, qora papoqlilarni almak-jalmak aylantirganicha yerga ko‘tarib uraverdi. Qizqo‘rg‘on atrofini birpasda tozalab chiqishib, endi tarqoq galalarni ta‘qib qilisha ketdi.

Hamma sheriklaridan baland bo‘y cho‘zib, hammadan tez aylanib yelayotgan quyun Hojixonajina edi, albatta. U odamlar nazdida xuddi uvilloq tovush chiqarayotgandek tuyulsa-da, aslida jo‘shqin qo‘shig‘ini baralla aytib jang qilayotgandi:

Aylan, quyunim, pildir-pildir,
Barglar uchsin «shildir-shildir»,
Barglar shildiroq,
O‘yna, pildiroq!

Do‘stlar kulsin, dushman kuyunib,
Yovning ko‘ziga qum soch, quyunim,
Barglar shildiroq,
O‘yna, pildiroq!

Bosqinchilar tekin osh yer,
Shag‘al joyda sendan tosh yer,
Barglar shildiroq,
O‘yna, pildiroq!

Bosqinchiga uvlab borgin,
Momosini uyiga quvlab borgin,
Barglar shildiroq,
O‘yna, pildiroq!

Hojixonajina sheriklariga o‘rnak ko‘rsatib, charchoq nimaligini bilmay, jangni davom ettiraverdi. U, yo‘liga ko‘ndalang bo‘lganlarni osmonga parrakdek ko‘tarib, bexosdan tashlab yuborar, dushmanlar yerga «viq» etib tushib, sulayib qolardi.

Qizqo‘rg‘on hademay qo‘lga kiradi deb chetdagи do‘nglikda sevinib turgan Qahratoniya lashkarboshisi maydonda qandaydir sirli to‘zonlar paydo bo‘lgach, ish chappasiga keta boshlaganidan qattiq tashvishga tushdi. Talvasada qolgan askarlarning ko‘nglini ko‘tarish, eng muhimi – Sepkilshohga o‘zini ko‘rsatib qo‘yish niyatida janggohga qarab ot soldi. «Mana, yonlaringga yetib keldim, endi ishlar yurishib ketadi. Men umrimda yengilmaganman, yengilmayman. Hammang orqamdan ergash! Changdan qo‘rqma, tentaklar! Qo‘rqoqlarni dorga osaman!» – deb jangchilarni Qizqo‘rg‘on sari boshlashga urindi. Biroq, atrofiga oltmisht-etmisht kishi yig‘ilib-yig‘ilmay, u ham quyunning qo‘liga tushdi. Hojixonajina guv-guvlab kulib, uni otidan oshqovoqdek yulib, o‘zini havoda chirpiratib, guldor chakmonini bayroqdek hilpiratib, orqaga surgilab ketdi.

- Bizni tashlab qayoqqa ketyapsiz, xo‘jayin? – deb qichqirdi kimdir.
- Shundan keyin tevarakni shovqin-suron qopladi:
- Lashkarboshimiz uchib yuribdi, hahov!
- Qasrga qarab qochyapti xumpar!
- Kattalar shumaqa, doim o‘zini o‘ylaydi.
- Bizga ot yetishmaydi, xo‘jayinlarga hatto varrak topiladi.
- Hov, mijg‘ovlar! Bosh omonligida qochvor endi!

Sepkilshohning yana omadi ketdi. Qanchadan-qancha o‘lkani bo‘rondek paypaslab o‘tgan talonchi lashkari bir hovuch iprindiga bas kelolmay, uning ko‘zi oldida tum-taraqay bo‘lib qocha boshladi.

* * *

Bu kungi yutuq Meshpolvonning qo‘mondonlik shuhratini o‘n chandon oshirib yubordi. Jang tugagan zahotiyoy qizlar uni o‘rab olishib, jovur-juvur qilganlaricha, g‘alaba bilan qutlay ketishdi.

– Bo‘ldi endi, qizlar, meni xijolat qilmanglar, – deya odatiga ko‘ra kamtarona maqtanishni boshladi u. – Men kallani ishlatib, to‘g‘ri buyruq berib turdim, xolos. Ko‘proq og‘irlik askarlarimga tushdi. Ulargayam rahmat-pahmat deb qo‘yinglar, bechoralar sal xursand bo‘lishsin, ertagayam yaxshiroq jang qilishsin.

Sheriklari kiyim-boshini, cho‘zma-toshini tartibga keltirib, yuvinib-taranib, o‘ziga qaranib olgunicha Meshpolvon ancha mahal tilini vaqillatib, qizlarni laqillatib o‘tirdi.

– Juda qiziq bo‘ldi-ku, – deb osmonga diqqat bilan tikildi u. – Qora papoqlilardan uchtasini tepaga otvorgan edim. Ikkitasi qaytib tushdi-yu, bittasidan haliyam darak yo‘q. Bulutga ilinib qoldimikan?

– Oshiqbolayam zo‘r urishdi, – dedi qizlardan birovi. – Bunaqa qilichvoz dunyoda bitta, to‘g‘rimi?
– To‘g‘ri! – deb kerildi Meshpolvon. – Bunaqasi ikkita bo‘lishi mumkinmas. Chunki, Oshiqboladan boshqa shogird chiqarmaganman.

Bu gapdan keyin unga ustma-ust savol yog‘ilaverdi.

– Voy, hali ustozi sizmisiz?

– Bo‘lmasam-chi, ie! Go‘ro‘g‘li bobo uni to‘g‘ri Oltiariqqa boshlab borib, shu bolapaqirni menga odam qilib berasan, Meshpolvon, dedi. Avvaliga ko‘nmadim. Bunga sabab shuki, malla jodugarni yuz kunlik olishuvda yengib kelib, juda charchab turuvdim. Shunda Go‘ro‘g‘li bobo «er yuzida bor-yo‘g‘i ikkita pahlavon qolgan bo‘lsag-u, bir-birimizga mehr-oqibat shumi», deb zarda qildi. Qarasam, qirqta yigit minan dunyoni oladigan zot mendan xafa bo‘lib ketadigan. Noiloj rozilik berdim.

– Shunaqa usta bo‘lsangiz, nega o‘zingizda qilich yo‘q?

– Qilich askarlarga beriladi. Qo‘mondonning quroli – o‘qlov.

– Askarlaringiz bunchayam oz?

– Kam bo‘lishsayam, bari o‘zimga o‘xshagan ustamon, hammasini pishiq qilib chiqarganman. Masalan, Rayhon tog‘alaringga cho‘zma otishni rosa uch yil o‘rgatdim. O‘zi bir landavur kishi edi, karvonsaroyning darvozasini sakkiz qadamdan zo‘rga urardi. Bir yildan keyin toshni odamga tekkizadigan bo‘ldi, ikkinchi yili kalladan mo‘ljal olishni o‘rgatdim, uchinchi yili burunga soladigan darajaga yetdi. Lekin, haliyam oz-moz xomligi bor, yonida aniq-ravshan buyruq berib turmasam, ba’zan burunni quloq bilan adashtirib qo‘yadi... Ha endi, Rayhon tog‘alaring hartugur esli-hushli odam, hammadan ham sayoq lo‘lini usta tuppakchi qilganimga qoyil denglar.

Qizlardan biri qitmirona boqib so‘radi:

– Shunday yuqori tabaqali odam nega cho‘loq eshakda yuribsiz?

– Kap-katta qizdan chiqqan gapni qarang! – deb achchig‘landi Meshpolvon. – Menga o‘xshaganlar bor joyda sal o‘ylab gapirish kerak. Birlamchidan, paskash eshak qayoqda-yu, zotdor xachir qayoqda. Ikkilamchidan, bu dovyurak xachirimni Rustam-dostonning samanigayam almashtirmayman. Chunki, u qirq boshli ajdarho minan jang qilayotganimda yaralangan.

- Ajdar dumida tuyog‘iga urgandir-da?
- Be, nimalar deb aljirayapsizlar? Qochib ketmasin deb ajdarhoning dumini bilagimga o‘rab olgan bo‘lsam, qanaqa qilib tuyoqqa urarkan? Ajdarhoda yetmishtagacha bosh bo‘lishi mumkin, lekin dumitittaligicha qolaveradi. Soddalik ham evi bilan-da, qizlar.
- Ha bo‘pti, nima bo‘lganini o‘zingiz aytaqoling.
- Xullasi kalom, qirq boshli ajdarho minan surunkasiga yetti oy-u yetti kun uxlamasdan jang qildim...
- Ovqat-chi? Qorningiz ochmadimi?
- Men sizlarga aytsam, battol ajdarhoning yigirmata boshi tinimsiz suv sepsa, qolgani lovullatib o‘t purkab turarkan. Sochgan suvidan dengiz paydo bo‘lib, suzib yurib urishdim. O‘t purkagan vaqtida xachir ikkalamiz suvga sho‘ng‘ib-sho‘ng‘ib turdik. Bir mahal qarasam, tepadan o‘tayotgan parrandalar kabobga aylanib, dengizda qalashib yotibdi. Jang o‘rtasida ajdarhoning ko‘zini shamg‘alat qilib, goh o‘rdak, goh loyxo‘rakni shamshirda ilib yeyaverdim. Bundan tashqari, suvga sho‘ng‘iganimda, ba‘zan og‘zimga baliqlar to‘g‘ri kelib qolardi. Nihoyat, yettinchi oyning yettinchi kunida ajdarhoda ikkitagina kalla qoldi. Endi o‘t purkashgayam, suv sepishgayam madori yetmay, tipirchilab bo‘kirishga tushdi. Dengiz ham o‘z-o‘zidan singib ketdi deng...

– Keyin-chi? Keyin nima bo‘ldi? – deb jovillashdi qizlar.

Meshpolvon xiyol qovoq uyib dedi:

- Keyin yomon bo‘ldi. O‘ttiz to‘qqizinchi kalla bilan olishayotganimda, qirqinchisi nomardlik qilib, xachirimning boldiridan kirt tishlab oldi. Men unisini tinchitgunimcha, xachirim bunisini allaqachon g‘ajib o‘ldiribdi... E, yo‘q! Bunaqa qahramon hayvonni mingta qorabayirgayam almashtirmayman.

– Endi ajinalardan gapirib bering. Ularni qanaqasiga askar qilvoldingiz?

– E, qo‘ysalaring-chi, qizlar. Yana xijolat bo‘lyapman.

– Keling, endi, gapirib beraqoling. Juda qiziqyapmiz.

- Ha, mayli, gaplaring yerda qolmasin... Shu desangiz, buyoqqa kelayotib, pistak kampirga yo‘liqdik. Bizni sehrlab, chuqur jarga qamab tashladi. O‘zimiz nima ahvolda-yu, kechqurun oldimizda uch ko‘zli cho‘chqa paydo bo‘lib: «Mana shu jardagi ajinalarga boshliqman, yaxshilikcha mendan qo‘rqishlaring kerak», deb xiralik qilaverdi. U desam bo‘lmadi, bu desam bo‘lmadi, oxiri tumshug‘iga qaratib tepvordim. Ana endi to‘polondan so‘rang: u to‘satdan echkiga aylandi, shoxini bigizlab ko‘kragimga sakradi. Xayriyatki epchilman, uni havoda ilib olib, chotimga qistirdim, dikkaygan dumini uyoqqa eshdim, buyoqqa eshdim, rosa qiy nadim. Avvaliga «me-e, me-e», deb baqirgan bo‘lsa, keyin odamzodga o‘xshab, «voy-ey, voy jonim-ey», deyishga tushdi. Endi ta‘zirini yegandir deb chetga irg‘itsam, «shuv» etib osmonga ko‘tarildi, tuyadek kattakon burgutning tusiga kirdi. Tikkalab kelib boshimni cho‘qib o‘tdi, qiyalab kelib boshimni cho‘qib o‘tdi, indamasam, chapyani pachoq qiladigan. Chapyan sinadigan bo‘lsa, unda ish tamom, dunyoda yalangbosh yurishdan chatog‘i yo‘q. Uchinchi cho‘qib o‘tishida qonim qaynab ketdi, orqasidan quvib chiqib, kekirdagidan changalladim...

– Ie, uchishni bilarkansiz-da? – deb so‘radi Oytumor.

Meshpolvonning ko‘zi g‘ildirab do‘rilladi:

- Qanaqa uchish?
- Burgutni quvib chiqdim deyapsiz-ku.
- Ha, umi? To‘g‘ri, o‘shanda uchganman!
- Tez-tez uchib turasizmi?
- Yo‘q. Kamdan-kam uchaman. Asosan yerda yuraman.
- Hoy, Oytumor, hadeb gapni bo‘lavermagin, keyin nima bo‘lganini eshitaylik, – deya dugonasini tergashti qizlar.
- Keyin burgut ikkalamiz gupira-gup yerga ag‘anadik, – deb mardona qiyofada so‘zini davom ettirdi Meshpolvon, – uning yarim patini yulib bo‘lgan vaqtimda, potirlab qo‘limdan chiqib ketdi. Shu

zahoti eshakka aylanib, shartta orqasini o‘girdi. Hammaga ma’lumki, olamdagi eng xavfli hayvon – odamga teskari turgan eshak. U bir shataloq otib, jag‘imga tepdi. Jag‘imdagi manavi chandiqni ko‘ryapsizlarmi, qizlar? Tirik qolganimga qoyilmisiz?

– Hartugur, o‘lmasangiz ham, hushdan ketgandirsiz?

– Yo‘q, qizlar, kallamga o‘z vaqtida to‘g‘ri topshiriq berib, hushimni ketkizmadim. Belimdagi chilvirni oldim-u, uchini sirtmoq qilib, bir otishda eshakning oldingi oyog‘ini orqadagisiga chirmadim. Bo‘yniga tosh osib qo‘yganidan keyin qilt etolmay qoldi. «Bugundan boshlab qulingman, askarlarimniyam senga berdim, meni qo‘yvor», deb elanishga tushdi.

– Sheriklaringiz yoningizdamidi?

– Yonimda desam ham bo‘laveradi. Harqalay, uzoqqa ketishmagan ekan. Qarasam, Oshiqbola minan Rayhon tog‘angiz terakning uchida o‘tirishibdi. Uyoq-buyoqqa ovoz qilganidan keyin, Chumakovoy yumronqoziqning inidan emaklab chiqdi...

Davraga oldiniga Oshiqbola, sal o‘tgach, Chumakovoy bilan Rayhon qiziq kelib qo‘shildi-yu, Meshpolvonning sarguzashtlariga bag‘ishlangan gurungdan fayz ketdi. Qo‘mondon birdan jiddiylashib, «endi g‘idi-bidisiz ovqatlanib olaylik», deb farmon qildi...

E, bolasi tushmagurlar-a! Zap g‘alati kitobxonlarga uchradim-da. Boya aytuvdim-ku menga xalaqit bermay turinglar deb. Yana o‘sha ahvol – mana endi: «Meshpolvon olijanob maqsad bilan yo‘lga chiqqan bo‘lsa-yu, ovqatxo‘rligiyam mayli, lekin namuncha yolg‘onni ko‘p gapiradi?» – deb so‘rayapsiz.

Insof bilan aytganda, ochofatlik ham, to‘qib so‘zlash ham bo‘lmag‘ur narsa. Ayniqsa, yolg‘onni hamma yomon ko‘radi. Ammo, aldoqchilikning atrofdagilar uchun xatarlisi bor, xatarsizi bor, ba’zilari zararli, ba’zilari bezarar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Meshpolvondan ortiqcha o‘pkalashimizning hojati yo‘q deb o‘yayman. Qolaversa, o‘zingiz yuqorida aytganingizdek, uning maqsadi ezgu, yuragi toza. Aynan mana shu ikki narsa Meshpolvonning istarasini mengayam, sizgayam issiq ko‘rsatib, kamchiliklarini xaspo‘shlab turgan bo‘lsa, ajabmas...

* * *

Hojixonajina Sepkilshoh qasridan ancha kech qaytib, ko‘rgan-eshitganlarini davradagilarga kula-kula hikoya qilib berdi.

Uning aytishiga qaraganda, ertangi jang rejasi uyoqda qolib, Sepkilshoh va arboblar lashkarboshini rosa qisuvga olishibdi.

- Askarlarning ko‘zini lo‘q qilib, varrakda qochganing nimasi? – deya darg‘azab so‘rabdi Sepkilshoh.

– Nega qocharman? Qochganim yo‘q!

– Axal! Demak, shunchaki yallo qilib uchgansan. Bundan chiqdiki, sultanatimizga azaldan dushmansan, askarlarni ataylab yo‘ldan urgansan.

– Varrak qani? Uni qaerga yashirding? – debdi qopgudek bo‘lib vazir.

– Qanaqa varrak? Hech qanaqa varrakni bilmayman. Boshimni aylantirmanglar.

Endi nozirlardan biri pismiqlanib gap qistiribdi:

– Chunonchi varrakda uchmagan ekanlar, unda qanotlarini ko‘rsatsalar bir tabriklab qo‘yardik.

– Podshohi a’zamdek oliy zot yerda turganlarida, lashkarboshiga osmonda balo bormi? – debdi ikkinchi nozir.

Bu gapdan keyin Sepkilshoh yanada sergaklanib, jag‘i kaptiga yo‘rgaklanib, masalani ko‘ndalangiga burib yuboribdi:

– Xo‘sh, qanaqa jazo beramiz bunga?

– Qopga solib, daraxtga ilib qo‘yamiz, – debdi vazir.

Nozirlar ham har xil takliflar kiritishibdi:

- Tirigicha yerga ko‘mib, ustiga eshakolma ekish kerak.
- Yaxshisi, qorni paqillab yorilguncha yuvindi ichkizaylik.

– Menimcha, kallasini tandirga tiqib, buyog‘ini itlarga talatgan durust.

Sepkilshoh o‘z arboblarining gapini jim eshitib bo‘lib, kutilmaganda ularga dag‘dag‘a qila ketibdi:

– Bittangdayam insof yo‘q ekan! Nima bo‘lgandayam, lashkarboshi bizga ko‘p xizmatlar qildi, ba’zida jasorat-pasorat ko‘rsatdi. Eng muhimi – hammamizga ulfat bo‘lib, tez-tez ziyofat berib turdi. Endi uni ko‘pchilikning oldida sharmanda qilib jazolashimiz yaxshimi? Birontangda odamgarchilik degan narsa qolmabdi. – Shundan keyin u picha tundlanib turgach, mehribonona ovozda o‘z taklifini ayтибди. – Kelinglar, adashgan do‘stimizni shu yerda urib o‘ldiraylik.

Hayotda tez-tez uchrab turadigan, ayni daqiqada esa Sepkilshoh qasrida yuz bergen bu holatni shundoq izohlash mumkin:

Do‘stimizni xor qilmaylik,
Jallodlarga zor qilmaylik.
Ko‘nglimizni tor qilmaylik –
Tepkilaylik o‘zimiz.

Do‘sti borlar chetda o‘lmas,
Begonadan jafo ko‘rmas.
Bundan ortiq yordam bo‘lmas –
Tepkilaylik o‘zimiz.

To‘planishib do‘stlar bunda,
Topdik gunoh bor deb unda.
Asqotaylik og‘ir kunda –
Tepkilaylik o‘zimiz.

Urinmaylik oqlash uchun,
Do‘stni omon saqlash uchun.
O‘ligiga yig‘lash uchun –
Tepkilaylik o‘zimiz.

Sepkilshohning taklifini eshitgan vazir: «Olamga kelib, bunday insonparvarlikni ko‘rmaganman», deya masxaraomuz lab himarib, asta yeng shimarib, olatasirga shaylanibdi. Boshqa arboblar ham hukmdorning karami beqiyosligiga ofarinlar aytishib, lashkarboshini qurshovga ola boshlashibdi.

Shunda lashkarboshi o‘zini Sepkilshohning oyog‘iga tashlab, yalina ketibdi:

– Men surbetni kechiring, xoqonim, bundan buyog‘iga sizdan beruxsat uchmayman. Shaytonning gapiga kirib, bir yuzsizlik qildim. Mana ko‘rasiz, to‘rttala g‘alayonchi ertalab qo‘lingizda bo‘ladi. Bir to‘p askarim ikki kundan beri Qizqo‘rg‘on tomonga lahim kavlayapti. Yerning tagidan kirib borib, hamma g‘alayonchini asirga olamiz. Bir qoshiq qonimdan keching, xoqonim!

Lashkarboshining bu gapidan so‘ng, Sepkilshoh ancha shashtidan tushibdi...

Meshpolvon Hojixonajinaning so‘zini bo‘lib: «Qanaqa lahimni gapiryapsan?» – deb so‘radi.

– Lahim allaqachon tayyor bo‘lgan, – dedi Hojixonajina. – Dushman hademay tumshug‘ingning tagidan chiqib keladi.

Meshpolvonning yuragi hovliqdi:

– Qaerdan kavlashibdi?

– Vahima ko‘tarma, oshnalarim qo‘riqlab turishibdi, – deya xotirjam javob qildi Hojixonajina. – Lahim qazishni chakalakdan boshlashgan ekan. Oshxonamizning orqasidan teshib chiqishibdi.

Hammasini ko'rib keldim.

– Hay, endi nima qildik? – deb atrofdagilarga ko'z yugurtdi Chumakovoy.

– Nima qillardik? – dedi Rayhon qiziq. – Begona kalla ko'rinsayoq, sen ko'ziga chapillatasan, men burniga po'killataman.

Hojixonajina yo'l-yo'lakay o'ziga-o'zi telbadek so'ylab, ajabtovur bir hiyla o'ylab qo'ygan edi. Hozir shuni aytib, o'rtoqlariga maslahat soldi. Uning fikri, qo'mondonning ayrim tuzatishlaridan keyin, ma'qul deb topildi.

Bir payt Meshpolvon: «Hov, qizlar, qog'oz-qalam opkelinglar», deb qoldi. Qizlar aytilgan narsalarni keltirishgach, «bularni Oshiqbolaga beringlar», dedi.

To'rtala o'chkor ichida savodi puxtarog'i Oshiqbola edi, shu bois u qog'oz-qalamni indamay qo'lga olib, qo'mondonning og'ziga tikildi.

– Yoz, oshnaginam, – dedi Meshpolvon. – Qahratoniyani kir oyog'ida ezib, qo'ni-qo'shnilar niyam tinchini buzib yotgan ashaddiy bo'zaxo'r, tug'ma maraz Sepkilshohga yuz yoqqa dong'i ketgan dahshatli Meshpolvondan ogohlantiruvchi xat, deb sarlavha qo'y. Yozdingmi, oshna? Rahmat senga, kam bo'lma.

Shundan so'ng u jahongir qiyofasiga kirib, dabdaba bilan bidirlab turaverdi, kotibi hirninglab-hirninglab yozaverdi:

«Ey, Sepkilshoh! Marazliging shundan iboratki, ko'p odamning rizqini qiyib, og'zidagini ilib ketding. Seni davringda itlarga omon-omon bo'lib, odamlar zanjirga boylandi. Hamma sendan xafa. Chekkaroqda qo'lga tushsang, rosa tepishsa kerak. Bu kuningdan o'lganining yaxshi.

Lekin, ochiq aytganda, haliyam kechmas, taxtni yaxshilikcha bo'shatib qo'y. O'z ixtiyorning minan jo'nasang, biz ham orqangdan quvib o'tirmaymiz. Askarlarning uvoliga qolma, baribir kuning bitdi. O'rningda esliroq odam bo'lganda, ism-u sharifimni eshitgan zahoti mushukni minib qochardi.

Xullas, izzatingni borida gumdon bo'l. Senga men minan askarlarim oq yo'l tilab qolamiz».

Xat yozib bo'lingach, bekach xotinni qamoqdan bo'shatishib, nomani qo'liga tutqazishdi. «Qasrdan chiqib, to'g'ri qibлага yurasan, boriboq xatni Sepkilshohga berasan», deb qo'yib yuborishdi.

Shundan so'ng Meshpolvon ertangi jang oldidan to'yib uxbab olishsin deb soqchi va qizlarning hordiq chiqarishiga ruxsat berdi. Yana birozdan keyin ajinalarni soqchilikka qoldirib, to'rtala o'chkor ham uxlagni yotishdi.

Odatda eng sergak odam ham yarim kecha bilan sahar mardon oralig'ida qotib uxbab qoladi. Lashkarboshi o'z rejasini xuddi ana shu mahalda amalga oshirishni mo'ljallagan edi.

Uning fikricha, bu ishga ajratilgan askarlarning yarmi lahimdan o'tib borib, g'aflatdagi mudofaachilar ustiga yopirilishi, bu orada bir qismi qo'rg'on darvozasini ochib yuborishi lozim edi. Darvoza ortida kutib turganlar ichkariga bosib kirgandan keyin g'alayonchilarning asir tushishdan boshqa iloji qolmasdi. Uyqusirab turib, bunday jips qurshovni yorishga urinish o'limga borish degan gap edi.

Chakalakzordagi qora papoqlilar lahimga kira boshlagani haqida soqchi ajinalardan biri xabar keltirgach, Hojixonajina darhol to'rtala o'chkorni uyg'otdi. Ular pana joylarga pisib olishib, chigirkalar yallasiga qulq solishib, tek yotishaverdi.

Nihoyat, sharpa eshitilib, lahimdan qop-qora papoq, papoq ostidan ikki juft ko'z-qulq, yo burun yo nosqovoq, mo'ylovga ko'milgan og'iz, hiqildog'-u bo'g'iz balqib, chalafahm bir kalla atrofga olazarak jalangladi. So'ng qo'rqlmay chiqaveringlar degandek pastdagilarga imo qildi.

Oshxonaning orqasidagi maydoncha zum o'tmay askarga to'lib ketdi.

Hammasi yig'ilib bo'lgandan keyin, yarmi yotoqxona tomon, yarmi darvoza sari yurishga chog'langan ham ediki, Hojixonajinaning arslon qiyofasiga kirib olgan gala-gala sheriklari ularni to'rt tarafdan o'rab, ko'zlarini bir botmondan go'sht so'rab, irillaganicha yaqin kelishaverdi. Askarlar chumchuq bo'lib tug'ilmagandan ming afsuslanib, tarashadek qotib qolishdi.

– Qimirlaganing arslonga yem bo'lasan! – deb hayqirdi Oshiqbola. – Qani, hammang darvozaga

qarab yur-chi.

Qora papoqlilar bedanasimon pitirlashib, past ovozda g‘udirlashib, oyoqlari chalishib, bir-biridan yurak qarz olishib, darvoza yoqqa odimlashdi. Chumakovoy Rayhon qiziqqa yuzlanib: «Voy ahmoqlar! Buni ko‘ringki, tutunga o‘xshagan arslonlardan qo‘rqishadi», dab bandilarni ermakladi.

Qora papoqlilar qo‘shqanot darvozali baland ravotning oldiga haydab keltirilgach, Oshiqbola ularga qarab dedi:

– Bizga asirlarning keragi yo‘q. Hozir darvozani ochib, hammangizni qo‘yvoramiz. Ammo, shu shart bilanki, eng orqada qolgan besh kishi tutib olinib, arslonlarga beriladi.

Bu gapdan keyin nomi bandi bo‘lsa oldingi qatorga o‘tishga oshiqib, safda janjal boshlandi:

– Hey, laycha, qayoqqa suqulyapsan? Bo‘yingga qarab qatorda tur.

– Bu yerda bo‘y-mo‘y degan narsa ketmaydi. Qoch deyapman, bo‘lmasa qo‘lingni tishlab olaman.

– Ie, endi bunisi kelyapti-ku. Yo‘qol joyingga! Nima, jon bitta senga kerakmi?

– Ke, oshnajon, meniyam o‘tkizvor. Mayli, manavi pulni olgin.

– Pulni nima qilaman? Puli ko‘pni arslon yemay qo‘yarkanmi?

Meshpolvon bu vaqtida ravot tepasidagi supaga gerdayganicha chiqib borib, biqiniga qo‘l tiradi. Qizqo‘rg‘on tashqarisida hakkadek hushyor turgan qora papoqlilar tun quyuq bo‘lgani uchun uni yaxshi ilg‘ay olmay, yuqoriga sinchiklab tikilishdi.

– Battollarning yarmi buyoqda ekan-ku, – deya ravot supasini titratib qichqirdi Meshpolvon. – Bitta qo‘ymasdan qirib tashlansin! Olg‘a, askarlarim! Hayuv-v!!!

U shunday deb baqirgan zahoti, ichkaridagilar darvozani ochib yuborishdi. Arslon changalidan qochayotganlar qiy-chuv bilan otilib chiqib, tashqaridagi sheriklarining ustiga yopirilishdi.

Qo‘rg‘on tashqarisidagi qora papoqlilar bir lahma esankirab turishdi – dushmanda shuncha askar bor deb o‘ylashmagan edi. «Dushman» ana-managa qaramay yaqinlashib kelavergach, apil-tapil qilich sug‘urib, nihoyat jangga tashlanishdi.

Zimistonda qiy-pichoq boshlandi. Qilichlarning jarangi-yu qalqonlarning darangi yaradorlar oh-vohiga qo‘shilib, yer-u ko‘kni vahima qopladi. Ikki taraf beto‘xtov olishib, yonidagining ismini so‘ramay solishib, bir-birining qonini yalashib, itdek talashib, ertalabgacha yoqalashishdi. Tong yorisha boshlaganda mundoq qarashsa, omon qolgan besh-o‘n kishi ham, maydonda cho‘zilib yotganlar ham yoppasiga qora papoqlilar. Bizni toza laqillatishibdi deb, sochlarini yulgudek bo‘lishdi.

Bu xabar ko‘p o‘tmay, Sepkilshohning qulog‘iga yetib bordi. Bekach xotin keltirgan xatdagi haqoratomuz po‘pisalardan tomirida qoni shovullab, badani pilikdek lovullab turgan podshoh keyingi xabarni eshitib, qahri qirq gazga sachradi. Xatda yozilganidan tashqari, Meshpolvonning: «Poshshongga uqtirib qo‘y, bironta taqachiga shogird tushib, yaxshilikcha tirikchilik qilib yuraversin», deb bekach xotindan aytib yuborgan gapi miyasini qayta zing‘illatib o‘tgandek bo‘ldi.

Bundan bir necha kun oldin zoti tayinsiz to‘rt iprindiga qarshi ikki yuzta askar yuborishniyam o‘ziga ep ko‘rmagandi. Endi esa bir narsani tushunib yetdi – o‘sha iprindilar bilan bo‘layotgan olishuvlar toj-taxt taqdirini jar yoqasiga tobora yaqinroq sudrayotgan edi.

* * *

Hayot-mamot kurashi ertalabdanoq qizib ketdi. Sepkilshoh borliq suvori-yu sarbozi, kamonchi-yu nayzaboz, yasovul-u bakovuli, itboqar-u qorovuligacha qoldirmay maydonga tashladi.

Dushman bu gal juda katta kuch bilan hujumga o‘tgach, kecha havasga jang qilib yurgan, uchraganni qiziqchilikka ko‘tarib urgan shovvoz quyunlar ham behisob qora papoqlilar qarshisida birmuncha ojizlanib qolishdi. Endi Qizqo‘rg‘on atrofidan nari ketolmay, ming-minglab chumolilardek devorga izma-iz tirmashayotganlarni yulqib yiqitishga bazo‘r yarab turishdi.

Meshpolvon o‘qlovini mohir dutorchidek satanglanib tutamlaganicha qo‘rg‘on devori bo‘ylab aylanib yurar, goh sheriklariga, goh fidoyi soqchilarga kuyunchak qiyofada yo‘l-yo‘riqlar berar, uning

bu qilig‘i negadir hech kimning jig‘iga tegmas, aksincha, hammaning ko‘nglini ko‘tarayotgandek edi.

– Hov, Chumakovoy, o‘jni ayama! Qalampirni ko‘proq qo‘sh!

– Yashang, otaginiam! Kam bo‘lmang! Burun ikkala ko‘zning o‘rtasida turishi esdan chiqmasin.

– Bo‘sh kelmanglar, soqchilarim! Nayzani mahkamroq ushlanglar. Qasamni buzgan odam moxov bo‘ladi.

– Vey, Oshiqbola, ko‘kragingni ochmasang-chi! Qo‘lingdagi qalqonni nimaga berganmiz? O‘lsang, bobongdan baloga qolaman-a!

Meshpolvon shu alfovoda qilich o‘rniga tilini qayrab, folchining to‘tiqushidek sayrab, askarlariga dalda berib yuraverdi. Ora-sira, o‘ng kelib qolganda, devordan endigina bo‘y ko‘rsatgan biron-bir dushmanning kallasiga qaratib o‘qlov bilan urib ham turdi. To‘polonda qay birovi Hojixonajina-yu, qysi biri uning sherigi ekanini ajratolmay, duch kelgan quyunga: «Balli, Hojixon! Narigi shotilarniyam shunaqa qilib esh. Kim devorga tirmashsa, qulog‘idan cho‘z», deb baqirib qo‘yardi.

Qizqo‘rg‘onni makon etib,
Devorini qalqon etib,
Kular, yovni yakson etib
Meshpolvonning askarlari.

Yirtqichligi qo‘zib yana,
Dushman kelar to‘zib yana,
Yayrar quloq cho‘zib yana
Meshpolvonning askarlari.

Yov xomaki reja tuzar,
Devorlardan qopdek uchar,
Qilich urib raqs tushar
Meshpolvonning askarlari.

G‘animlar och ko‘ppak bo‘lib,
Kelsa qora telpak bo‘lib,
Ko‘zdan urar tuppak bo‘lib
Meshpolvonning askarlari.

Dushman kelar, toqat qilmas,
Tinch yashashni odat qilmas,
Burunlarga shafqat qilmas
Meshpolvonning askarlari.

Ko‘pmiz deb yov erkelaydi,
Narvonlarin yelkalaydi,
Nayza sanchib tilkalaydi
Meshpolvonning askarlari.

Goh osmonni o‘rab uvlar,
Narvonlarni burab uvlar,
Yovni qordek kurab uvlar
Meshpolvonning askarlari.

Yangratib to‘rt tomonlarni,
Kuylaydi hur zamonlarni,
Yomon ko‘rar yomonlarni
Meshpolvonning askarlari.

Bayroqlari chidam bo‘lsin,
Xalqqa doim hamdam bo‘lsin,
Baxtimizga bardam bo‘lsin
Meshpolvonning askarlari.

Lashkarboshi Sepkilshohning kechagi ishonchini oqlash, lahimdagi bugungi sharmandalikning dog‘ini yuvishni diliga tugib qo‘ygan edi. Lashkari aridek to‘zib, Qizqo‘rg‘ondagilarni behad shoshtirayotganida, o‘zini tutib turolmadi – Sepkilshoh durbindan kuzatayotgan joyni mo‘ljallab, tapira-tupir ot yeldirganicha janggohga kirib bordi. Har qachongidek og‘iz ko‘pirtirib: «Ko‘zingni och, oshqovoqlar, bu yerda men turibman», deya vag‘ir-vug‘urni avj oldirgan ediki, Hojixonajina bu safar ham uni egardan uzib, osmoni falakka sudrab ketdi. Qo‘rg‘on atrofida uchinchi marta aylantirib chiqayotganda, qora papoqlilardan biri: «Osmonga qaranglar, osmonga!» – deb baqirdi.

- Ie, lashkarboshimiz tag‘in uchibdi-da?
- Obbo, noinsof-ey! Bizni o‘limga tashlab, o‘zi varrakda o‘ynab yuribdi.
- Bular poshshoga erkatoy. Kun tug‘sayam, shularga tug‘adi.
- Shunaqa varraklarni bizga berishsa, qo‘rg‘onni osongina olardik.

Hammaning ko‘zi osmonga qadalgan pallada Hojixonajina lashkarboshining qizil shalvarini pufakdek shishirganicha Qizqo‘rg‘ondan uzoqlashtirib olib qocha boshladi. Askarlar beixtiyor uning ketidan ergashib, yoppasiga chekinishga tushishdi.

– Qayt, molfaqlar! Buyoqda pishirib qo‘yibdimi? – deya Sepkilshoh otta kelib ularning yo‘lini to‘sdi.

Qora papoqli askarlar: «Bizda nima ayb? Tartibga ko‘ra, lashkarboshining orqasidan ketyapmiz», deb javob qilishdi.

- Lashkarboshingiz haddan oshyapti, hazratim, – deya Sepkilshohga dimog‘ida shipshitdi nozirlardan biri.
- Qurtga to‘yan qizilishtondek tepangizda bezrayib aylanishini qarang, – dedi ikkinchisi.
- Vazirning gapi yanada keskinroq chiqdi:
- Yuzingizga oyoq qo‘yib ikkinchi marta uchgan ekan, endi bu qasamxo‘r tirigicha yerga tushmaydi.

Sepkilshohning g‘azabdan peshanasida qoshi aylanib, ko‘zları g‘ilaylanib, labi taqa, lunji baqa bo‘lganicha, havoga laylaklanib qo‘l cho‘zdi:

– Amr-u farmon qilamiz! G‘urrakpadar lashkarboshi mazkur soniyadan iborat xomaki nishon hisoblansin. Uni urib, oyog‘imiz tagiga tushirganga yangi qumg‘on bergaymiz.

Shu topdayoq yuzlab kamon osmonga qaratilib, qora papoqli askarlar o‘z lashkarboshisini bir zumda tipratikonga aylantirishdi.

Narvonchi-yu kamonchilar sal o‘zlariga kelib olgunlaricha, Sepkilshoh palahmonlarni ishga soldi.

- Tashvishlanmanglar, chiyabo‘rilarim, – deb askarlarining yuragiga o‘t tashlashga urindi u. – Hozir qo‘rg‘on devorini buzib beraman. Ichkariga sayildagidek bemalol kirib borasizlar.

– Sepkilshoh hazratlariga qulluq qilinglar, – deya askarlarga yuzlandi birinchi nozir. – Sizlarga yengil bo‘lsin deb, qimmatbaho palahmonlarni qudirib qo‘ydilar.

– Poshshomizda tillolar ko‘p, – dedi ikkinchi nozir. – Mardonavor o‘lganlarni jannatga kiritvorishgayam bemalol kuchlari yetadi.

Vazir ham o‘z navbatida: «Omadizingni sinab ko‘ring! Ishi yurishganlar bugunoq jannatga jo‘nashi

mumkin», deb askarlarga tabrik-tavallo bilan murojaat qildi.

...Sandiqdek-sandiqdek harsang toshlar guvillaganicha uchib kelib, qo'rg'on devorlariga shikast yetkaza boshladi. Hammayoqni to'zon qoplab, qay biri palahmontosh ko'targan chang-u, qay biri quyun ekanini ajratib bo'lmay qoldi. Narigi chetga kelib tekkan tosh qo'rg'onning bu chekkasigacha larzanglatib yuborar, devor hademay nozik shishadek chilparchin bo'lishi hech gap emasdi.

Palahmontoshlardan biri devorning tepe qismiga urilib maydalangan chog'da, mushtdek bo'lagi Meshpolvonning boshiga borib tegdi, chapya sopol tangachalarga aylanib, chor atrofga sochildi. Qo'mondon shovullab qon otilayotgan peshanasini changallab, shalop etib yerga yiqildi.

– Eh-hay, jo'rolar! – deya tomog'i yirtilguday bo'lib qichqirdi Chumakovoy. – Meshpalvonimizni o'ldirib qo'ydilar!

Toshlar yog'ilayotganini ham birdan unutib, hamma o'sha yoqqa qaradi. Picha dong qotib turishgach, yaraga ro'molcha bosayotgan Chumakvoyning yoniga Oshiqbola bilan Rayhon qiziq kelib qo'shildi. Ular qo'mondonni devor orqasidagi zinapoyadan ko'tarib tushishib, mustahkam toshhujra panasida g'uj bo'lib o'tirgan qizlarning oldiga olib borishdi.

Meshpolvonning rangi paxtadek oqarib, oyoq-qo'llari shalvirab, badani butkul sovib ketgan, undan tiriklikning biron-bir alomatini topib bo'lmasdi.

– Ota-onasini ko'rolmasdan ketdi sho'rlik, – deb namlangan kiprigini artdi Rayhon qiziq.

Chumakvoyning esa ko'zidan yosh daryo bo'lib quyilayotgan edi. U, mushtini havoda o'ynatib: «Qora papoqli ana shu sakvachchalar kunini ko'radi hali!» – deganicha tish qayradi.

– Sizlar tashvish tortmanglar, – dedi Oytumor Oshiqbolaga boqib. – Meshpolvonga o'zimiz qaraymiz. Manavi dugonamning otasi tabib bo'lgan, o'ziyam ancha narsani biladi.

To'shak-yostiq olib chiqishib, Meshpolvonni unga avaylab yotqizishdi. Tabib qiz shu zahotiyoy yelib-yugurib ishga kirishdi.

– Ketdik bo'lmasa, – deb sheriklarini yana devor tomonga ergashtirdi Oshiqbola. – Meshpolvon uchun qasos olamiz.

– Qasos olamiz! – deya baland ovozda takrorlashdi Rayhon qiziq bilan Chumakovoy.

Yuqoridagi soqchilarining: «Qasos olamiz! Dahshatli Meshpolvonning o'chini olamiz!» – degan tovushlari qo'rg'on devori bo'ylab zumda aylanib chiqdi.

Palahmontoshlar ulkan qorayaloqlar galasidek uchib kelib yog'ilaverdi. Devor tuya-tuya qilingan qovun tilligi shakliga kirib, ayrim joylari yarim-yorti o'pirilib tushdi. Chumakvoyning miyasida, dushman shu tariqa tosh otaversa, peshinga qolmay dunyodagi tog'lardan bittasi yo'q bo'lib ketadi degan shubha uyg'ondi. Ammo, qaysidir tog'ning kuni bitmagan ekan, ko'p o'tmay palahmonlarning sharaq-shurug'i tinib, toshlarning zuvir-zuviri ham, devorlarning gumbir-gumbiri ham eshitilmay qoldi.

Bu yovvoyi sukunat bir necha daqiqaga cho'zildi xolos. Havoni qoplab olgan changlar hali bosilmay turib, Sepkilshohnning narvonchilari navbatdagi hujumga tashlanishdi.

Qizqo'rg'on qattiq shikastlangani uchun mudofaa qilish yanayam og'irlashib ketdi. Hojixonajina devorning ko'proq buzilgan joylariga to'rt-beshtadan quyunni doimiy birkitib qo'yan bo'lsa ham, qora papoqlilar himoyadagilarga aynan o'sha o'primalarda ko'proq qiyinchilik tug'dirayotgan edi.

O'n chog'lik dushman askari qo'rg'onning yon tarafidan yorib kirib, soqchilar bilan devor ustida jang qila boshladi. Ularning maqsadi devorning nuragan yeridan qo'rg'on ichiga sakrab tushib, darvozani ochib yuborish ekanini payqagan qizlar yana tadbirkorlik ko'rsatishdi – dushman kirib kelmasligi uchun lahim atrofiga baland qilib yoqilgan gulxanlar cho'g'ini tog'ora-yu chelakkarda tashib kelib, nuragan devor ostiga to'kishaverdi.

Soqchilarini ikki yoqqa qisib, shosha-pisha devordan sakragan qora papoqlilar birin-ketin tizza bo'yi cho'g'ga yiqilib, dodlay desa nafasi tiqilib, qaynatma sho'rvadagi go'shtdek irg'ishlab, alamdan o'zini-o'zi tishlab, sal o'tmasdan tagi kuygan qozonkabobga o'xshab qolishdi.

Qizqo'rg'ondagilarning hayoti qil uchida turgan mazkur vaziyatda ham Oshiqbolaning ko'ngli

Oytumorda edi. U, narvondan ko‘tarilayotganlarni ketma-ket qilichdan o‘tkazarkan, cho‘zmasini lag‘monpazning xamiridek betinim cho‘zg‘ilayotgan Rayhon qiziqqa qarab qichqirdi:

– Pastga tushing, otaxon! Qizlarniyam, Meshpolvonniyam qo‘rg‘ondan olib keting. Tayyor lahim turibdi. Tezroq boring, soqchilarning yarmi qirilib bo‘ldi!

Rayhon qiziq cho‘zma otishni hanuz tark etmay: «Hov, bola, sen meni kim deb o‘ylayapsan», deya shang‘illay boshlagan edi, Oshiqbola: «Qizlarning uvoliga qolmang! Keting deyapman!» – deb baqirib berdi. Rayhon qiziq jahl bilan bir depsinib qo‘yib, zinapoya tarafga yurdi.

Jang qizigandan qizib, «urho-ur» avjga minib borayotgandi. Terga botgan soqchilar nayzasini yaltillatib, Chumakvoy ko‘zga shapillatib dushmanga qiron solar, o‘q o‘tmas quyunlar esa narvonlarni burab, qora papoqlilarni domiga o‘rab, maydonda suron solardi.

Oshiqbolaning ham zahmati o‘ziga yetarli edi – bo‘zchining mokkisidek giz-gizlab, u narvon oldidan bu narvon oldiga piz-pizlab, dushmanini gezartirib, qilichini qizartirib, shaytondek jang qilayotgandi. Shu orada halok bo‘lishiga ham oz qoldi – chap tomondagi g‘animni chopib ulgurmay, o‘ngdagи narvondan chiqqan yov askari qulochkashlaganicha orqasidan nayza o‘qtaldi. Biroq, avval charsillagan, so‘ng po‘killagan ovoz eshitildi-yu, nayzaboz burnini tutamlab orqaga ag‘darildi, narvondan ko‘tarilayotgan sheriklariga jonholatda tirmashib, uch-to‘rttasini o‘zi bilan birga pastga tortqilab ketdi.

Oshiqbola Rayhon qiziqning nogahonda yana paydo bo‘lganidan bir achchiqlansa, go‘yo hech kimdan hech qanaqa topshiriq olmagandek bemalol cho‘zma otayotganini ko‘rib, ikki achchiqlandi.

– Qizlar qochmaymiz deb oyoq tirab olishdi, – dedi Rayhon qiziq cho‘zmasiga tosh solayotib. – O‘lsak birga o‘lamiz deyishyapti.

Oshiqbola olishuvni davom ettirarkan, alamnok lab tishladi. Boshida: «Na iloj? Birga o‘lsak – birga-da», degan o‘y chaqnab, ko‘ngli darz ketgandek bo‘ldi.

Lekin, pastdan eshitila boshlagan ham hazin, ham jarangdor qo‘sish qaytadan uning ruhini ko‘tardi, qo‘lidagi oynusxa qilichdan bilagiga daryo-daryo mador oqib kirayotgandek bo‘ldi.

Oytumor esa kuylashda davom etardi:

Mard o‘g‘il bog‘lab belin,
Jonidek asrab elin,
Isfaxon tutgan qo‘lin
Dushmanga jallod qiladi.

Dushmani g‘olib turib,
Qurshasa ortga surib,
Mard o‘g‘il na’ra urib,
Nomardi faryod qiladi.

Bo‘lsa kim zoti tayin,
Tinglamas yovning rayin,
Yov chaqa bergen sayin
Xizmatni bezot qiladi.

Yoqsa o‘ch mard kinchini,
O‘ylamay o‘z tinchini,
Qiyratib bosqinchini,
El-yurtni ozod qiladi...

Hayot bilan o‘limning oralig‘i bir qadamdek ko‘rinayotgan ushbu daqiqada to‘rt tarafdan tartibsiz

bostirib kelayotgan olomon galasi ko‘zga chalindi. Ular g‘ala-g‘ovur bilan jangga kirib, qo‘lida nimaiki bo‘lsa o‘shani ishga solib, yovni biydalay ketishdi.

Sepkilshohning borliq lashkar-u malaylari Qizqo‘rg‘onni zabit etishga yuborilgach, boshvoqsiz qolgan qullar g‘alayon ko‘tarib, endi bir-birini olg‘a itarib, qo‘lga kirgan narsani ushlab, quroli yo‘qlari yovni chapanichasiga mushtblab, maydonga tobora to‘lib borayotgan edi.

Tish-tirnog‘igacha qurollangan qora papoqlilar o‘n minglab juldurvoqilarning tayog‘-u panshaxalaridan qo‘rqib, o‘ng‘ay ko‘ringan tomonga tirqirab qocha boshladi.

Bu – Sepkilshoh ustidan qozonilgan uzil-kesil g‘alaba edi.

* * *

G‘alayonchi qullarning bir qismi Qizqo‘rg‘onga kirib kelib, qahramon mudofaachilar bilan quchoqlasha ketdilar.

O‘lja tushgan qinsiz qilichni changallagan novchagina kishi panadagi qizlarni ko‘rib, «nega bunaqa hurkib turibsizlar», deya ularga yaqinlashdi. Kelgach, to‘sakda cho‘zilib yotgan Meshpolvonga ko‘zi tushib, seskanib ketdi, darhol cho‘kkalab, uning latta bog‘langan boshini asta tizzasiga oldi. Keyin: «Meshpolvon! Ko‘zingni och, o‘g‘lim! Bu menman, dadangman!» – deb qichqirdi, so‘lg‘in betiga yonog‘ini bosdi. «Yuzing buncha sovuq, bolam? Ko‘zingni och!» – dedi.

Yov chiritgan o‘tloq uchun,
Yov quritgan buloq uchun,
Yov iritgan tuproq uchun
Kichik jonинг kerakmidi?

Qonlar tomgan cho‘llar uchun,
Qayirilgan qo‘llar uchun,
To‘siq tushgan yo‘llar uchun
Kichik jonинг kerakmidi?

Xazon bo‘lgan bog‘lar uchun,
Qo‘porilgan tog‘lar uchun,
Yurak-bag‘ri dog‘lar uchun
Kichik jonинг kerakmidi?

Sindirilgan rubob uchun,
Kuydirilgan kitob uchun,
Zindondagi xitob uchun
Kichik jonинг kerakmidi?

So‘lib bitgan gulshan uchun,
Oyoqdagi kishan uchun,
Toptalgan or-u sha’n uchun
Kichik jonинг kerakmidi?

Singan qilich zangi uchun,
Maqbaralar rangi uchun,
Orzu-armon jangi uchun,
Kichik jonинг kerakmidi?

Mozordagi so‘qmoq uchun,
Zulmatdagi chaqmoq uchun,
Yolg‘onlarni yoqmoq uchun
Kichik joning kerakmidi?

Loyqalangan daryo uchun,
Tuzga to‘lgan sahro uchun,
Tahqirlangan dunyo uchun
Kichik joning kerakmidi?

Onaning oq sochi uchun,
Otaning xor kuchi uchun,
Go‘daklarning o‘chi uchun
Kichik joning kerakmidi?

Yaxshilarga shafqat uchun,
Yomonlarga nafrat uchun,
Avlodlarga ibrat uchun
Kichik joning kerakmidi?

Hamma dong qotib turgan bu soniyada Meshpolvon labini sezilar-sezilmas qimirlatib qo‘yib, xiyol ko‘zini ochdi.

– O‘g‘lim! Bolajonim! Tirikmisan? – deb nido qildi dadasi.

Meshpolvon javob berishdan oldin bor kuchini to‘plab, osmonga tupurdi. Tuprigi betiga qaytib tushgach, tirikligiga ishonchi hosil bo‘lib, bemajol shivirladi:

– Dada... dadajonim...

– Ko‘zingni kattaroq och, o‘g‘lim!

– Qo‘rqmang... o‘lmayman...

Shunday dedi-yu, yana kipriklari yumildi.

Dadasi: «O‘lmaysan, o‘g‘ilginam, o‘lmaysan. Sendaqalar ming yildayam o‘lmaydi», deya uni qattiqroq bag‘riga bosdi,sovuj peshanasidan o‘pdi, ko‘zlaridan duvillab yosh quyila boshladи.

Atrofdagi odamlar hanuz jim edi. Qaerdandir yetib kelgan mitti quyun esa, bir-birining pinjiga kirganicha miq etmay turgan ota-bola tegrasida tinimsiz aylanib, ona qushdek bezovta charx uraverdi.

* * *

Qahratoniya yovuz hukmdor zulmidan xalos etilgach, Sepkilshoh tarafdarlari uchun motam, ozodlikka chiqqan qullar uchun bir haftalik bayram boshlandi. Odamlar o‘sha davr taomiliga ko‘ra: «Zoti toj-taxtni ko‘rgan yigtsan, endi bizga bosh bo‘l, Go‘ro‘g‘li boboga o‘zimiz elchi yuborib, seni tilab olamiz», deyishib, Oshiqbolani shu o‘lkaga poshsho qilib saylashdi. Rayhon qiziq unga vazir, Qizqo‘rg‘ondagi jangda mardlik ko‘rsatgan soqchilar sardori lashkarboshi, Chumakovoy xazinabon bo‘ldi.

Ota-onasi va tabib qiz qaroviga topshirilib, qasrdagi xonalardan birida davolanib yotgan Meshpolvon bu yurtda qolishga ko‘nmadi. Atrofini o‘rab o‘tirgan vafodor sheriklariga bir-bir tikilib chiqib: «Yo‘q, men Oltiariqsiz turolmayman, Oltiariq ham mensiz huvillab qoladi», dedi inqillab. So‘ng tokchadagi egizak ilonlarga ovqat tutayotgan xo‘ppa semiz tabib qiz tomonga qiyalab qo‘ygach, dadasiga boqib behol so‘z qotdi:

- Achaxon yetim ekan, uniyam olib ketamiz. To‘g‘rimi, dada?
- Bo‘lmasa-chi, o‘g‘lim. Achaxon endi biznikiga borib yashaydi.
- Rahmat, dada. Kam bo‘lmang...

Mespolvon shu kecha qotib uqlab, kunduzi diliga tugib qo‘yan o‘ylariga mos tush ko‘rib chiqdi. Oshiqbola, Rayhon qiziq, Chumakovoylar Mespolvonnikida mehmon bo‘lib kelish uchun to‘g‘ri Oltiariqqha qarab yo‘l olishibdi. Yonlarida Hojixonajina ham quyunga aylanganicha pildirab borayotganmish. Mespolvonning og‘zidan hanuz o‘sha xirgoyisi uzilmasmish:

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjur yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

Ko‘p yo‘l yurishib, bir kuni tunda Mutual-maynavozning chorbog‘iga yetib borishibdi. Darvozani taqillatishsa, «o‘zim tilamchidan battar kambag‘al odamman, sizlarni mehmon qilolmayman, akang aylangurlar», deb ularni ichkariga kiritmabdi. Sepkilshoh yengilgandan keyin qullar ozodlikka chiqib, Mutual-maynavozdan yerlarni tortib olishgan ekan. Rosa kaltak yegan bu boy shundan so‘ng yakkamoxovga aylanib, chorbog‘ining darvozasini o‘n joydan tambalab yotishga o‘rganibdi.

– Ahmoq! Ochko‘z! – deb achchiqlanibdi Chumakovoy. – Ayamasdan darvozasini ag‘darish kerak. Qahratoniyaga ketishayotganda Mutual-maynavoz ularni qanday mazaxlaganini Rayhon qiziqdan eshitib, Hojixonajinaning ham jahli chiqibdi.

Mespolvon kechasi bilan tuzib chiqqan rejani ertalabdan amalga oshira boshlashibdi. Atrofdan odamlarni to‘plab kelishib, do‘q-po‘pisa bilan darvozani ochdirishibdi.

– Chorbog‘ni yaxshilikcha bo‘shatib qo‘y, – debdi Mespolvon Mutual-maynavozga. – Bir vaqtlar sotqinlik qilgansan, manavi odamlarni qiynagansan. Endi ular minan bitta yurtda yashashingga yo‘l qo‘ymayman, jo‘nab qol!

– O‘zimniyam bu yerda turgim yo‘q, – deb qo‘l qovushtirganicha iljayibdi Mutual-maynavoz. – Koshkiydi bironta serpul odam bobomdan qolgan chorbog‘imni sotib olsa. Shuni ilinjida yuribman, akang aylangurlar.

Oshiqbola: «Bu chorbog‘ qancha turadi o‘zi?» deb so‘ragan ekan, Mutual-maynavoz narxni yuz ming tilloga chiqaribdi.

– Mayli, mana shu guvohlarning oldida yuz ming tilloni sanab beramiz, – debdi Mespolvon. – Qani, Chumakovoy, qopni och.

Go‘yo bir nima qistirgan kabi chap qo‘ltig‘ini shishirib turgan Chumakovoy, pinjidan narsa olayotgandek harakat qilibdi, xiyol egilib qopning og‘zini ochgandek qo‘lini oldinga yoyibdi.

Mespolvon xachiridagi xurjunga saxiylik bilan panja suqib, hovuchini allanarsaga to‘ldirgan tarzda sug‘uribdi-da, donsepish qilib qo‘lini qopga silkishga tutinibdi. Har qo‘l silkitganda, qop ichidan «jarang-jurung» ovozlar eshitilarmish. Bu ovozni Hojixonajina chiqarayotgan ekan.

Oshiqbola guvohlarga qarab: «Jiringlashini eshityapsizlarmi?» deb so‘rabdi. «Eshityapmiz», deyishibdi guvohlar. «Sen-chi?» – deya boyga o‘raygan ekan, kalovlanib turgan Mutual-maynavoz, «eshityapman, eshityapman», deya ta’zim qilibdi.

Shu tariqa Mespolvon yo‘q qopga quruq qo‘lini silkib turaveribdi, boy esa «jarang-jurung» larning kayfini suraveribdi:

- Qirq besh, qirq olti, qirq yetti, qirq sakkiz...

Kun tushlikka yaqinlashibdi hamki, sanoq davom etaveribdi, xachirdagi bo‘sh xurjundan go‘yo baraka ketaveribdi:

– Ellik uch ming bir yuz, ellik uch ming bir yuz bir, ellik uch ming bir yuz ikki, ellik uch ming bir yuz sakkiz...

Mutal-maynavoz birdan potirlab: «E, yo‘q, to‘xtasinlar! Ellik uch ming bir yuz ikkidan keyin birdaniga sakkiz devordilar, bunaqasi ketmaydi», deb jirillabdi.

– Rostdanam adashdimmikan? – debdi Meshpolvon.– «Ikki»ni «etti»ga almashtirib qo‘ydimmikan? Ha, mayli, ketsa mendan ketsin...

Kun qibлага o‘tgandan keyin sanoq yuz mingga yetgach, «qopni egasiga ko‘tartiringlar», deb buyuribdi u.

Oshiqbola bilan Chumakvoy zil-zambil qopni yerdan uzayotgan kabi chiranih harakat qilishibdi, boyning kuragiga bittadan gupillatib musht urishib, yukni ortgan bo‘lishibdi. Kunduzi odamlarning ko‘ziga ko‘rinmaydigan Hojixonajina lip etib uning yelkasiga minibdi.

– Og‘ir emasmi? – deb so‘rabdi Meshpolvon.

– Yo‘q-yo‘q, sirayam og‘irmas, – deya pishillab javob qaytaribdi Mutal-maynavoz, so‘ngra burni yer haydagudek bo‘lib, kuchanib qadam tashlaganicha ulardan uzoqlasha boshlabdi.

Odamlar uni xoxolab-xoxolab kuzatib qolishibdi.

Hojixonajina kechqurun sheriklarining oldiga qaytib kelib: «Mutal-maynavozniyam tap-tayyor qildik», debdi.

Mutal-maynavozga butun og‘irligini solib olgan Hojixonajina sahrogacha yallo qilib borgach, bir sakrab uning bo‘ynidan tushibdi-yu, odatiga ko‘ra quyunga aylanibdi. Boy bo‘lsa: «O, tillojonlarim! Qayoqqa qochyapsizlar, akang aylangurlar?» – deb baqirganicha uni quvishga tushibdi...

Ha, Mutal-maynavoz boylik, aysh-u ishrat, dabdabani deb hamma aziz narsasini qurban qildi: Sepkilshohga qarshi chiqqan ikki ukasini tutib berib, ularning mol-mulkini o‘zinikiga qo‘shib oldi, kelin-u jiyanlarining nafrat va qarg‘ishiga uchradi; qaynatasi isyonchilar tarafida bo‘lgani uchun xotinini bolalari bilan birga haydadi; do‘stilarini, yurtdoshlarini birma-bir sotdi, olamda boyligidan bo‘lak qadrdoni qolmadi.

Endi esa uning bir qop ko‘rinmas oltini – dunyodagi yagona ilinji quyunga aylanib, sahroda qochib bormoqda.

Mutal-maynavoz hali uzoq yashaydi, sochlari qordek oqarib, yuzlari iztirobdan ko‘karib ketadi, rahmdil odamlar tutgan oziqni jimgina kavshab, dunyoni kezaveradi. Ko‘zları alang-jalang boqib, kunduzi ham chiroq yoqib, bir qop oltinini axtaradi, quyun ko‘rindi deguncha: «O, tillojonlarim! To‘xtanlar!» – deya uni quvalashga kirishadi. Butun umri quyunni izlash, quyunlarni sizlash bilan o‘tadi...

Meshpolvonning biri-biridan quvnoq do‘satlari chaqchaqlashganicha yo‘lda davom etishibdi, hatto dasht-u cho‘llarniyam kuldirib o‘tishibdi, oxiri Mingpodaga yetishibdi.

Chorrahadagi gadoy olovrang bulutlarga tikilganicha haliyam o‘sha joyida o‘tirgan mish. Faqat endi avvalgiday g‘alati-g‘alati gaplarini gapirmas, gapiray desa tili, ovqat yeyay desa jig‘ildoni yo‘q emish. Burnini ham kimdir kesib olgan mish. Bularning evaziga tashlab ketilgan bir uyum ko‘z, quloq, miya, yurak kabilar uning oldida qalanib yotgan emish...

Birov qitiqlayotgandek tuyulib, Meshpolvon uyg‘onib ketdi. Qarasa, egizak ilonlar uning do‘ngalak qorniga chiqib olishib, chalao‘lik bir chigirtkani talashganicha jiqqamusht bo‘lishyapti. Meshpolvon: «Bu qanaqasi, ilon afandilar? Jig‘ildonning gapiga kirib, aka-ukachilikniyam yig‘ishtirib qo‘yibsizlar-da», deb boshlariga bittadan shapillatib urgach, chigirtkani ikkalasiga teng taqsimlab berdi.

«Jumbojni qarang, – deb o‘yladi u. – Bular dan qaysi biri Chika-yu, qaysi biri Puka? Umuman, ilonlar bolasini qanday tanib olarkin?»

* * *

Qahratoniyadagi bir haftalik shodiyona Oshiqbola bilan Oytumorning to‘yiga ulanib ketdi. Allalar yallaga aylanib, dorbozlar mukofot poylab, kurashchi polvonlar belini boylab, hofizlar tomog‘ini

moylab, ayollar bichiqchining uyini so‘rab, erkaklar sartaroshxonani o‘rab, buzuq devorlar tuzatilib, ko‘chalar bezatilib, hammayoq yana bayram tusiga kirdi.

Dadasi xiyla darmon to‘plab ulgurgan Meshpolvonni yetaklab to‘yga olib chiqadigan bo‘ldi.

– Achaxon-chi? – deb so‘radi u.

– Sen dadang bilan boraver, – deb kuldi onasi. – Achaxon ikkalamiz kelin tomonmiz.

Keyin onasi uning malham surtib bog‘langan boshini kallapo‘sh ustidan silab, «mehmonlarning oldidayam bobillab maqtanavermagin, endi katta bo‘pqolding», deb bir nasihat qildi:

Kimki aybin yashirib,
O‘z bahosin oshirib,
Ko‘pirtirsa toshirib,
Kulgi bo‘lar hammaga.

Pichoq shamshirman desa,
To‘mtoq o‘tkirman desa,
Qo‘rqoq botirman desa,
Kulgi bo‘lar hammaga.

Qo‘r o‘zin cho‘g‘ ko‘rsatib,
Bor o‘zin yo‘q ko‘rsatib,
Lanj o‘zin sho‘x ko‘rsatib,
Kulgi bo‘lar hammaga.

Chittak zotim tarlon deb,
Uy shifti men osmon deb,
Noshud naslim chaqqon deb,
Kulgi bo‘lar hammaga.

Gulman desa tikonlar,
Sherman desa quyonlar,
Zo‘rman desa nimjonlar,
Kulgi bo‘lar hammaga.

Kim maqtanib lof ursa,
So‘zni so‘zga shopirsa,
O‘ylamasdan gapisra,
Kulgi bo‘lar hammaga.

– To‘g‘risini aytsam, gapni qaerda oshirvorganimni o‘zim bilmasdan qolaman, – dedi Meshpolvon, onasiga kechirim so‘rayotgandek qarab.

Shunda dadasi hazillashib: «Ortiqcha ko‘pirtiradigan bo‘lsang, endi qattiqroq yo‘talib qo‘yaman», deya uning yelkasiga qoqdi.

Qasr bilan bog‘ oralig‘idagi kattakon maydonga gilam va ko‘rpachalar to‘shalib, bazmga mo‘l-ko‘l joy hozirlangan ekan. Yerlik kambag‘allar-u hurlikka chiqqan qullar aralash-quralash bo‘lib, bir hovlida o‘sgan og‘a-inilardek apoq-chapoq suhbatlashib o‘tirishardi.

– To‘ydan keyinoq uyga jo‘naylik, dada, – deya yo‘l-yo‘lakay gap qistirdi Meshpolvon. – Enaginamni juda ko‘rgim kelyapti.

– O‘zimni aytmaysanmi, – dedi dadasi. – Somon yanchishni shunaqayam sog‘indimki!

Qizqo‘rg‘onda yaralanib yiqilganda tizzasi ham qattiq shikastlangan Meshpolvon bigizli o‘qlovini hassa qilganicha, oqsoqlanib davraga yaqinlashdi. Hamma o‘rnidan turib uni shov-shuv bilan qarshi olgach, joyida g‘oz to‘xtalib, olomonga jilmayib boqdi. Bunday izzat-ikromga javoban biron-bir ma’ruza aytmasdan turaverishni yirik odobsizlik va ko‘rnamaklik deb tushundi.

Mabodo Meshpolvon davradagi minglab odamlar orasida o‘nlab fozil-u donolar ham borligini hisobga olib, bu safar o‘zini bosiqroq tutishga urinsa yoki shoirona jimjimador so‘z aytib yuborsa, hech qachon Meshpolvon bo‘lolmasdi. U, dadasingin pinjidan chiqib, oliftanamo tarzda bir qo‘lini yuqori ko‘tardi.

– Bunaqa qilmanglar-da, qadronlar, – deya ichki mammuniyat bilan qosh kerdi u. – Juda xijolat bo‘lyapman. Nima ish ko‘rsatibmanki, hadeb ta’zim qilaversanglar. Sepkilshohni majaqlagan bo‘lsam, bu ishda askarlarimniyam ancha-muncha hissasi bor. Ikkilamchidan, mundoq olib qaraganda, dev-u yalmog‘izlarni dabdala qilgan mendek odamga bitta poshshoni yengish ish bo‘ptimi? Sichqonni ezdim nima-yu, bu nima...

Meshpolvonning haddan oshib borayotganini sezgan dadasi ustma-ust tomoq qirdi. Ma’ruza bir lahma bo‘linib, maydonga jimlik cho‘kdi.

– Xullas, meni ortiqcha uyaltirmanglar, – dedi Meshpolvon dadasiga zimdan nazar tashlab. – Maslahatim shuki, xaloskor pahlavonlarga qulluq qilavergandan ko‘ra, o‘zlarining urushishni sal-pal o‘rganib olinglar. Sepkilshohga o‘xshaganlar ko‘p, menga o‘xshaganlar kam. Sizlarni har safar qutqarib ketaverishga vaqtimiz yetmasligi mumkin.

– Meshpolvon to‘g‘ri aytyapti, – deb ovoz qildi davradagilardan biri. – Biz o‘zimiz landavurmiz, xomkallamiz.

– Yashasin, dovyurak Meshpolvon! – deb qichqirdi boshqa birov. – Pahlavonimizning botir askarlarimniyam qandini ursin!

Meshpolvon qo‘lini qorniga bosib, olomonga iltifot bilan bosh qimirlatdi.

– Rahmat sizlarga! Kam bo‘lmanglar!

So‘ng: «Endi hammamiz tirikchilik qilamiz», deb davraga qarab yurdi, kelib Rayhon qiziq bilan Chumakvoyning orasiga suqldi. Dadasi qarshi tomondagi ko‘rpachaga o‘tib o‘tirdi.

* * *

Birozdan keyin yuzlab dasturxonlar yozilib, guruh-guruh dasturxonchilar ichkuyovdek tovushsiz odimlab, noz-ne’mat tarqata boshlashdi. Meshpolvon oldiga nimaiki qo‘yilsa, ho‘l-quruq demay, peshma-pesh uraverdi. Bitta dasturxonchi uning yonidan jilolmay, bo‘shagan idishni olish, yangisini uzatish bilan ovora bo‘lib qoldi. Chumakvoy bilan Rayhon qiziqning labi chimirilib, nima deyishni bilmay turishaverdi.

Dadasi «eh-xi» deb yo‘talib qo‘ygandan keyingina Meshpolvon o‘ziga kelib, go‘yo shu mahalgacha odob bilan qo‘l qovushtirib o‘tirgan odamdek: «Kattaroqlaring boshlab bersanglar bo‘larmidi», deya atrofdagilarga sipolanib boqdi va ularni dadil harakat qilishga undab, bir so‘z dedi:

So‘lakda til sug‘orib,
Mo‘ylovlarni himarib,
Qo‘l cho‘zing yeng shimarib,
To‘yda bari tekindir.

Osh yeyishni odatda
Boshlar biron-bir katta,
Qolganiga biz shatta,
To‘yda bari tekindir.

Esnar odamzod uyda,
Gaplashar ko‘cha-ko‘yda,
Ovqat yeb qoling to‘yda,
To‘yda bari tekindir.

Bildirishar bilmasang,
Yetaklashar kelmasang,
Yedirishar yemasang,
To‘yda bari tekindir.

Chalib karnay-bolabon,
Kelar saf-saf olomon,
Nima qo‘ysang, talamon,
To‘yda bari tekindir.

Jangda kerak manjaqa²⁰,
Ishda – o‘roq, panshaxa,
Bunda – faqat ishtaha,
To‘yda bari tekindir.

Tun so‘ramas oy puli,
Go‘r so‘ramas joy puli,
To‘ychi olmas choy puli,
To‘yda bari tekindir.

Hammomda bor jom haqi,
Ijarada – tom haqi,
Yo‘qdir pishiq-xom haqi –
To‘yda bari tekindir.

Bozorda o‘z holing bor,
Yo puling, yo moling bor,
Bunda «ber» yo‘q, «oling» bor,
To‘yda bari tekindir.

Ovqat tursa muntazir,
Yemaganlar – betasir,
Bo‘lsangiz-chi sal abjir,
To‘yda bari tekindir.

Odamlar «oling-oling» bilan dasturxonga birin-sirin qo‘l urishdi. Ochlar xap-xaplab, o‘rtachalar shap-shaplab, to‘qlar orada gap-gaplab ovqatlanaverdi. Semizlar choyga, oriqlar moyga ko‘proq qo‘l cho‘zib, novchalar enkayib, pakanalar kekkayib kavshanardi.

Meshpolvon dasasiga tez-tez ko‘z qirini tashlab, noilojlikdan boshini qashlab, boshvoqsiz Chumakovoya havasda boqib, istihola bilan pista chaqib, shoshilmasdan chaynab o‘tirdi. To‘g‘ri, bir

²⁰ Қалъа дарвозасини бузувчи «манжаник»нинг шевада айтилиши.

marta dadasingning ko‘zini shamg‘alat qilib, kosadagi nisholdani apil-tapil simirib oldi.

Qarshi tomonda o‘tirganlarning ko‘pchiligi Meshpolvonning Qahratoniyaga qul qilib keltirilgan hamqishloqlari edi. Dadasingning yoniga cho‘kka tushib olgan bodroqchi kishini u bir qarashdayoq tanidi.

O‘sha bodroqchi suhbat o‘rtasida Meshpolvonning oldidagi o‘qlovga pisanda qilib, sekin gap o‘rmalatdi:

– Menga qaragin, Meshpolvon, urishgani nayza yaxshimi, o‘qlovmi?

– Qaysi qurol egasiga o‘ng‘ay bo‘lsa, o‘sha yaxshi.

– Buyam to‘g‘ri. Ammo-lekin, nayzani yuz qadamga otsa bo‘ladi deyishadi. O‘qlov uzoqqa bormas-ov.

Jangovar quroliga nisbatan bunday hurmatsizlik Meshpolvonning jig‘iga tegdi.

– Yuz qadamni gapirasiz-a, – deb kuyunchaklandi u. – Men ikki yuz qadamdan nosqovoqni urganman. Nayza boshqa narsa, o‘qlov boshqa narsa.

Ana endi Meshpolvondan o‘qlovning madhini eshiting:

O‘ynaymanki dangal garov,
Enasidan yesa o‘qlov,
Gapirvorar hatto soqov,
Nayza o‘qlov bo‘lolmaydi.

Chertilgandek toshpalahmon,
Biqiningga tekkan zamon,
Tomog‘ingda o‘ynaydi jon,
Nayza o‘qlov bo‘lolmaydi.

Belga o‘qlov tushsa, demak –
Bosib issiq g‘isht yo kepak,
Qoqrilm²¹ ichib yotish kerak,
Nayza o‘qlov bo‘lolmaydi.

Boldiringga tegsa nogoh,
Toldan yasab qo‘ltiqtayoq,
Hakkalaysan urgancha «oh»,
Nayza o‘qlov bo‘lolmaydi.

O‘qlov zarbin har yondan kut,
Boshni burkab, ketingni tut,
Yo‘qsa ko‘zdan chiqargay o‘t,
Nayza o‘qlov bo‘lolmaydi.

Qochsang o‘xshab pirpirakka,
Otsa orqangdan kurakka,
Aylanasan g‘ildirakka,
Nayza o‘qlov bo‘lolmaydi.

Meshpolvon so‘z aytib turar,

²¹ Қокрим – қалампир ва хомпиёз аралаштирилган айрон.

Dono yig‘lab, nodon kular,
O‘qlov yegan yaxshi bilar –
Nayza o‘qlov bo‘lmaydi.

Ezma bodroqchi shuncha ta’rif-u tavsifni eshitib ham, o‘qlovning kuch-qudratiga yana shak keltirdi:

– Xafa bo‘limagin-u, Meshpolvon, o‘qlovni ikki yuz qadamga otish baribir qiyin. Tag‘in, nosqovoqni urganman deyapsan...

Meshpolvon ko‘pchilikning ichida o‘sal bo‘lishni azaldan yoqtirmas edi. Bodroqchi shuncha olomonning o‘rtasida uni yolg‘onchiga chiqarayotgani haddan ziyod alam qildi.

– Menga ishonmayapsizmi hali? Ko‘rsatib qo‘yaymi?

Benihoyat qizishib ketganidan na umrida o‘qlovni uzoqqa otib ko‘rmagani yodiga tushdi, na dadasingin ma’nodor tomoq qirganini eshitdi. O‘rnidan turib, qadrdon qurolini gulzor tomonga qulochkashlab irg‘itdi, o‘qlov o‘ttiz qadamcha joyga yetganda xiyol pastladi-yu, so‘ng tuyqusdan yana yuqorilab, shu kuyi tekis uchib boraverdi, oxiri qasr devoridan oshib o‘tib, ko‘zdan yo‘qoldi.

Bodroqchining qoshi baroqlanib, tili sangilladi. Boshqalar ham og‘zi ochilgan asno turib qolishdi.

Oshnasi qurolini otgandan keyin shuvillab borganicha uni havoda ilib ketgan Hojixonajina o‘n chaqirimcha narida qiyalab yonga burildi, o‘qlovni qasrning orqa tomonidan aylantirib kelib, shiddat bilan yana Meshpolvonga yaqinlasha boshladi.

Dunyodagi eng uchqur quroq qarama-qarshi yoqdan paydo bo‘lib, dasturxonadagi bo‘sh kosani pachoqlab to‘xtaganini ko‘rgan odamlar battardan hayratga tushishdi.

– Ie, tayog‘ing boshqa tarafdan keldi-ku, – deya go‘layib so‘z qotdi bodroqchi. – Hech baloga tushunmadim-ku.

– Nimasiga tushunmaysiz? – deb g‘o‘dangladi Meshpolvon. – To‘g‘risini aytganda, o‘qlovim yerni bir aylanib chiqdi.

Odamlar: «Vo-o-h!!!» – deb yuborishdi.

Gulzor chetida ohista chirpirab yurgan quyuncha o‘qlov otilishi bilanoq ko‘rinmay qolib, endi yana paydo bo‘lganidan gap nimadaligini allaqachon payqagan dadasi Meshpolvonga eshittirib qattiq tomoq qirdi. Atrofdagilarning qop-qop tasannosidan havolanib turgan po‘stakli pahlavon tezda past tushgisi kelmay, dadasiga dimog‘lanib dedi:

– O‘rni kelsa-kelmasa yo‘talavermang-da, dadaginam. Zo‘rligimni ko‘zingiz minan ko‘rdingiz-ku.

Dadasi o‘zini kulgidan bazo‘r tiyib, asta jag‘ silayotgan damda, ovsar bodroqchi taajjubnamo gardan qashlab: «Qiziq! O‘qlov bir aylanib chiqqan bo‘lsa, yer yapaloq emas ekan-da», deya ming‘irlab qo‘ydi.

* * *

Qiz to‘yining kunduzgi qismi atrofdan kelgan tanish-bilishlarni kutib olish, joylashtirish, ziyoft pishirish, qariyalarga alohida osh berish bilan o‘tib, eng qiziqarlisini odatda kechqurun boshlanadi.

Tungi bazmni erkaklar qasrda, ayollar Qizqo‘rg‘onda qilishdi. Hamma joydagidek ikkita hovlida bo‘limgan to‘y to‘yga o‘xsharmidi?

Oshiqbola bilan Oytumorning qarindosh-urug‘lari olislik qilib, bu marosimga ularni ayta olishmagani sababli, Meshpolvonning dadasi kuyov tomonga, onasi kelin tomonga mutasaddi bo‘ldi, mehmonlarni ko‘ngildagidek kutib-kuzatish, to‘yining barcha rasm-rusumlarini o‘rniga qo‘yib bajarishni boshqarib turishdi. Rayhon qiziq mo‘tabar keksalarga to‘n kiydirish, Chumakovoy bu sarf-xarajatlarni hisob-kitob qilish bilan band edi.

Qasrdagi dilxushlik yarim kechagacha cho‘zilgach, kuyovnavkarlarning bir qismi Oshiqbolani o‘rtaga olib, Qizqo‘rg‘onga jo‘nashdi. Kuy-qo‘shiq, o‘yin-kulgining quyug‘i endi kelin tomonga

ko‘chdi. Mashshog‘-u hofizlar, o‘yinchi-yu qayroqbozlar, askiyachi-yu qiziqchilar, ko‘zbaxshi-yu yog‘ochoyoqlar bir-birini bahsga chorlab, tunni tongga ulay boshlashdi. Oshiqbola bu orada ikkita jo‘rasi bilan go‘shangaga kirib, kelinga uzuk taqib chiqdi. Oyoq ostida o‘ralashayotgan bolalarni chalg‘itish uchun qadimiy urf-odat bo‘yicha ularning boshidan tanga sochdi.

Vaqt allamahal bo‘lganda bazm tugab, kuyovnavkarlar otlarga minishdi, qator-qator aravalarning oldiga o‘tib tizilishdi. Egachilar kelinni yetaklab chiqib, ustiga so‘zanalar yopilgan sayvon aravaga o‘tqazishdi. Yana bir necha aravaga seplarni tugib olgan qiz-juvonlar joylashishdi. Arava-yu otlar karvon-karvon bo‘lib, qasr sari yo‘lga chiqdi.

Lo‘pchik yoqib olgan kuyovnavkarlarning alyori atrofdagi qishloqlarga taralib, ba’zilar tomosha uchun yo‘l yoqasiga yugura boshladи. Chapani o‘spirinlar ikki-uch joyda, goh arqon tortib, goh xoda yotqizib yo‘lni to‘sishdi. Ular egachi qiz-ayollardan qiyiq, kashta tikilgan sochiq, loaqlal gajimdon ro‘molcha undirgandan keyingina aravalarni o‘tkazib yuborishardi.

Kuyovnavkarlar qasr yoniga yetib kelishib, ot va lo‘pchiklarni bolalarning qo‘liga tutqazishdi. Aravalar ravotning ro‘parasida to‘xtadi. Lo‘pchikli bolalar ularning atrofiga tizilib, yo‘lni yoritib turishdi.

Oytumorga egachi bo‘lib olgan Achaxon talashib-tortishib Oshiqboladan husnpuli olgach, kelinni aravaning qirg‘og‘iga keltirib o‘tirgizdi, kuyov qallig‘ini ko‘tarib yerga tushirdi.

Qiy-chuv tovushlarni ko‘mib yubormoqchiday chirmandalar ovozi yangradi. Sep-ziynat ko‘targan ayollar kelin va egachilarни qurshab ichkariga yo‘l olishdi, kuyovnavkarlar ularga ergashishdi.

Meshpolvon hassa tayanganicha kuyovnavkarlar bilan maydonga yaqinlashib kelayotganda, chetraqdagi bo‘sh so‘ri yonida ivirsiyotgan daydi ko‘ppakni ko‘rib, yuragi laka-lak tepdi. So‘ri chetidagi tovoqda turgan pishirig‘lik son go‘shtini u ancha ilgari ko‘z tagiga olib qo‘ygandi. Bu udumga ko‘ra kuyovning yaqin jo‘ralari oldiga butunicha qo‘yilgan qo‘y go‘shtining ortib qolgan bo‘lagi edi. Ko‘ppak iskanganicha tovoqqa yaqinlashayotganidan Meshpolvonning battar kapalagi uchib, Rayhon qiziq bilan Chumakvoyning biqiniga turtdi.

- Hoy, ko‘z bormi ikkalangda?
- Nima gap?
- To‘y rasvo bo‘ldi-ku. Anavi ko‘ppak go‘shtni hidlab, harom qilyapti.
- Hamma vahima shungami, ukavoy? – dedi Rayhon qiziq. – Yeganda nima?
- Kalla joyidami? Duch kelgan it besh qadoqdan go‘sht yeb ketaversa, biz ochdan o‘lmaymizmi?
- Hay endi, hazilning joyi bor, jo‘ro, – dedi Chumakovoy.
- O‘zi ikkalanggayam amal bermaslik kerak edi, tezda aynibsanlar, – deb jahllandi Meshpolvon. So‘ng tuyqus burni cho‘chchayib, do‘q urdi. – Buyuraman! Tuppakni ishga sol!

Darveshtabiat qo‘mondon shu topda hazil qilmayotganini sezgan Chumakovoy zudlik bilan qo‘ynidagi tuppakni oldi, uni shoshilinch o‘qlab, bir puflashdayoq aniq nishonga urdi. Ko‘ppak g‘ingshiganicha potirlab qoldi, chap ko‘zini mushukyuvinish qilib yumdalashga tushdi.

– Battar bo‘l, sakvachcha! – dedi Chumakovoy tuppakni qo‘yniga solayotib. – Kim bo‘psanki, Meshpalvon sendan ortganini yesa.

Ammo, itning joni chandir deb bejiz aytishmagan, u tezda o‘zini o‘nglab, sog‘ ko‘zini yana go‘shtga olaytirdi. Endi Rayhon qiziq egnida vazirlik libosi borliginiyam paqqos esdan chiqarib, cho‘zmasini charsillatdi. Go‘shtga yetay deb turgan tumshug‘idan tosh yegan ko‘ppak angillab bir irg‘ishladi-yu, o‘zini gullarning ichiga urdi. Meshpolvon yengil nafas oldi.

– E, rahmat-e! Qo‘llaring dard ko‘rmasin-e!

Shu payt tepadan qiqir-qiqir tovush eshitilgandek bo‘ldi. Meshpolvon yuqoriga qarab, maydon chetidagi sadalardan birining shoxida g‘uj bo‘lib o‘tirgan tutinsimon bolakaylarni ko‘rdi. Nigohida piltasoch Hojixonajinani qidirib topgach, dili yanada charaqlab, lunji yoyildi. Hojixonajina ham har qachongidek chiroyli jilmayib, quvnoq ko‘z qisdi.

Bu orada qizlar kelinni davra o‘rtasiga boshlab kirishdi, alamazon qilib yoqilgan gulxan tegrasida

aylantirib, «yor-yor»ni avjga chiqarishdi. To‘yda kuyovning tug‘ishganlari yo‘qligi bois kelinsalom aytishga ularning tili bormayotgan edi. Buni payqagan Meshpolvon o‘zini tiyib turolmadi. Dasturxonagi bo‘sh barkashni olib, uni «dangir-dung, dangir-dung» chalganicha oqsab-to‘qsab o‘rtaga chiqdi-da, ovozining jilovini bo‘shatib kuylay ketdi:

Nos chekishga berilgan,
Kampiriga kerilgan,
Salom-salom, kelin salom,
Qaynatasiga bir salom.

Sirini to‘yda ochayin,
Qozon-tovoqqa xo‘jayin,
Salom-salom, yana salom,
Qaynanasiga bir salom.

Atrofdagilar ham qondoshlarning yo‘qligini bildirmay, biri «e, quillug‘-e», boshqasi «boy bo‘lsin kelin», deb turishdi. Bolalar esa har bir kelinsalomdan keyin Chumakvoy rahbarligida «ha-heyy», deya qiyqiriq ko‘tarishardi...

Qimmat ro‘mol o‘ragan,
Saqichni qarzga so‘ragan,
Salom-salom, kelin salom,
Qayinsingillarga salom.

Ikkala ko‘zi go‘laygan,
Chumchuqqa pichoq do‘laygan,
Salom-salom, yana salom,
Qaynog‘asiga bir salom.

– Mayli, hozircha o‘zim qaynog‘a bo‘pturay, – deya iljayib qichqirdi Rayhon qiziq. – Pochcham pichoqni cho‘zib qo‘ysin²².

O‘smani chaplab surishgan,
Tilini qayrab turishgan,
Salom-salom, kelin salom,
Ovsinlariga bir salom.

Kuyovga qo‘shilib dovdirar,
Qizlarga ko‘zi jovdirar,
Salom-salom, yana salom,
Kuyovnavkarlarga salom.

Joyni tepadan talashgan,
Oshtovoqni yalahsgan,
Salom-salom, kelin salom,
Mehmonlarga bir salom.

²² Одатга кўра куёв қайноғаларига пичок совға қиласи. Айтишларича, қайноға мабодо куёвга эскидан қасддор бўлса, уни ўзи берган пичокда ўлдиролмас эмиш.

Kavakka qand-qurs bekitgan,
Ertakni erinmay eshitgan,
Salom-salom, yana salom,
Bolachoqlarga ko‘-o‘-p salom...

* * *

- Xo‘p, ayt-chi, Xitoy qayyoqda?
- Kunchiqarda, Oltiariq tarafda.
- Be, chalkashtirvording.
- Nega chalkashtirarkanman? Ishonmasang, ana, xaritadan qarab ko‘r...

Obbo, jajji kitobxonlarim-ey! Obbo, shumtakalar-ey! Juda sezgirsiz-da. Gapim oxir-oqibat hozirgi kunga, zamonaviy mактабдаги синфдорлар суҳбатига бориб тақалғанини дарров билиб олғанингизни қаранг.

Lekin, kulmang, bu suhbatni ichimdan to‘qiganim yo‘q. Aytishlaricha, samarqandlik bolalar, haqiqatan ham, Xitoy yer yuzining qay tomonida joylashganini Oltiariq orqali osongina chamalab olishaverar ekan. Buyam bo‘lsa, Meshpolvonning dovrug‘i zo‘rligidan, ko‘pga suyukligidan. Koshki, ertami-kech birontamizga shunaqa baxt nasib etsa.

Keling endi, gurungimiz tugamay turib, Meshpolvonning eng sevimli qo‘shig‘ini birgalashib xirgoyi qilaylik:

Olma yedim baqalog‘idan,
Gilos yedim chaqalog‘idan,
Anjir yedim yapalog‘idan,
Bog‘bon buvaning shapalog‘idan...

E, rahmat! Kam bo‘lmanglar! Qachonki bu ashulani o‘zingizcha kuylay boshlasangiz, Meshpolvonga qo‘shib ertakchi akangizniyam bir eslab qo‘ying...

1987–1988-yillar, Toshkent